

388

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

A. Rafiqov, H. Vahobov, A. Qayumov, Sh. Azimov

AMALIY GEOGRAFIYA

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv qo'llanma*

To'rtinchi nashr

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2010

BBK 65.04(5U)ya722
A 46

Mas'ul muharrir:
Texnika fanlari nomzodi, dotsent **V. Rafiqov**

T a q r i z c h i l a r:

O'zMU geografiya fakulteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi **I. S. Safarov**,
O'zMU iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi **O'. Sh. Yoqubov**,
O'zMU geografiya o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi **O'. Q. Abdunazarov**.

Geografiya fanlari doktori, professor **H. Vahobov** tahriri ostida

A 46

Rafiqov A., Vahobov H. va boshq.

Amaliy geografiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir **V. Rafiqov**. —T.: «Sharq», 2010. — 160 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar vazirligi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi.

BBK 65.04(5U)ya722

ISBN 978-9943-00-055-1

KIRISH

Aziz o‘quvchilar! Siz geografiya fani bilan tanishishni boshlang‘ich sinflarda «Atrofimizdagи olam», «Tabiatshunoslik» o‘quv fanlarini o‘rganishdan boshladингiz. 5-sinfda «Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi» darslarida ko‘plab bilimlarni egalladingiz, y’ani geografik xaritalar, joy planini olish, Yer qobiqlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, Yer yuzi tabiat, iqlimi, yil fasllarining almashinshi, tabiat zonaları, yirik daryolar, okeanlar, relyef shakllari va Yer yuzi aholisi haqidagi ma’lumotlarni o‘rgandingiz. 6-sinfda «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasи» fanidan har bir materikning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, relyefi, tabiat, iqlimi to‘g‘risida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarni bilib oldingiz. 7-sinfda O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiatini haqidagi, 8-sinfda «O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasи» kursida mamlakatimizning, 9-sinfda esa «Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasи» kursida xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasи bilan tanishib chiqdingiz.

Ana shu egallangan bilimlarni amalda qanday qo‘llash, o‘rganilgan ma’lumotlar asosida har bir hududning o‘ziga xos muammolarini aniqlash, baholash va ular keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olish masalalarini «Amaliy geografiya» fanini o‘zlashtirish orqali bilib olasiz.

Darslik ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda «Amaliy geografiya» fani o‘rganishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolar, ikkinchi bo‘limda esa geosiyosat assoslari yoritishga bag‘ishlangan qiziqarli mavzular o‘z ifodasini topgan.

Bu kursni o‘rganish davomida amaliy geografiyaning maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullariga doir ko‘plab bilimlarni egallaysiz, shuningdek, bugungi kun geosiyosiy muammolari haqidagi ma’lumotlar bilan ham tanishasiz degan umiddamiz.

Qadrli o‘quvchilar, «Amaliy geografiya» fanini o‘rganishda Sizga mustahkam iroda va ulkan muvaffaqiyat tilaymiz.

BIRINCHI BO'LIM

I b o b

AMALIY GEOGRAFIYANING MAQSADI VA VAZIFALARI



1-§. AMALIY GEOGRAFIYA FANI HAQIDA

Bizga ma'lumki, geografiya fani Yer yuzasi tabiatini, aholisi va uning xo'jalik faoliyatini o'rghanadi.

Amaliy geografiya fani tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini baholash va bashorat qilish bilan shug'ullanadi.

Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab jamiyat taraqqiy etgan sari inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar murakkablashib bormoqda. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy hamda umumsayyoraviy ekologik muammolar va inqirozlar paydo bo'lmoqda.

Ana shunday ekologik muammolar va inqirozlarni o'rganish, baholash va ularning sodir bo'llishini oldindan bashorat qilishda geografiya fanining o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimdir.

Mazkur muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish davomida geografiya fanlari tizimida yangi yo'nalish, ya'ni amaliy geografiya fani paydo bo'ldi va u hozirgi paytda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Amaliy geografiyaning maqsadi tabiiy muhit va resurslarni baholash, tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini bashorat qilishdan iboratdir.

Amaliy geografiyaning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

1) xo'jalik maqsadlarida foydalinch nuqtayi nazaridan tabiiy sharoit va resurslarni o'rganish va baholash;

2) tabiiy geografik jarayonlarni o'rganish, baholash va bashorat qilish;

3) inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgartirilishi jarayonini baholash va bashorat qilish;

4) umumsayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolarning yuzaga kelish sabablarini ochib berish va ular yechimining geografik asoslarini ishlab chiqish;

5) ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish muammolari va aholi joylashuvi masalalarini yechish.

Amaliy geografiya fani geografiyaning rivojlanib kelayotgan yangi tarmoqlaridan biri bo'lsa ham, uning ildizi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar amaliy geografiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar. Masalan, Ahmad al-Farg'oniy Nil daryosining suv sarfini o'rghanish va bashorat qilish bo'yicha amaliy geografik ishlarni olib borgan. Abu Rayhon Beruniy esa bir gradus yoyning uzunligini aniqlab, Yerning asosiy o'lchamlarini hisoblashga juda ulkan hissa qo'shgan (*I-rasm*).



I-rasm. Abu Rayhon Beruniy.

Eslab qoling!

Geografiya Yer yuzasining tabiatni, aholisi va uning xo'jalik faoliyatini o'rghanadi.

Amaliy geografiya tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini baholash va bashorat qilish bilan shug'ullanadi.

Bilasizmi?



Geografiya yunoncha so'z bo'lib, «ge» — yer, «o» — bog'lovchi, «grafo» — tasvirlayman, chizaman degan ma'noni, ya'ni Yerning tasviri degan ma'noni bildiradi.

Geografiya so'zini fanga birinchi marta yunon olimi Eratosfen miloddan avvalgi III asrda «Geografika» nomli asarida olib kirgan. Vatandoshimiz buyuk alloma

Muhammad Muso al-Xorazmiy ham IX asrda «Kitob surat ul-Arz» nomli asar yozgan. Mazkur asarning nomi arabchadan o'zbekchada tarjima qilinsa, «Yerning tasviri haqidagi kitob» ma'nosini beradi.

Jahonda birinchi bo'lib Yerning modeli — globusni ham IX asrda bobokalonimiz buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ixtiro etgan.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Amaliy geografiya nima bilan shug'ullanadi?
2. Amaliy geografiyaning maqsadi nimalardan iborat?
3. Geografiya qanday tarmoqlarga bo'linadi?
4. Amaliy geografiyaning vazifalarini darslikdan o'qib, daftaringizga ko'chirib yozing.

2-§. AMALIY GEOGRAFIYANING TADQIQOT USULLARI

Amaliy geografiya tabiiy va ijtimoiy muhitni o'rghanishda turli tadqiqot usullaridan foydalanadi. Mazkur tadqiqot usullariga quyidagilar kiradi: sistemali, ekologik, landshaft va iqtisodiy. Ushbu usullarni yondashuv deb atash ham mumkin.

Sistemali usul (yondashuv). Mazkur usulda o'rganilayotgan hudud ma'lum bir sistema sifatida qaraladi. Bu sistema esa bir-biri bilan bog'langan qator kichik sistemalardan iborat bo'ladi. Masalan, Chirchiq vodiysini ma'lum bir yaxlit sistema sifatida oladigan bo'lsak, u bir-biri bilan bog'langan quyidagi sistemalar dan iborat: geologik tuzilishi; relyefi; suvlari (daryolari, ko'llari, muzliklari, botqoqliklari, yerosti suvlari); iqlimi; tuproqlari; o'simlik va hayvonot dunyosi; qishloq xo'jaligi; sanoati; transporti; aholi manzilgohlari (shahar va qishloqlar); gidrotexnik inshootlar va h.k. Ushbu sistemalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bu sistemalarning biri o'zgarsa boshqalari ham o'zgaradi. Masalan, iqlim yoki suv sistemasi o'zgaradigan bo'lsa, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi ham o'zgaradi.

Ekologik usul (yondashuv). Ushbu usulda ma'lum bir hudud yoki muammo o'rganilayotganda, unga tirik mavjudotlarning (o'simlik va hayvonot dunyosi), insonning atrof-muhit bilan bo'ladigan o'zaro aloqalari nuqtayi nazaridan qaraladi. Masalan, Chorbog' suv ombori qurilishi munosabati bilan vodiyning ancha qismi suv ostida qoldi, yerosti suvlari sathi ko'tarildi, tuproq va havoda namlik miqdori oshdi (2-rasm). Buning oqibatida tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zgarishga uchradi. Suv ostida qolgan qishloqlar aholisi ko'chirildi, yangi, shinam va go'zal Chorbog' shaharchasi, dam olish zonalari vujudga keldi. Demak, ekologik yondashuvda tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning tirik ogranzimnga ta'siri oldindan o'rganilar va bashorat qilinlar ekan.



2-rasm. Suv ombori.

Landshaft usuli (yondashuvi). Mazkur usul qo'llanganda, hudud ma'lum bir landshaft turlariga bo'lib o'r ganiladi. Masalan, biror tuman hududini o'rganadigan bo'lsak, mazkur tuman hudu-di avval tabiiy va antropogen landshaftlarga ajratiladi. Tabiiy landshaftlar o'rmonlardan, yaylovlardan, pichanzorlardan, toshloq va qumlardan, botqoqlardan, sho'rxoklardan, soy vodiylaridan, yonbag'irlardan va boshqa landshaft turlaridan iborat bo'lishi mumkin. Antropogen landshaftlar esa qishloq xo'jalik yerlaridan, sanoat korxonalaridan, yo'llardan, shahar va qishloqlardan iborat bo'lishi mumkin. Har bir landshaft turi alohida-alohida tahlil qilinadi.

Iqtisodiy usul (yondashuv). Bu usulda aniq matematik-statistik hisoblashlar orqali tabiiy sharoitga, tabiiy resurslarga, aholi va xo'-jalik korxonalariga baho beriladi hamda ularning o'zgarishi bashorat qilinadi. Masalan, aholi sonining o'sishi yoki kamayish va h.k.

Amaliy geografiya muhandislik geologiyasi, muhandislik geografiyasi, amaliy landshaftshunoslik fanlariga yaqin turadi, ularning tajriba va ilmiy yutuqlaridan foydalanadi. Shu bilan bir-

galikda, bu fan tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy usullardan tabiatni muhofaza qilishda, atrof-muhitning tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida o'zgarishini bashorat qilishda boshqa fanlar ham keng foy-dalanadi.

Eslab qoling!

Amaliy geografiyada sistemali, ekologik, landshaft va iqtisodiy tadqiqot usullari qo'llaniladi.

Bilasizmi?



Ekologiya — tabiiy muhitning tirik ogranzimlarga ta'siri va ular o'rtaqidagi munosabatlarni o'rganadigan fan. «Ekologiya» atamasini fanga XIX asrda nemis olimi E. Gekkel olib kirgan.

«Ekologiya» so'zi yunoncha bo'lib «oikos» — uy, yashash joyi, «logos» — fan degan ma'noni beradi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Amaliy geografiyada qanday tadqiqot usullari qo'llandi?
2. Tizimli yondashuv deganda nimani tushunasiz?
3. Ekologik yondashuvning maqsadi nimadan iborat?
4. O'zingiz yashab turgan qishloq yoki mahallani tizim sifatida qarab, ularning qanday tizimchalaridan iborat ekanligini aniqlang va nomlarini daftaringizga yozing.
5. Iqtisodiy yondashuvda qanday ishlar amalga oshiriladi?

3-§. AMALIY GEOGRAFIYANING AHAMIYATI

Hozirgi paytda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tobora jiddiylashuvi va buning natijasida kelib chiqayotgan tabiiy, ekologik oqibatlar tabiatning qashshoqlashishiga sabab bo'lmoqda. Jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini keng miqyosda taraqqiy ettirish orqali tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham aks ta'siriga uchramoqda. Chunki insonning tabiatga ta'siri ko'p hollarda tabiat qonunlarini hisobga olmasdan amalga oshirilmoqda. Bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish va tabiat mahsuldorligini muntazam ko'paytirib borish bugungi kunning dolzarb muammo-laridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur muammoning yechimi-

da boshqa fanlar qatori geografiya ham faol ishtirok etmoqda va o'zining munosib hissasini qo'shmaqda.

Amaliy geografiya fani bugungi kunda insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishi va uni yaxshilashning umumsayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy muammolari bilan shug'ullanadi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan va ayrim hududlarda xavfli ekologik holatlar vujudga kelayotgan bir vaziyatda tabiiy muhitni sof holda saqlab qolish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur muammoni yechishda amaliy geografik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda amaliy geografiyaning ilmiy yutuqlaridan inson uchun qulay ekologik sharoitlar yaratishda keng foydalanilmoqda. Natijada «ozon tuynugi»ning maydoni qisqarib bormoqda, yo'qolib ketish arafasida turgan ko'plab o'simlik va hayvonlar saqlab qolinmoqda, ifloslangan daryo va ko'llar suvi tozalanib bormoqda (3-rasm). Sanoatning rivojlanishi natijasida buzilgan va ifloslangan landshaftlarni qayta tiklashning ilmiy asoslari ishlab chiqilmoqda.

Amaliy geografiya tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirini yaxshilash, tabiiy ofatlarning oldini olish, hududlarning rivojlaniшини bashoratlash, yirik loyihalarni ekspertiza qilishning geografik-ekologik asoslab berish muammolarini hal etmoqda. Bu esa amaliy geografiya fanining yirik davlatlar va dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni yechishdagi ishtiroki ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Amaliy geografiyaning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Hozirgi paytda amaliy geografiyaning ilmiy yutuqlaridan qanday muammolarni yechishda foydalanilmoqda?
3. Yashash joyingizda qanday ekologik muammolar mavjudligi va ular qanday hal qilinayotgani haqida so'zlab bering.
4. Yashash joyingizdagi sanoat, transport, maishiy xizmat va qishloq xo'jalik korxonalarining ro'yxatini tuzing, ularning qaysilari tabiatga ko'proq ta'sir etishini aniqlang.
5. Hozirgi paytda amaliy geografiya qanday muammolarni hal qilmoqda?



A B C D E F G



Kapcha (kobra) ilon




Bo'z echkiemar



Tasqara



Qora laylak



Xongul (Buxoro bug'usi)




Buxoro qo'y

H I J K L M N

A B C D E F G



Qo'ng'ir ayiq




Dasht mushugi

Gepard



Olako'zan



Ilvirs

3-rasm. O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan noyob hayvonlar.

H I J K L M N

II b o b

AMALIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR



Aziz o'quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: agrogeografik tadqiqotlar, yer kadastro, muhandislik geografiyasi, tibbiy-geografik tadqiqotlar.


Geografiya serqirra fan bo'lib, uni o'rganish jarayonida juda ko'plab sohalar, kasblar, mutaxassisliklar bilan tanishish imkonи bo'ladi. Amaliy geografiya fani ko'plab tadqiqot usullarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish faoliyatining ko'plab sohalarida amaliy geografiya ishtirok etadi. Amaliy geografiyaning asosiy tadqiqot yo'nalishlari: agrogeografik, muhandis-geografik, tibbiy-geografik, rekreatsiya, kartografik, rayon planirovkasi, demografik va boshqa yo'nalishlardan iborat. Quyida ularning ayrimlari haqida bilib olsiz.

4-§. AGROGEOGRAFIK TADQIQOTLAR VA YER KADASTRI

Agrogeografik («agro» — yunoncha so'z bo'lib, dala ma'nosini bildiradi) tadqiqotlar natijasida yer resurslari qishloq xo'jalik maqsadlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Agrogeografik tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar asosida har bir hudud uchun yerdan foydalanishning aniq chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Qishloq xo'jalik yerlariga ekin ekiladigan yerlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzor va yaylovlar kiradi. Qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda relyef va uni tashkil qilgan yotqiziqlar muhim ahamiyatga ega. Joyning relyefi hududning tuproq, grunt suvlari va yer usti suvlari me'yorini, o'simlik qoplami va iqlim xususiyatlarini belgilaydi. Madaniy ekinlar ham joy relyefiga mos ravishda tabaqlashtiriladi. Masalan, daryolarning (Sirdaryo, Amudaryo, Qoradaryo, Norin, Chirchiq, Ohangaron, Zarafshon va h.k.) yuqori terrasalari sug'oriladigan yerdan iborat bo'lib, ularda paxta, g'alla, yem-xashak ekinlari yetishtiriladi. Daryolarning quyi terrasalarida (I-II) sholi va boshqa suvni ko'p talab

qiladigan ekinlar yetishtiriladi. Adirlarda, o'rtacha balandlikdagi tog' larning yonbag'irlarida lalmi ekinlar, cho'llarda va tog' yonbag'irlarida yaylov va pichanzorlar joylashgan (*4-rasm*).



4-rasm. O'zbekiston yer resurslaridan foydalanish.

Shunga ko'ra, O'zbekistondagi yerlar terrasali, deltali, yoyilmali, adirli, tog' yonbag'irli yerlarga ajratilishi mumkin.

Ma'lum bir davlat, viloyat, tuman yoki hududda yer resurslari bo'yicha muntazam ravishda o'tkazilgan kuzatishlar natijasida yig'ilgan ma'lumotlarning jamlanmasi **kadestr** deb ataladi. Kadastr yer, suv, qazilma boylik, yaylov, o'rmon va boshqalar bo'yicha ham tuzilishi mumkin.

Davlat yer kadastri quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: yerning kimga qarashli ekanligi; uning miqdor va sifat xususiyatlari; tuproq bonitirovkasi; yerning iqtisodiy baholanish natijalari.

Yer kadastri mamlakat bo'yicha yagona tizimga ega bo'lib, unda yerning aniq maydoni va sifati, tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati to'g'risida to'liq ma'lumot bo'ladi. Yer kadastri asosini **tuproq bonitirovkasi** tashkil qiladi. Yer resurslarini sifat jihatdan qiyosiy baholash tuproq bonitirovkasi deb ataladi. Tuproq bonitirovkasi tuproq hosildorligiga qarab belgilanadi va odatda 100 balli shkala asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda bonitirovka asosini paxta hosili tashkil qiladi. Paxtadan gektariga 40 sentner hosil beradigan yerlar 100 balli bonitetga teng deb olinadi.

O'zbekistonda eroziyaga uchramagan tipik va bo'z tuproqlar yuqori bonitetga (80—100 ball), deltalardagi sho'rlangan, sug'ori-

ladigan o'tloq tuproqlar o'rtacha bonitetga (40—60 ball), kuchli sho'rangan, toshloq, taqirli va gilli tuproqlar past bonitetga (10—39 ball) ega.

Sho'rланish, shamol va suv eroziyası tuproq unumdorligining pasayib ketishiga kuchli ta'sir etadi. Yer osti suvlari sathi ko'tarilib ketgan joylarda tuproqlarning sho'rланishi kuzatiladi. Sho'rланishning oldini olish uchun quritish melioratsiyasi amalga oshiriladi («melioratsiya» so'zi — lotin tilidan olingen bo'lib, «yaxshilash» degan ma'noni bildiradi), buning uchun zovurlar qaziladi. Masa-lan, Mirzacho'l, Qarshi cho'llarida yerlarning zaxini qochirish uchun zovurlar 2,5—3,5 m chuqurlikda qaziladi. Bu esa ikki zovur oralig'ida yer osti suvlaringin chuqurligi 2—3 metr bo'lishini ta'minlaydi. Yer osti suvlari sathi qanchalik chuqur bo'lsa, bug'lanish shuncha kam bo'ladi va tuproqlar sho'rланmaydi.

Yer osti suvlaringin sathi yer yuzasiga juda yaqin joylashgan hududlarda tuproqlarning sho'rланishi juda kuchli bo'ladi. Uning oldini olish uchun har yili qishda tuproqning sho'ri yuvib turiladi (Xorazm, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Sherobod, Mirzacho'l, Qarshi vohalari).

Shamol kuchli esadigan hududlarda (Markaziy Farg'ona, Mirzacho'l, Dalvarzin, Qarshi, Sherobod cho'llarida) tuproqning ustki qismi eroziyaga uchraydi, oqibatda tuproqning unumdor chirindili qatlami uchib ketadi.

Shamol eroziyasining oldini olish uchun shamolning yo'nali shiga ko'ndalang tarzda ihota daraxtzorlari tashkil qilinadi. Ihota daraxtzorlari shamolning kuchini kamaytiradi va tuproqdagi namni uzoqroq ushlab turishga imkon beradi.

Sug'orish jarayonida nishab yerlar suv eroziyasiga uchraydi. Bunday eroziya sug'orish (irrigatsiya) eroziyasi deb ataladi. Sug'orish eroziyasining oldini olish uchun nishab yerlarni haydash va sug'orishni ko'ndalangiga amalga oshirish lozim. Bunda suv nishab joylarda tuproqni o'yib ketmaydi va bir tekis oqadi.

Eslab qoling!

Agrogeografik tadqiqotlar — yer resurslarini qishloq xo'jalik maqsadlarida baholash.

Ma'lum bir davlat, viloyat, tuman yoki hududda yer resurslari bo'yicha mutazam ravishda o'tkazilgan kuzatishlar natijasida yig'ilgan ma'lumotlarning jamlanmasi **kadastr** deb ataladi.

Tuproq bonitirovkasi — yer resurslarini sifat jihatdan qiyosiy baholash.

Bilasizmi?



Yer kadastro — yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi, yer resursining tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalari o'rni, o'lchamlari, chegarasi va maydoni, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijara chilar va mulkdorlar o'ttasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar majmuyi.

Yer kadastrini yuritish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: aerokosmik suratga olish, topografiya — geodeziya, xaritagrafiya, tuproqshunoslik, agrokimyo, geobotanika, gidrogeologiyaga oid izlanishlar va tadqiqotlarni o'tkazish; yerlarni miqdor va sifat jihatdan hisobga olish va baholash; yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatiga olish; yerlarni taqsimlash, ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi davlat xizmat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish; yerlarning holati, mavjudligi va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisoblarni tuzish.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Qishloq xo'jalik yerkari qanday qismlardan iborat?
2. Yer kadastro nima?
3. Tuproq bonitirovkasi nima?
4. Tuproq hosildorligini kamaytiradigan omillarni aniqlang.
5. O'zbekistonda bonitirovka asosini nima tashkil qiladi?
6. Tuproqlarning sho'rланishi qanday sodir bo'ladi?
7. Darslikdan foydalanib, O'zbekistonning qayerlarida shamol eroziyasi ro'y berishini aniqlang.

5-§. MUHANDIS-GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

Muhandislik geografiyasi inson bilan tabiat o'ttasidagi o'zarot ta'sir natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni baholash va bashorat qilish hamda ularning oldini olish muammolari bilan shug'ullanadi.

Muhandis-geografik tadqiqotlar qurilish loyihalarini amalgalashirishida asos bo'lib xizmat qiladi. Muhandis-geografik tadqiqotlar asosan sanoat korxonalarini joylashtirishda, gidrotexnik inshootlarni (kanallar, to'g'onlar, suv omborlari va h.k.), yo'llarni loyihalashda, foydali qazilma konlarini qidirishda olib boriladi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda muhandis-geografik tadqiqotlar ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda korxona

qanday xomashyo asosida mahsulot ishlab chiqarishi va atrof-muhitga qanday chiqindilar tashlashi aniqlanadi. Ikkinci bosqicha korxona uchun joy tanlanadi va mazkur joyning tabiiy-geografik sharoitining asosiy xususiyatlari aniqlanadi geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlari, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, aholisi, xo'jaligi). Sanoat korxonasi zararli chiqindilarni ko'proq chiqaradigan bo'lsa (ko'mir asosida ishlaydigan issiqlik elektrostansiyalari, sement, kimyo zavodlari), ularni aholi manzil-gohlaridan olisda, shamol yo'nalishiga teskari bo'lgan hududlarga joylashtirish zarur. Masalan, Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi, Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rtang gazni qayta ilshash zavodi cho'lda, ya'ni aholi zinch yashaydigan hududlardan ancha olisda joylashgan, shuning uchun ularning tabiat va insonga ta'siri kam.

Gidrotexnik inshootlarni loyihalashda muhandis-geografik tadqiqotlar olib borishda quyidagilarga e'tibor beriladi: suv inshooti va tabiiy muhit o'zaro ta'sirining asosiy qirralari, suvning kirish-chiqishi, sho'ranganlik darajasi, loyqaligi, bug'lanishi, to'lqinlar ta'sirida qirg'oqlarning yemirilishi, suvning shamilishi va suv inshootining samaradorligi, botqoqlanish, tuz to'planishi, o'simlik va tuproq qoplaming o'zgarishi kabilarani aniqlanadi, ayrim noxush hodisalarining oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqiladi. Masalan, Amudaryo suvi loyqa bo'lganligi (1 kub m da 3500 g loyqa bor) sababli, undan suv oladigan Amu—Buxoro, Qarshi, Shovot, Toshsoqa, Qizketken va boshqa kanallarda «o'tirib» qoladigan loyqa nasoslar yordamida qirg'oqqa chiqarib tashlanadi.

Yo'l qurilishini loyihalashda muhandis-geografik tadqiqotlar asosan relyefning tahliliga yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki ko'p holdarda loyihalanayotgan yo'lning yo'nalishini, uzunligini, kengligini, arzon-qimmatligini relyef sharoiti belgilab beradi. Shuning uchun yo'llarni loyihalashda relyefning qiyaligi, qanday tog' jinslaridan tashkil topganligi, mutlaq balandligi birinchi navbatda tahlil qilinishadi. Avtomobil yo'llarining qiyaligi 12—15° dan oshmasligi lozim.

Baland va qiyaligi yuqori bo'lgan joylarda yo'llar yer osti tunnellari orqali o'tkaziladi. Masalan, Toshkent—Andijon avtomobil yo'lining qamchiq dovonida uzunligi 2,5 km li tunnel qazilgan (*5-rasm*).

Bundan tashqari, yo'llarni loyihalashda surilmalar, sellar, qor ko'chkilari, daryo toshqinlari ham hisobda olinadi.



б)

а)

5-rasm. Tog' yo'llari

*a — tog'lardagi avtomobil yo'llari;
b — Qamchiq dovonidagi tunnel.*

Foydali qazilma konlarini qidirish davomida muhandis-geografik tadqiqotlar ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalishda kon joylashgan hududning tabiiy va iqtisodiy-geografik sharoiti o'r ganiladi va baholanadi. Ikkinci yo'nalishda foydali qazilma konini qazib olish jarayonida atrof-muhitda ro'y beradigan o'zgarishlar bashorat qilinadi (relyef, tuproq, o'simlik, iqlim, ichki suvlar, qishloq xo'jaligi, sanoati, transporti, aholisi va h.k.).

**Eslab qoling!**

Muhandislik geografiyası inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni bahlash va bashorat qilish hamda ularning oldini olish muammolari bilan shug'ullanadi.

**Bilimingizni sinab ko'ring:**

1. Muhandislik geografiyası nimani o'rgatadi?
2. Sanoat korxonalarini joylashtirishda muhandis-geografik tadqiqotlar qanday bosqichlarda olib boriladi?
3. Gidrotexnik inshootlarga nimalar kiradi?
4. O'zingiz yashab turgan joydagи inshootlar ro'yxatini tuzing va ularni daf taringizga tartib bilan yozing.
5. Yo'l qurilishida muhandis-geografik tadqiqotlar asosan nimaga yo'nalilgan bo'ladi?

6-§. TIBBIY-GEOGRAFIK TADQIQOTLAR

Tibbiy geografiya geografik muhitning, ya'ni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aholi salomatligiga ta'sirini, kasalliklarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganadi.

Hozirgi paytda tibbiy-geografik tadqiqotlar ikkita yirik yo'naliishda olib borilmoqda. Birinchi yo'naliishda atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri baholanadi va bashorat qilinadi. Ikkinci yo'naliishda kasalliklarning mahalliy tabiiy o'choqlari aniqlanadi.

Atrof-muhitning tozaligi ko'p jihatdan inson salomatligini belgilab beradi. U tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida ifloslanadi. Atrof-muhitni ifloslovchi tabiiy omillarga shamol (havodagi chang miqdorining ortib ketishiga olib keladi), vulkan otilishi (atmosferaning vulkan tutunlari va kullari bilan ifloslanishi), sellar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari, zilzilalar, chigirtka bosishi, surilmalar va h.k. kiradi.

Aholi zich joylashgan sanoat hududlarida sun'iy omillar ta'sirida atrof-muhit (zavodlar, fabrikalar, metallurgiya, kimyo zavodlari, konlar, issiqlik elektrostansiyalari, trnasport kabilalar) ko'proq ifloslanadi.

Atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanishi inson salomatligiga kuchli salbiy ta'sir etadi. Masalan, qo'rg'oshin asab tizimi, jigar va buyraklarni zaharlaydi. Simob ko'proq jigar va buyrakda to'planadi, modda almashinuvini buzadi, kadmiy bolalar nutqining buzilishiga olib keladi, mishyak o'pka va teri rakini keltirib chiqaradi. Qishloq xo'jaligida qo'llanadigan pestitsidlardan har yili jahonda 1 mln kishi zaharlanadi, ulardan taxminan 15–20 ming kishi hayotdan ko'z yumadi. Avtomobillardan chiqadigan benzopiren moddasi, radioaktiv moddalar o'pka rakini keltirib chiqaradi. Uglerod oksidining havodagi miqdori ortib ketishi organizmda kislorod yetishmovchiligidagi sabab bo'ladi hamda asab va yurak-qon tomir tizimlarini ishdan chiqaradi.

Har bir hududning mahalliy tabiiy-geografik sharoiti inson salomatligiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Havodagi kislorod miqdori, havo bosimi, harorat va namlikning o'zgarishi qon bosimi kasalligi bor bemorlarda miya va yurak faoliyati bilan bog'liq turli asoratlar paydo qiladi.

Atmosferadagi kislorod miqdorining ortishi gipertoniya krizlari va miya insultlarining ko'payishiga olib keladi. Kislorod miqdorining ortishi asosan qishda kuzatiladi. Tog'larda balandga chiqqan

sari har 10 m da bosim 1 mm simob ustuniga kamayadi va inson organizmiga tushadigan og'irlik (bosim) ortadi.

Havoda namlik qanchalik yuqori bo'lsa, issiq harorat insonga shunchalik kuchli ta'sir etadi. Nisbiy namlik 50 foiz, havo harorati 16—18°C bo'lishi organizm uchun qulay sharoit hisoblanadi. Havo harorati 24°C, nisbiy namlik 44—60 foiz, shamol tezligi sekundiga 0,7—1 m bo'lganda inson organizmi uchun juda qulay sharoit vujudga keladi.

Suvda, tuproqda va ba'zi mahsulotlarda yod elementining yetishmasligi buqoq kasalligini keltirib chiqaradi.

Eslab qoling!



Havoda namlik qanchalik yuqori bo'lsa, issiq harorat insonga shunchalik kuchli ta'sir etadi. Nisbiy namlik 50 foiz, havo harorati 16—18°C bo'lishi inson organizmi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Havo harorati 24°C, nisbiy namlik 44—60 foiz, shamol tezligi sekundiga 0,7—1 m bo'lganda inson organizmi uchun juda qulay sharoit vujudga keladi.

Bilasizmi?



Virusli kasalliklarga odam, hayvon va o'simliklarda uchraydigan juda ko'p yuqumli kasalliklar kiradi. Odamlarda viruslar qo'zg'atadigan gripp, qizamiq, sувчечак va chinchechak, virusli gepatit, poliomielit, ensefalist, quturish, gemorragik isitma kabi kasalliklar birmuncha mukammal o'rganilgan. Ko'pchilik hollarda teri kasalliklarini ham viruslar paydo qilishi aniqlangan.



Bilimingizni sinab ko'ring

1. Tibbiy geografiya nimani o'rnatadi?
2. Atrof-muhitni ifloslaydigan tabiiy omillarni aniqlang.
3. Atrof-muhitda og'ir metallar miqdorining ortib ketishi qanday kasalliklarni keltirib chiqaradi?
4. Atrof-muhitning nimalar bilan ifloslanishi rak kasalligini keltirib chiqaradi?
5. Suv va tuproqda qanday element yetishmasa, buqoq kasalligi kelib chiqadi?
6. Darslikdan foydalananib, atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanishi qanday kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlang.

III b o b

TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR



Aziz o‘quvchilar! Siz ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: tabiiy geografik jarayonlar, Yerning ichki va tashqi kuchlari ta’sirida sodir bo‘ladigan nurash, eroziya, karst, surilma, sel, zilzila, vulkan va h.k.


Bizga ma’lumki, tabiatda sodir bo‘ladigan barcha jarayonlar tashqi va ichki kuchlar ta’siri natijasida yuzaga keladi. Tabiiy geografik jarayonlarning tabiiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan, ya’ni nurash, eroziya, sel, surilma, karst, vulkan, zilzila kabilarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish va sodir bo‘lish jarayonlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga ta’sir qiluvchi sun’iy omillar, masalan, yer yuzasining sho‘rlanishi, suv eroziyasi, o‘pirilishlar, cho’llashish kabilarni tahlil qilish, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish muhimligini mavzuni o‘rganish davomida tahlillar asosida bilib olasiz.

7-§. TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR HAQIDA TUSHUNCHА

Tabiiy geografik jarayonlar deb, tabiiy va sun’iy omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlarga aytildi (6-rasm).

Tabiiy geografik jarayonlar tog‘ jinslarining yemirilishida, tog‘ jinslari fizik holatining o‘zgarishida, yer yuzasi relyefining shakllanishi va o‘zgarishida vulkan va zilzilalar sifatida, atmosfera hodisalari rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

Tabiiy geografik jarayonlar rivojlangan hududlarda turli xil inshootlarni joylashtirish, qurish va ishlatishda ma’lum bir qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun tabiiy geografik jarayonlar rivojlangan va tarqalgan joylarda turli xil inshootlar qurilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqarish muammosi vujudga kelmoqda.



6-rasm. Tabiiy geografik jarayonlar turlari.

Zilzila, vulkan, sel, surılma, ko'chki, botqoqlanish, ko'p yillik muzloq, qurg'oqchilik, o'pirilma tarqalgan joylarda qurilish ishlari olib borish uchun hozirgi paytda maxsus qoidalar, yo'riqnomalar ishlab chiqilgan.

Tabiiy geografik jarayonlar tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi.

Tabiiy omillar o'z navbatida ikki katta guruhga bo'linadi: Yerning ichki kuchlari bilan bog'liq bo'lган jarayonlar va tashqi kuchlar yoki tashqi omillar bilan bog'liq bo'lган jarayonlar.

Yerning ichki kuchlarini endogen (yunoncha «endo» — ichki, «genos» — kelib chiqish) kuchlar deb ataladi. Ular ta'sirida vulkanlar otiladi, zilzillalar sodir bo'ladi. Bunday jarayonlar endogen jarayonlar deb ataladi.

Tashqi omillarni ekzogen (yunoncha «exo» — tashqi, «genos» — kelib chiqish) omillar yoki kuchlar deb ataladi. Tashqi kuchlar ta'sirida vujudga keladigan jarayonlar ekzogen jarayonlar deb ataladi. Bunday jarayonlar Quyosh issiqligi, og'irlilik kuchi, yer usti va osti suvlari hamda organizmlar ta'sirida vujudga keladi, rivojlanadi. Ekzogen jarayonlarga nurash, eroziya, qirg'oqlarning yemirilishi, muz va shamolning ishi kabi hodisalar ham kiradi.

Sun'iy omillar antropogen yoki texnogen omillar deb ham ataladi. Ularga insonning turli xil xo'jalik faoliyati kiradi: qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, tog'-kon sanoati, metallurgiya, shahar qurilishi, transport va boshqalar. Sun'iy omillar ta'sirida antropogen yoki texnogen jarayonlar sodir bo'ladi. Bunday jarayonlarga surilmalar, yer yuzasining cho'kishi, o'pirilishlar, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi yoki pasayishi, daryo va ko'llarning qurishi, yangi suv havzalarining vujudga kelishi, yerlarning sho'rلانishi kiradi. Mazkur jarayonlar xalq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi.

Eslab qoling!

! Tabiiy geografik jarayonlar deb, tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlarga aytildi. Endogen jarayonlarga vulkanlarning otilishi, zilzila va tog'larning ko'tarilishi kiradi. Ekzogen jarayonlarga nurash, eroziya, surilmalar, o'pirilishlar, sellar, muz va shamolning ishi kiradi.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- 1. Tabiiy geografik jarayonlar deb nimaga aytildi?
- 2. Yerning ichki kuchlari ta'sirida qanday jarayonlar sodir bo'ladi?
- 3. Tashqi kuchlar ta'sirida qanday tabiiy geografik jarayonlar vujudga keladi?
- 4. Sun'iy omillarning ro'yxatini tuzing va daftaringizga yozing.
- 5. Siz yashab turgan joyda qanday tabiiy geografik jarayonlar sodir bo'lib turadi? Ular haqida gapirib bering.
- 6. Ekzogen jarayonlar deb nimaga aytildi?

8-§. TABIIY OMILLAR TA'SIRIDA SODIR BO'LADIGAN JARAYONLAR

Endogen omillar (kuchlar) ta'sirida vulkan otilishi va zilzilalar ro'y beradi. Ular juda katta talofat, vayronagarchiliklar keltiradi, ayrim hollarda ko'plab odamlarning fojiali halok bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun bunday hodisalar sodir bo'ladigan hududlarni aniqlash, baholash va bashorat qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Zilzilalar. Sizga ma'lumki, Yer po'sti juda ulkan palaxsalardan, ya'ni litosfera plitalaridan iborat. Bu litosfera plitalari doimo harakatda, ular bir-biri bilan o'zaro to'qnashib turadi. Ikkita litosfera plitasi to'qnashgan joylarda tez-tez vulkan va zilzilalar sodir bo'lib turadi. Bunday mintaqalar **seysmik mintaqalar** deb ataladi.

Yer yuzasida ikkita asosiy seysmik mintaqasi mavjud: 1) Tinch okean seysmik mintaqasi; 2) Yevropa-Osiyo seysmik mintaqasi. Mamlakatimiz O'zbekiston Yevropa-Osiyo seysmik mintaqasida joylashgan. Shu sababli, mamlakatimizda ayrim yillari kuchli zilzilalar sodir bo'lib turadi. Masalan, 1902-yilda Andijonda, 1932-yilda Tomdibuloqda, 1946-yilda Chotqolda, 1959-yilda Burchmulla, 1966-yilda Toshkentda, 1976-yilda Gazlida, 1980-yilda Nazarbekda va boshqa joylarda zilzilalar sodir bo'ldi (*7-rasm*).



7-rasm. Gazli zilzilasida buzilgan bino (1976-y.)

Vulkanlar. Tinch okean qirg'oqlari va unga tutashgan orollar da keng tarqalgan. Mazkur mintaqada 800 dan ortiq harakatdagi vulkanlar mavjud bo'lib, u «Tinch okean olovli halqasi» deb ataladi (8-rasm).

Bundan tashqari, Yerning ichki kuchlari ta'sirida geyzerlar va issiq buloqlar otlishi, yer yuzasi bir qismining asta cho'kishi va boshqa qismining esa yer ko'tarilishi ham sodir bo'lib turadi.

Geyzerlar va issiq buloqlar asosan vulkanlar tarqalgan mintaqalarda uchraydi. Ulardan binolarni isitishda hamda elektr energiya olishda foydalaniлади. Bunday ishlar Islandiya, Yaponiya, Italiya, Rossiya va Yangi Zelandiya davlatlarida yo'lga qo'yilgan.

Yer yuzasining asta-sekin cho'kishi okean va dengiz qirg'oqlarida joylashgan davlatlar uchun katta zarar yetkazadi. Masalan, Niderlandiya qirg'oqlarining cho'kishi munosabati bilan u yerlarda yirik to'g'onlar qurilgan, to'g'onning balandligi har yili orttirib turiladi. Hozirgi paytda Niderlandiya hududi dengiz sathidan pastda hisoblanadi.

Tashqi (ekzogen) kuchlar ta'sirida *nurash, sel, eroziya, surilmalar, karst, qor ko'chkisi* va boshqa jarayonlar sodir bo'ladi.

Nurash deb, haroratning o'zgarishi, kimyoviy jarayonlar, atmosfera, suv va organizmlar ta'sirida tog' jinslarining yemirilishiga aytildi. Nurash uch turga ajratiladi: fizik, kimyoviy va organik nurash (9—11-rasmlar).

Fizik nurash asosan harorat va namlikning o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Kunduzi havo haroratining ko'tarilib ketishi natijasida tog' jinslarida darzlar hosil bo'lib, ular bo'laklarga bo'linib ketadi. Ammo tog' jinslarining kimyoviy tarkibi o'zgarmaydi. Fizik nurash cho'llarda va qoyali tog'larda keng tarqalgan.



8-rasm. Kuril orollaridagi Sarichev vulkanining otlishi.



9-rasm. Nurash.



10-rasm. O'pirilish.

Kimyoviy nurash deb, havo, suv ta'sirida tog' jinslarining yemirilishi va kimyoviy o'zgarishiga aytildi. Kimyoviy nurash ta'sirida barqaror minerallar hósil bo'ladi.

Organik nurash deb, tog' jinslarining ogranizmlar (o'simlik, hayvonot dunyosi, mikroorganizmlar) ta'sirida yemirilishiga aytildi.



11-rasm. Karst.

yuvilishiga aytildi. Eroziya yuzalama va chiziqli turlarga bo'linadi. Yuzalama eroziya jarayoni tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan. Uning oqibatida tog' yonbag'irlaridagi jinslar yuvilib, pastga tushadi. Yumshoq jinslardan tashkil topgan qiya joylarda yuvilish natijasida jarlar vujudga keladi. Chiziqli eroziya daryo eroziyasi deb ham ataladi. Buning natijasida daryo o'zanlari va qirg'oqlari yuviladi.

Daryo qirg'oqlarining yuvilishi Xorazm va Qoraqalpog'istonda «deygish» deb ataladi. Amudaryo 1925-yilda sobiq To'rtko'l shahriga yaqin joydan oqib o'tar edi. 1938-yilga kelib Amudaryo shaharni yuvib keta boshladgi, 1950-yilga kelib esa daryo To'rtko'l shahrini butunlay yuvib ketgan. Keyinchalik daryodan ancha uzoqda yangi, hozirgi To'rtko'l shahri bunyod etildi. Okean va dengiz qirg'oqlarining to'lqinlar tomonidan yemirilishi

Sel tog'li o'lkalarda jala yog'ishi natijasida hosil bo'ladi. Sellar o'zi bilan birga loyqa va toshlarni olib keladi. Uning tezligi soatiga 10—15 km ni tashkil etishi mumkin, u yo'lda uchragan hamma narsani yuvib ketadi va juda katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi. Massalan, Peruda 1970-yilda sel kelishi natijasida 50 ming kishi halok bo'lgan, 800 ming kishi boshpanasiz qolgan, bir qancha shahar vayronaga aylangan. Sel hodisasi O'rta Osiyoda, Kavkazda, Qrimda, Yevropa va Amerikada ko'proq sodir bo'landi (12-rasm).

Eroziya (lotincha «erosio»—yeyilish, yuvalish) deb tog' jinslarining oqar suvlar ta'sirida



12-rasm. Selning hosli bo'lishi.

A B C D E F G H

abraziya (lotincha «abrasio» — qirish, qirtishlash) deb ataladi. Abraziya natijasida okean va dengiz qirg'oqlarida tekisliklar hosil bo'ladi (*13-rasm*).



13-rasm. Qirg'oqlarning yemirilishi.



14-rasm. Surilmalar (R. A. Niyozov surati, 1986-y.).

Surilma deb, tog' jinslarining og'irlik kuchi ta'sirida pastga qarab surilishiga aytildi. Surilmalar asosan tog'li o'lkalarda sodir bo'ladi. Surilmalar ham sellar kabi xalq xo'jaligiga juda katta moddiy zarar yetkazadi. Masalan, 1963-yil 9-oktabrda Italiyaning Polve daryosi vodiysida, Vayont to'g'oni atrofida hosil bo'lgan surilma suv omboriga surilib tushgan. Uning hajmi 240 mln kub/metr bo'lgan. Suv ombori 15—30 sekund ichida surilib tushgan jinslar bilan to'lib qolgan. Suv omboridan chiqqan suv 100 m balandlikda oqib, yo'lidagi Ponjerono, Pirago, Vilganovo, Rivanota va Faye shaharlarini yuvib ketgan. 7 minut davom etgan falokat oqibatida 3 ming kishi halok bo'lgan (14-rasm).

Karst deb, eriydigan tog' jinslarini yer usti va yer osti suvlari ta'sirida eritib, oqizib ketilishiga va yer ostida turli xil bo'shlqlarning (g'orlarning) hosil bo'lishiga aytildi. Suvda tez eriydigan jinslarga ohaktoshlar, dolomitlar, bo'r, mergel, gips va turli xil tuzlar kiradi. Bunday jinslar tarqalgan joylarda qurilish ishlari olib borish ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Bilasizmi?



Ayrim vulkanlar odamning ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Parikutin vulkani shunday vujudga kelgan. 1943-yil 13-fevralda Meksikaning janubida-gi kichik qishloq aholisi kuchsiz, ammo tez-tez takrorlanib turgan yer osti zarblarini sezgan. 20-fevralda makkajo'xori ekilgan dala o'rtasida uzunligi 20 m dan ortiqroq yoriq paydo bo'ldi. Undan qora tutun ko'tarilib, bir necha kundan so'ng kuchli portlash ro'y berdi, alanga paydo bo'ldi, yoriqdan kul, toshlar otilib chiqa boshladi. 2 soatdan so'ng esa balandligi 2 m ga yetadigan marza vujudga keldi. Keyingi kunlarda bu marza o'sa boshladi, besh kundan so'ng uning balandligi 160 metr bo'ldi. 1946-yilga kelib uning balandligi 518 metrga, 1952-yilda esa 2800 metrga yetdi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Eroziya deb nimaga aytildi?
2. Seysmik mintaqalar deb nimaga aytildi?
3. Nurashning qanday turlarini bilasiz?
4. Zilzila va vulkanlar litosfera plitalarining qayerlarida sodir bo'ladi?
5. Suvda eriydigan tog' jinslari tarqalgan joylarda qanday jarayon rivojlanadi?
6. Surilma va sel hodisalari qayerlarda keng tarqalgan?
7. Siz yashab turgan joyda qanday tabiiy geografik jarayonlar sodir bo'lib turadi?

Zilzila
12 balli seysmik shkalanining qisqacha tavsifi

Bailar	Zilzila kuchi	Qisqacha ta'rifi
1	Sezilmaydi	Faqat seysmik asboblar bilan qayd etiladi.
2	Juda kuchsiz	Ko'pchilik sezmaydi. Sokin vaziyatdagи odamlargina sezadi.
3	Kuchsiz	Bino ichidagi ayrim odamlargina sezadi.
4	Sezilarli	Bino ichidagi odamlarning ko'pchiligi sezadi. Uydagи jihozlar harakatga keladi.
5	Kuchsizroq	Bino va mebel tebranadi. Uyqudagilar uyg'onib ketadi.
6	Kuchli	Hamma sezadi. Ko'pchilik tashqariga chiqishga oshiqadi, ba'zi buyumlar turgan yeridan tushib ketadi, ba'zi uylarda suvoqlar ko'chib tushadi.
7	Juda kuchli	Imoratlar shikastlanadi, g'ishtli devorlar yoriladi. Xom g'isht va paxsadan qurilgan ba'zi uylar buziladi, tog'larda ba'zan qoyaclar ko'chadi.
8	Vayron qiluvchi	Imoratlar kuchli shikastlanadi, tog'larda surilmalar yuz beradi.
9	O'ta vayron qiluvchi	G'isht, betondan ishlangan uylar butunlay yoki qisman buziladi, yer osti quvurlari uzeliladi. Qoyalar qulab, tepaliklar suriladi, yerda gi yoriqlarning eni 10 sm gacha boradi.
10	Yakson etuvchi	Yer yuzida katta (eni 1 m gacha) yoriqlar paydo bo'ladi. To'g'on va qirg'oq dambalari ishdan chiqadi, temiryo'llar bukiladi. Yangi ko'lllar paydo bo'ladi.
11	Halokatli	Yer yuzida keng va chuqur jarliklar hosil bo'ladi, yer vertikal va gorizontal yo'nalihsda silkinadi. Tog'larda qoyalar ag'dariladi, ko'priq, to'g'on, temiryo'llar butunlay buziladi.
12	O'ta halokatli	Yer qiyofasi, relyefi o'zgaradi. Yer yuzi burmalanadi, baland qoyalar ag'dariladi, daryolar o'zanini o'zgartiradi.

9-§. SUN'iy OMILLAR TA'SIRIDA SODIR BO'LADIGAN JARAYONLAR

Sun'iy omillarga ilgari aytganimizdek, qishloq va suv xo'jaligi sanoat va transport vositalari ta'sirida sodir bo'ladijan jarayonlar kiradi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi natijasida **sho'rланish, shamol va suv eroziyasi** ham rivojlanadi.

Yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lsa, suvlarning bug'lanishi oqibatida tuproq sho'rlnana boshlaydi. Chunki suv bug'langanda uning tarkibidagi tuzlar tuproqda qolib, tuz miqdorining ortib ketishiga olib keladi. Bunday holat Xorazm vohasida va Mirzacho'lda namoyon bo'lmoqda.

Shamol eroziyasi doimiy shamollar esadigan joylarda ko'proq uchraydi, bunda tuproqning yuqori unumdar qismi uchirib olib ketiladi.

Suv eroziyasi qiya joylarni sug'orish jarayonida ro'y beradi va turli kattalikdagi jarlarning vujudga kelishiga va hosildor yerlarning ishdan chiqishiga olib keladi.

Suv inshootlarining qurilishi ham ayrim noxush hodisalarini keltirib chiqaradi. Qoraqum kanalining qurilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarning sug'orishga sarflanishi natijasida Orol dengizining sathi 1960-yildan so'ng pasaya boshladи. Orol dengizi tubining ochilib qolgan qismidan tuzlarning shamollar ta'sirida uchirib olib ketilishi natijasida Orolbo'yi atrofidagi yerlarning sho'rланish darajasi ortib bormoqda. Hozirgi paytda Orol tubining ochilib qolgan joylariga tuzlarning uchirib ketishining oldini olish maqsadida sho'rga chidamli o'simliklar ekilmoqda.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi munosabati bilan turli noxush tabiiy geografik jarayonlar vujudga keladi. Masalan, tog'-kon sanoatining rivojlanishi natijasida juda ulkan surilmalar, yer yuzasining cho'kishi, o'pirilishlar, yer osti suvlari sathining pasa-yishi va boshqa hodisalar ro'y beradi. Ohangaron vodiyisida 20—25 yil davomida ko'mir gazga aylantirilishi oqibatida yer ostida 1 kv.km dan ortiqroq maydonda bo'shliq hosil bo'lgan. Natijada, tog' yonbag'rining barqarorligi buzilib, hajmi 700—800 mln kub m ni tashkil qilgan surilma hosil bo'ldi va xalq xo'jaligiga katta mod-diy zarar yetkazdi. Foydali qazilma konlarini qazib olish jarayonida suvlarni kondan tashqariga chiqarib yuborish oqibatida yer osti

suvlarining sathi keskin pasayib ketadi. Juda katta maydonlarda neft va gaz qazib olish esa yer yuzasining cho'kishiga olib keladi. Masalan, neft va gaz qazib olish natijasida Rossiyaning G'arbiy Sibir pasttekisligi cho'kmoqda, oqibatda bu tekislikda yer osti suvlari sathi ko'tarilib, botqoqliklar va ko'llar maydoni kengayib bormoqda.

Sanoat korxonalaridan atmosferaga chiqarilayotgan changlar havoni ifloslab, «issiqxona samarasi»ni keltirib chiqarmoqda, oqibatda Yer yuzasidagi o'rtacha harorat ortib bormoqda.

Bilasizmi?



Otchasoy surilmasi. Ohangaron vodiyisidagi Angren ko'mir konining Otchasoy havzasida ko'mir yer ostida gazga aylantiriladi. Hosil bo'lgan gaz quvurlar orqali iste'molchilarga yetkazib beriladi. Uzoq vaqt davomida (20 yildan ortiq) ko'mirning gazga aylantirilishi oqibatida yer ostida maydoni bir kvadrat kilometr-dan ortiqroq bo'shliq (g'or) vujudga keldi. Natijada qurama tizmasining shimoliy yonbag'rining muvozanatlari buzilib, vodiy tomon surila boshladi. Surilmaning uzunligi 4 km, kengligi 2 km, maydoni 8 km, chuqurligi 100—120 m, hajmi 700—800 mln. m³ni tashkil qildi. Surilmaning etagida joylashgan Teshiktosh qishlog'ida uylar buzila boshladi. Ohangaron daryosining to'silib qolishi xavfi tug'ildi. Surilma oqibatida Teshiktosh qishlog'i tamoman boshqa joyga ko'chirildi. Ohangaron daryosi uchun yangi kanal qazilib, xavfli zonadan tashqariga olib o'tildi. Mazkur surilma «Asr surilmasi» deb nom olgan.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- 1. Inson xo'jalik faoliyatining asosiy turlari nimalardan iborat?
- 2. Qishloq va suv xo'jaligining rivojlanishi natijasida qanday jarayonlar ro'y beradi?
- 3. Tog'-kon sanoatining rivojlanishi oqibatida sodir bo'ladigan jarayonlar ro'yxatini tuzing.
- 4. O'zbekistondagi sanoat markazlari nomlarini daftaringizga yozib oling.
- 5. O'rta Osiyodagi yirik kanallar ro'yxatini tuzing.

IV b o b

JAMIYAT VA TABIATNING O'ZARO TA'SIRI



Aziz o'quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: muhandislik inshootlari, agrar, sanoat va ilmiy-texnik inqilob, ekologik muvozanat.


Inson o'z hayoti davomida ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy narsalarning barchasini tabiatdan oladi. U tabiat bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Jamiyat bilan tabiat o'rtaisdagi turli-turli vaqtarda va joylarda turlichcha bo'lgan. Bu ta'sir natijasidagi o'zgarishlarni tahlil va tadqiq qilish natijasida tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri qanchalik maqsadga muvofiqligi yoki aksincha bo'lishini bilish mumkin. Inson faoliyati maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa tabiatdan oqilona foydalanish shu joy, hudud, o'lkaning yashnashiga olib kelgan. Aks holdagi ta'sir esa noqulay sharoitning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Shu kabi masalalar bilan mavzuni o'rganish davomida tanishib olasiz.

10-\$. JAMIYAT VA TABIAT O'ZARO TA'SIRINING ASOSIY BOSQICHLARI

Insoniyat tarixi davomida uning tabiat bilan bo'lgan munosabati doimo o'zgarib, murakkablashib borgan (15-rasm).

Tabiat bilan jamiyat o'rtaisdagi o'zaro ta'siri besh bosqichga bo'lish mumkin.

1. Termachilik, ovchilik va baliqchilik bosqichi. Bundan 30 000 yil avval boshlangan. Ushbu davrda odam termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun mazkur bosqich termachilik, ovchilik va baliqchilik bosqichi deb ataladi. Ibtidoiy odamni iqlimi qulay, biologik resurslarga boy (yirik hayvonlar, mevalar) joylar ko'proq qiziqtirgan. Bu bosqichda inson tabiatni o'zgartirmagan, balkiunga moslashgan (16-rasm).



15-rasm. Iste'molchilar sonining tarixiy davrlar bo'yicha o'zgarishi.



16-rasm. Olovning kashf etilishi

2. Qishloq xo‘jalik inqilobi bosqichi. Bundan 6—8 ming yil ilgari sodir bo‘lgan ushbu davrda odam ovchilik va baliqchilikdan dehqonchilikka o‘tgan. Tabiiy landshaftlarning kuchsiz o‘zgarishi ro‘y bera boshlagan.

3. O‘rta asrlar bosqichi. Bu davrda insonning tabiatga bo‘lgan ta’siri kuchaya borgan, hunarmandchilik rivojlangan, xo‘jalikda tabiiy boyliklar keng qo’llanila boshlagan. Dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan, ammo ular asosan qo‘l kuchiga asoslanganligi uchun ekologik muvozanatga ta’sir etmagan.

4. Sanoat inqilobi bosqichi. Bu davr bundan 300 yil avval ro‘y berdi. Jamiyatning tabiatga ta’siri kuchaydi. Tabiiy landshaftlar tez sur’atlarda o‘zgara boshlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli boshqa qit’alar ham o‘zlashtirila boshladи. Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Fransiya davlatlari tomonidan ulkan mustamlakalar, imperiyalar vujudga keltirildi. Sanoat rivojlangani sayin jamiyatning tabiatga ta’siri ham orta boshladi.

5. Fan-texnika inqilobi bosqichi. Bu davr XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan tabiiy resurslar juda katta miqyosda o‘zlashtirila boshlandi. Katta-katta hududlar qishloq xo‘jaligi maqsadida o‘zlashtirildi, ulkan zavodlar qurildi, cho’llar, shimoliy hududlar, tog‘lar hamda Dunyo okeani o‘zlashtirildi va ekologik muvozanat buzila boshladi. Natijada umumsayyoraviy ekologik muammolar vujudga keldi.

Bilimingizni sinab ko‘ring:

- 1. Qaysi bosqichda insonning tabiatga ta’siri kuchsiz namoyon bo‘la boshladi?
- 2. Qaysi bosqichda inson tabiatni o‘zgartirmasdan, unga moslashgan?
- 3. Sanoat inqilobi qachon sodir bo‘ldi?
- 4. Qaysi bosqichda dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlangan?
- 5. Qaysi davlatlar tomonidan yirik va ulkan imperiyalar vujudga keltirildi?
- 6. Qaysi bosqichda ekologik muvozanat buzila boshladi?
- 7. Bosqichlar jadvalini tuzing.

11-§. MUHANDISLIK INSHOOTLARI VA ULARNING TURLARI

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosan muhandislik inshootlari va ularning ish faoliyati orqali ro'y beradi.

Har qanday jamiyatda ham xo'jalikni rivojlantirish va jamiyat a'zolarining talablarini qondirish maqsadida uy-joy, yo'l, zavod-fabrika va boshqa inshootlar quriladi.

Ma'lum bir maqsadlarda qurilgan binolar **muhandislik inshootlari** deb ataladi. Muhandislik inshootlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

Shaharsozlik inshootlari. Mazkur inshootlarga ma'muriy binolar uy-joy binolari, kommunal xo'jalik binolari, maishiy xizmat binolari, sog'liqni saqlash, maorif va moliya binolari kiradi. Uy-joy binolari shaharlarda ko'p qavatli, qishloqlarda asosan bir qavatli binolardan iborat (*17-rasm*).

Sanoat inshootlari. Bularga tog'-kon sanoati inshootlari, metallurgiya sanoati inshootlari, yoqilg'i-energetika sanoati inshootlari, mashinasozlik sanoati inshootlari, yengil sanoat inshootlari, qurilish sanoati inshootlari, oziq-ovqat sanoati inshootlari kiradi.

Tog'-kon sanoati inshootlariga karyerlar, shaxtalar, tashlamalar, ma'muriy binolari, boyitish fabrikalari, tog'-metallurgiya kombinati kiradi.

Metallurgiya sanoati inshootlariga asosan qora va rangli metallurgiya zavodlari binolari kiradi. Ularning maydoni katta va chiqindilar hajmi ham yirik bo'ladi.

Kimyo sanoati inshootlari mineral o'g'it, kislota, sun'iy tola ishlab chiqaradigan zavodlar binolaridan iborat.

Yoqilg'i-energetika sanoati inshootlariga neft va gazni qayta ishlash zavodlari, issiqlik elektrostansiyalari va markazlari binolari kiradi.

Mashinasozlik sanoati inshootlari asosan podshipnik, stanoksozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, teplovozsozlik, vagonsozlik zavodlari binolaridan iborat (*18-rasm*).

Yengil sanoat inshootlari asosan to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi zavod va fabrikalar binolaridan iborat.

Transport inshootlari yo'llardan, ko'priklardan, tunnellardan, vokzallar, aeroport va portlardan iborat.



17-rasm. Toshkent shahri



18-rasm. Asaka avtomobil zavodi

Suv (gidrotexnik) inshootlari to‘g‘onlar, suv omborlari, kanal-lar, kollektorlardan iborat (*19-rasm*).

Mazkur inshootlarning qurilishi va faoliyati ta’sirida atrof-muhitda salbiy yoki ijobiy o‘zgarishlar vujudga keladi.



19-rasm. Suv inshooti

Bilasizmi?



Dunyodagi eng baland bino Chikadadagi «Siers Tauer» osmono’par binosi bo’lib, uning balandligi 443 m. Hozirgi paytda 300, 400 va 500 ming kishiga mo’ljallangan, balandligi 3000 m dan ortiq 850 qavatlri osmono’par binolar loyihalari tuzilgan.

Dunyodagi barcha shaharlar har yili atrof-muhitga 3 ming tonnagacha sanoat va uy-ro’zg’or chiqindilari, 500 km³ dan ortiq ifloslangan suv va 1 mlrd tonnaga yaqin aerozollar chiqarib tashlaydi. Jahondagi 578 ga yaqin faol vulkan otlishidan esa yer yuzasiga 2,5 mlrd tonna lava, kul, suv bug’i va gazlar chiqadi.

Bilimingizni sinab ko‘ring:



1. Gidrotexnik inshootlar qanday qurilmalardan iborat?
2. Shaharsozlik inshootlari ro’yxatini tuzing.
3. O’zingiz yashab turgan joyda qanday inshootlar bor?
4. Karyerlar, shaxtalar, tog'-metallurgiya kombinatlari qanday inshootlar guruhiga kiradi?
5. Yoqilg’i-energetika sanoati inshootlari ro’yxatini tuzing.

12-§. EKOLOGIK MUVOZANAT VA UNING BUZILISHI

Tabiat resurslari chegaralangan bo‘lib, unga zarar yetkazmaslik va ulardan me’yorida, ehtiyoja yarasha foydalanish lozim. Agar tabiat resurslaridan me’yoridan ortiqcha foydalanilsa, tabiiy resurslarning qayta tiklanish qobiliyati susayib ketadi va ekologik muvozanat buziladi.

Tabiatda barcha tabiiy komponent va komplekslar bir-biri bilan o‘zaro muvozanatda bo‘ladi. Har bir hududda relyef, yer osti va yer usti suvlari, iqlim, tuproq, o’simlik va hayvonot dunyosi o‘zaro aloqada.

Chunki tabiat mintaqalarining u yoki bu joylarida har bir relyef turi va shakliga ma’lum iqlim turi va sharoiti, yer osti va usti suvlari me’yori, tuproq, o’simlik va hayvonot dunyosining aniq turlari mos keladi. Demak, tabiatda barcha komponentlar har bir hududda bir-biri bilan o‘ziga xos moslashuv hamda aloqadorlik vujudga keltirgan va shu zaylda bir necha yuz ming yillardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Binobarin, tabiat komponentlari orasida tabiiy muvozanat mavjud bo‘lganligi sababli, har bir joy yoki hudud ma’lum bir yo‘nalishda rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi.

Har bir tabiat kompleksi ma’lum miqdordagi tabiiy boylikka ega. Agar mazkur boylikdan rejali foydalanish yo‘lga qo‘yilmasa, ekologik muvozanat buzila boshlaydi. Buning oqibatida tabiat qashshoqlashadi, tuproqlar sho‘rlanadi, yerning hosildorligi pasayadi, suvlar ifloslanadi va ichishga yaramay qoladi, tiklanadigan tabiiy resurslar qayta tiklanmaydi.

Tog‘ yonbag‘irlarida sug‘oriladigan va lalmi dehqonchilik, bog‘dorchilik hamda yaylov chorvachiligi bilan odamlar qadimdan shug‘ullanib kelishadi. Mahalliy aholi har bir soy vodiysi yoki yonbag‘irlarning dehqonchilik, chorva mollarini boqish, pichan tayyorlash uchun qanchalik tabiiy boyliklarga ega ekanligini juda yaxshi biladi. Tog‘larda o‘tin tayyorlash maqsadida mavjud daraxtlar qirqiladi, oqibatda ular ostidagi o‘tlar va butalar ham zarar ko‘radi. Tuproqning yuzasi ochilib, u yog‘in-sochin ta’sirida eroziyaga uchraydi.

Avval, yuzalama eroziya, so‘ngra chuqurlatish eroziya yuz berib, vaqt o‘tish bilan tuproqning ustki qismi butunlay yuvilib ketadi. Natijada xo‘jalikda foydalanadigan yer va yaylovlardan qisqaradi.

Shu sababli, har bir joyning tabiiy resurslari (tuproq, o’simlik, hayvonot dunyosi, suvlari, foydalni qazilmalari)dan maqsadga muvofiq foydalanilsa, ekologik muvozanat buzilmaydi.

**Eroziyaga uchragan va sho'rланган yerlarning
O'zbekiston hududi bo'yicha taqsimlanishi
(sug'oriladigan maydonlarga nisbatan % hisobida)**

Viloyatlar	Tuproqlar eroziysi (%)	Tuproqlar sho'rланishi (%)	
	suv	jami sho'rланган	shu jumladan o'rta va kuchli sho'rланган
Qoraqalpog'iston	21,4	90,0	38,9
Andijon	7,6	9,2	4,6
Buxoro	2,2	95,7	37,6
Jizzax	17,0	97,9	39,3
Qashqadaryo	14,6	47,9	13,2
Navoiy	0,9	86,9	33,5
Namangan	22,1	23,6	4,1
Samarqand	28,6	3,6	1,4
Surxondaryo	57,2	42,9	16,5
Sirdaryo	14,6	83,1	30,9
Toshkent	24,9	2,4	0,4
Farg'ona	5,7	52,3	27,0
Xorazm	0,0	100	53,1
O'zbekiston	18,8	52,2	18,4

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Tabiat resurslaridan foydalanish me'yori deganda nimani tushunasisiz?
2. Ekologik muvozanat qanday hollarda buziladi?
3. Siz yashab turgan hududda tabiat resurslaridan qanday foydalaniлади? Agarda yaylov bor bo'lsa, undan qanday maqsadlarda foydalaniлатганлиги haqida so'zlab bering.
4. Siz yashab turgan joyda asosan qanday mahsulotlar yetishtirilади?
5. Siz yashab turgan joyda suvdan qanday maqsadlarda foydalaniлади?
6. Tog'larda daraxtlarning kesilishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

V b o b

TABIAT KOMPLEKSLARI VA ULARNING BARQARORLIGI



Aziz o‘quvchilar! Sizlar mazkur bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: tabiat komponentlari, tabiat komplekslari, landshaftlar, joy, maydon, fatsiya, landshaft tahlili, tabiat komplekslarining barqarorligi.

Yer sharida tabiatni tashkil etuvchi komponentlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Shunga ko‘ra, turli kattalikdagi maydonlarni egal-lagan geografik komplekslar vujudga kelgani sizga quyi sinflardan ma’lum. Bir xil tabiiy sharoitga ega bo‘lgan hududlarni birlashtiruvchi tabiat komplekslarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish muhimdir. Ularning o‘zgaruvchanligi, rivojlanishi, tabiiy boylik-larning joylashuvi, mahsulдорligи va boshqa xususiyatlarini tadqiq qilish xalq xo‘jaligini rivojlantirishda ulardan foydalanishning samarali yo‘llarini oolib beradi. Har bir tabiat kompleksi ma’lum darajada barqarordir. Bu xususiyat qishloq xo‘jalik ishlarida hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Bu kabi masalalarni mavzuni o‘rganish va tahlil qilish davomida bilib olasiz.

13-§. TABIAT KOMPLEKSLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Sizga ma’lumki, tabiiy muhit alohida tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu tarkibiy qismlar tog‘ jinslaridan (litosfera), suvdan (gidrosfera), havodan (atmosfera) va tirik organizmlar (biosfera)-dan iborat.

Mazkur tarkibiy qismlar doimo bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda va o‘zaro munosabatlarda bo‘ladi, natijada yer yuzasida turli tabiiy sharoitga ega bo‘lgan hududlar vujudga keladi. Ushbu hududlar bir-biridan tashqi ko‘rinishi, o‘lchamlari va vujudga kelish omillari bilan farq qiladi. Masalan, cho‘l, o‘rmon, dasht, botqoq, muzlik, pichanzorlar bir-biridan keskin farqlanadi.

Shuning uchun ham bizni o‘rab turgan tabiiy muhit juda xilma-xildir. Siz yashab turgan joyning o‘zida ham bir-biridan farq qiladigan qator hududlarni ajratish mumkin: o‘rmon, balandlik, jarlik, yonbag‘ir, qumli do‘ng, vodiy, botqoq va h.k. Mazkur hududlarning har biri bir-biridan u yoki bu xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, ayrim hududlarda havo iliq va nam, boshqalarida sovuq va quruq bo‘lishi mumkin.

Tabiat komponentlarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi va munosabati tasodifiy emas, balki qonuniydir. Chunki mazkur aloqalar va munosabatlar uzoq davrlar mobaynida rivojlanadi. Tabiat komponentlari o‘rtasida juda mustahkam aloqa va o‘zaro ta’sir mavjud. Masalan, O‘rta Osiyodagi cho‘llarning pastdan sho‘rxok joylarida qora saksovul, qumli joylarida esa oq saksovul o‘sadi. Tabiat komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqa ularni bir butun yaxlit chambarchas bog‘langan, uning bir qismi o‘zgarsa, boshqa qismi ham o‘zgaradi. Masalan, botqoq quriladigan bo‘lsa, mazkur joydagi tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda iqlimiylar sharoit ham o‘zgaradi.


Tabiat komponentlarining o‘zaro aloqasi va ta’siri oqibatida yer yuzasida turli xil tabiat komplekslari vujudga keladi. «Kompleks» so‘zi lotincha bo‘lib, «uyg‘unlik» degan ma’noni beradi.

Har bir tabiiy kompleks ma’lum bir hudud doirasida joylashadi va rivojlanadi. Shuning uchun ular tabiiy-hududiy komplekslar, qisqa qilib tabiiy komplekslar yoki geografik komplekslar (geokomplekslar) deb ataladi.

Tabiat kompleksi deb, Yer yuzining tabiat komponentlarining o‘zaro murakkab ta’siri natijasida tarkib topgan hamda tabiatning xususiyatlari ko‘ra boshqa joylardan farq qiladigan qismlarga aytildi.

Tabiat komplekslari turli xil kattalikda bo‘ladi. Daryo vodiysi, tabiat zonalari, geografik mintaqalar, materiklar, okeanlar tabiiy-hududiy kompleks bo‘lib hisoblanadi (*20-rasm*).

Eng katta tabiiy kompleks geografik qobiq hisoblanadi. Geografik qobiq o‘z navbatida Dunyo okeani va quruqlikka; Dunyo okeani okeanlarga; quruqlik esa materiklarga bo‘linadi. Okean va materiklar geografik mintaqalarga hamda tabiat zonalari, tabiat zonalari esa landshaftlarga bo‘linib ketadi. Tabiiy geografiya fanining o‘rganish obyekti — landshaftdir.



20-rasm. Tabiat kompleksining bo'linishi

Eslab qoling!

- ! **Tabiat komponentlari** — tog' jinslari, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda mikroorganizmlardir.
- **Tabiat kompleksi deb**, tabiat komponentlarining o'zaro murakkab ta'siri natijasida tarkib topgan hamda tabiiy xususiyatlariga ko'ra boshqa joylardan farq qladigan Yer yuzi qismlariga aytildi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Tabiat komponentlariiga nimalar kiradi?
2. Tabiat kompleksi deb nimaga aytidadi?
3. Eng yirik tabiat kompleksining nomini aytинг.
4. O'zingiz yashab turgan joydagi tabiat komplekslarining ro'yxatini tuzing va daftaringizga ularning nomlarini yozing.

14-§. LANDSHAFT VA UNING TUZILISHI

«Landshaft» nemischa so'z bo'lib, «joy» degan ma'noni bildiradi. Hozirgi paytda landshaft tushunchasi geografiyada keng va tor ma'noda ishlataladi.

Keng ma'noda landshaft deganda tabiiy hududiy kompleks tushuniladi. Masalan, tayga zonasi, botqoq, tundra, so'l va h.k.

Tor ma'noda landshaft — yer yuzasidagi tabiiy chegaralari bilan ajralib turuvchi joydir. Landshaft hududiy yaxlitligi, vujudga kelishiga ko'ra bir butunligi, geografik tuzilishi, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosining bir xilligi bilan ajralib turadigan tabiiy hududiy kompleksdir. Masalan, Qizilqumdag'i qumli, gilli, taqirli, sho'rxokli landshaftlar, tog'lardagi yaylov, o'rmon, vodiy landshaftlari shular jumlasidandir.

Odatda landshaftlar **tabiiy** va **atropogen landshaftlarga** ajratiladi. **Tabiiy landshaft** — faqt tabiiy omillar ta'sirida shakllangan yoki shakllanayotgan landshaftdir. Unga inson faoliyati ta'sir



21-rasm. Tabiiy landshaft. Archazor



22-rasm. Antropogenlar landshaft. Karyer

etmagan bo‘ladi. Masalan, Chotqol biosfera qo‘riqxonasidagi ar-chazorlar (21-rasm) shular jumlasiga kiradi.

Antropogen landshafti — tabiiy va antropogen omillar ta’sirida shakllangan va shakllanayotgan landshaftdir. Bunga inson faoliyati ta’sirida vujudga kelgan landshaftlar kiradi (22-rasm).

Tabiatning barcha komponentlari va landshaftlar u yoki bu darajada inson ta’sirida bo‘ladi. Fan-texnika inqilobi sharoitida insonning tabiatga ta’siri tobora kuchaymoqda. Mazkur landshaftlar insonning xo‘jalik faoliyati ta’sirida shakllanadi, ammo tabiiy xususiyatlarini saqlab qoladi va tabiat qonunlariga bo‘ysunadi.

Antropogen landshaftlar quyidagi turlarga bo‘linadi: qishloq xo‘jalik yoki agrolandshaftlar (ekinzorlar, bog‘lar, yaylovlar); suv yoki gidrogen landshaftlar (kanallar, hovuzlar, suv omborlari); shahar yoki seliteb landshaftlar (shaharlar, qishloqlar); sanoat landshaftlar (zavodlar, shaxtalar, chiqindilar uyumi, aerodromlar, yo’llar va h.k.).

Landshaftlar joy, maydon va fatsiyadan tuzilgan bo‘lib, uning eng kichik birligi fatsiyadan iboratdir.

Fatsiya — bir xil tog‘ jinslariga, relyefga, tuproqqa, namlikka, mikroiqlimga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega bo‘lgan eng kichik tabiiy hududiy kompleksdir. Masalan, qayir fatsiyasi, o‘zan fatsiyasi, toshli qayir, gilli qayir fatsiyalari.

Maydon (urochisha) — fatsiyalar tizimidan iborat tabiiy hududiy kompleksdir. Demak, maydon hudud jihatdan katta bo‘lib, bir necha fatsiyalarni birlashtiradi. Masalan, botiqdagisi sho‘r va sho‘rxoklar; oq saksovulli tekis qumlar; do‘ngli qumlar va h.k.

Joy — maydonlar majmuasidan iborat bo‘lgan tabiiy hududiy kompleksdir. Masalan, yoyilmalarning yuqori, o‘rtalari va quyi qism-lari, tog‘larning suvayirg‘ichi, yonbag‘irlari va h.k.

Ma’lum bir hududdagi joylar yig‘indisi landshaftni tashkil qila-di. Masalan, cho‘l landshafti — qumli, gilli, toshli, taqirli joylar-dan iborat.

Demak, landshaft — joylar majmuasidan, joylar — maydonlar majmuasidan, maydonlar esa fatsiyasidan iborat. Yoki landshaft-lar — joylarga, joylar — maydonlarga, maydonlar — fatsiyalarga bo‘linar ekan.

Eslab qoling!

Landshaft — hududiy yaxlitligi, vujudga kelishiga ko‘ra bir butun, geografik tuzilishi, relyefi, tuproqlari, o’simlik va hayvonot dunyosi bir xil bo‘lgan tabiiy hududiy kompleksdir.

Bilmingizni sinab ko‘ring:

- 1. Landshaft deb nimaga aytildi?
- 2. Tabiiy landshaft deb nimaga aytildi?
- 3. Hozirgi paytda antropogen landshaftlar maydoni nima uchun ortib bor-moqda?
- 4. Kelajakda tabiiy landshaftlar bilan antropogen landshaftlar nisbati qan-day bo‘lishi mumkin?
- 5. O‘zingiz yashab turgan joyda qanday antropogen landshaftlar mavjud? Ularning ro‘yxatini tuzing.
- 6. Fatsiya, maydon, joy atamalarining mazmunini tushuntirib bering.

15-§. LOYIHALASH ISHLARIDA LANDSHAFT TAHLILI

Hozirgi paytda shaharsozlik, suv inshootlari, sanoat korxonalarini va boshqa yirik inshootlarni loyihalashda landshaft tahlili qo'llanilmoqda. Landshaft tahlili muhandislik inshootlarini to'g'ri joylashtirishga, tabiatda sodir bo'ladijan noxush hodisalarining oldini olishga imkon beradi.

Landshaft tahlili deganda landshaftlarning xossa va xususiyatlarini, tuzilishini, rivojlanishini, vujudga kelish tarixini, unda ro'y beradigan jarayonlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan usullar majmuasi tushuniladi.

Landshaft tahlili usuli landshaftning ikki tarkibiy qismi bo'lgan tabiiy va antropogen qismlarini tadqiq qilish va xaritalashni o'z ichiga oladi. Landshaft tahlili tabiiy sharoitning o'zgarishini baholash va bashoratlash uchun asos bo'ladi.

Landshaft tahlili usuli tabiiy sharoit va resurslarni o'rganishda yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish hamda zovur tarmoqlarini, sanoat korxonalarini, shahar qurilishini loyihalashda qo'llaniladi.

Tabiiy sharoit va resurslarni o'rganishda landshaft tahlili quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

O'rganilayotgan hududning landshaft xaritasi tahlil qilinib, unda qanday landshaft turlari (tabiiy va antropogen) tarqalganligi aniqlanadi. Xaritadan hududda tarqalgan asosiy relyef shakllari, tuproq turlari, o'simlik qoplami, sug'oriladigan, sug'orilmaydigan yerlar, yaylovlar, daryo terrasalari, sanoat korxonalari, suv inshootlari aniqlanadi. Muhandislik inshootlari va antropogen landshaftlarning qanday relyef shakllarida tarqalganligi tahlil qilinadi. Masalan, sholizorlar daryo qayirlarida, paxtazorlar yuqori terrasalarda, yaylovlar cho'llarda yoki tog' yonbag'irlarida joylashgan va h.k.

Hududni yirik mashtabli landshaft xaritalari yordamida o'rganish ko'pincha fatsiyalar xaritasini o'rganish orqali amalga oshiriladi (1:2500—1:5000).

Sizga ma'lumki, fatsiyalar bir xil mikrorelyefga, geografik tuzumga, tuproq turiga, yer osti va yer usti suvlariga, mikroiqlingga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ega bo'lgan eng kichik tabiiy hududiy komplekslardir.

Fatsiyalar xaritasining tahlili natijasida hududda qanday tuproq va o'simlik qoplami, qanday tog' jinslari va qanday relyef shakllari

tarqalganligi aniqlanadi. Masalan, daryoning qayeirida asosan shag'al toshlar, qumlar tarqalgan bo'ladi, tuproq qoplami yupqa yoki yo'q darajada, terrasa yuzlarida esa lyoss va lyossimon jinslar tarqalgan, tuproq qoplami qalin, pastqam joylarda yer osti suvlari sathi baland, shuning uchun bunday yerlarda botqoqliklar ko'proq tarqalgan bo'ladi.

Hududning tabiiy sharoiti va resurslarini o'rta va mayda mashtabli landshaft xaritalari yordamida ham o'rganish mumkin. Bunday landshaft xaritalari asosida yer, o'simlik, yaylov, o'rmon, tuproq va hayvonot resurslari haqida ma'lumotlar olinadi.

Yangi yerlarni o'zlashtirish va ularni sug'orishga tayyorlash loyihalashini tuzayotganda relyef va yer osti suvlaring harakat yo'nalishi va ularning to'planish hududlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, XX asrning 60-yillarida Tojikistondagi Zarafshon tumanida Mirzacho'lning janubiy qismidagi prolyuvial tekislikning yuqori qismida 15 ming hektar yer o'zlashtirilib, sug'orila boshlandi. Oqibatda prolyuvial tekislikning quyi qismida joylashgan O'zbekistonning 50 ming hektar yerida yer osti suvlari sathi ko'tarilib, tuproqlarni sho'r bosdi. Chunki, prolyuvial tekislikda yer osti suvlaring gorizontal (yotiqlig) harakati kuchli bo'lishi tufayli Zafarobod tumanida sug'orish boshlanishi bilan tuproqqa shamilgan suvlar prolyuvial tekislikning etak qislari tomon harakat qilgan. Oqibatda yer osti suvlari sathi ko'tarilib, Mirzacho'lning avvaldan sug'orib kelinayotgan yerlarda katta hududni sho'r bosishiga olib kelgan.

Sug'orish va zovur tarmoqlarini loyihalashda landshaft tahlili ni amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor beriladi: hududning relyefi chuqur tahlil qilinadi, sug'orish tarmoqlari hududning baland joylaridan, zovur tarmoqlarini esa pastqam joylaridan o'tkazish loyihalashtiriladi. Chunki pastqam joylarda yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo'ladi. Shuning uchun bunday joylardan kollektor-zovur tarmoqlari o'tkazilganda yer osti suvlari tez pasayadi va sho'rланishning oldi olinadi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda juda ko'p omillarni hisobga olish lozim. Sanoat korxonasi qanday mahsulot ishlab chiqaradi, atrof-muhitga qanday zararli moddalar tarqaladi va h.k. Atmosferaga ko'proq ifloslovchi moddalarni chiqaradigan sanoat korxonalarini loyihalashtirishda relyef, doimiy shamollar yo'nalishi, aholi manzilgohlarining joylashishi va boshqa omillar hisobga

olinishi zarur. Atmosferaga tashlanayotgan chiqindilar tez tarqalib ketishi uchun korxona balandroq joyga qurilgani ma'qul.

Sanoat korxonasi qurilishda doimiy shamollar yo'naliшини hisobga olish muhim hisobланади. Masalan, O'zbekiston chegarасидан 25 km узоqликда joylashган Tojikiston hududидаги alumin zavodini qurishda shamollar yo'naliши hisobга olinмаган. Natijada, bu zavoddan chiqayotgan zararli chiqindilar Surxondaryo viloyatining Sariosиyo, Denov tumanlariga shamol ta'sirida uchib kelib, ekologik vaziyatni keskinlashtirib yuborgan.

Shaharsozlik loyiҳalarini tuzishda quyidagilar e'tiborga olinishi lozim: hududning geologik tuzilishi, gidrogeologik sharoiti va relyefi, foydali qazilmalarning joylashishi va h.k.

Shahar yoki qishloq qurilishidan avval hududning geologik tuzilishi chuqur tahlil qilinishi lozim. Shaharning asosi mustahkam bo'lishi zarur. Agar inshootlar asosi g'ovak, yumshоq va suvda erib ketadigan tog' jinslaridan iborat bo'lsa, bino qurilganidan so'ng ular o'pirilishlar, cho'kishlar natijasida ishdan chiqishi mumkin. Mabodo, shahar asosi suv tekkanda shishib ketadigan gillardan iborat bo'lsa, binolarda yoriqlar paydo bo'lib, yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Masalan, Zarafshon shahri qurilganda 5—10 m chuqurlikda suv tekkanda tezda shishib ketadigan gillar borligi hisobga olinмаган. Oqibatda shahar qurilib, suv olib kelinganidan so'ng, gillar shishib, 5—9 qavatlар binolarning devorlarida yoriqlar paydo bo'lib, ularning ba'zilari yaroqsiz holga kelib qolgan. Yangiyer shahrини qurishda relyef va yer osti suvlarining yo'naliши hisobга olinмаган edi. Natijada, tog' tarafдан shahar tomonга yer osti suvlarining oqishi oqibatida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib, yerlar sho'rланib ketdi. Shu sababli, Sirdaryo viloyatining markazi Yangiyer shahridan Guliston shahriga ko'chirildi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Landshaft tahlili deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiiy sharoit va resurslarni o'rganishda landshaft tahlili qanday tartibda amalga oshiriladi?
3. Yerlarni o'zlashtirishga tayyorlashda nimalarni hisobga olish lozim?
4. Shahar qurilishida qanday omillarga e'tibor berish zarur?
5. Sug'orish va zovur tarmoqlarini loyihalashda amalga oshiriladigan ishlар ro'yxati tuzing.

16-§. TABIAT KOMPLEKSLARINING BARQARORLIGI VA UNI XO'JALIK ISHLARIDA HISOBGA OLİSH

Har bir tabiat kompleksi ma'lum bir barqarorlikka ega. **Tabiiy va tabiiy-atropogen landshaftlarning barqarorligi** deb, ularning tashqi ta'sirlarga nisbatan o'z tuzilishini saqlab qolish imkoniyati tushuniladi. Tashqi bosim olib tashlanganidan so'ng landshaftlar ma'lum vaqt o'tgach o'z holiga qaytishi mumkin. Masalan, lalmikor yerlarda dehqonchilik qilinmasa, ular yana ilgarigi tabiiy holiga qaytishi mumkin.

Antropogen landshaftlarning barqarorligi deb, ma'lum bir sharoitda landshaftlarning o'z ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajara olish qobiliyatiga aytildi. Masalan, har qanday tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, sel, suv toshqinlari, ifloslangan havo, sho'rланish, ifloslangan suv) va ta'sirlarga qaramasdan antropogen landshaftlar hosildorligining saqlanib qolishi va h.k.

Landshaftlarning barqarorligi ular komponentlarining o'zaro aloqasi, uyg'unligi va harakatiga bog'liq. Masalan, qumli cho'llarda komponentlar o'rtasidagi aloqa kuchsizroq, shuning uchun bu yerlarda landshaftning tuzilishi tashqi ta'sirlar natijasida tez o'zgarishi mumkin. Qumli cho'llarda chorva mollarining ko'p boqilishi natijasida o'simliklarning tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin, bu esa landshaft tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Tog' yonbag'irlarida o'simliklar qalin o'sadigan joylarda tog' jinslari tuproq-o'simlik o'rtasida bog'liqlik mustahkam bo'ladi. Mazkur yonbag'irda sel, eroziya, surilma kam sodir bo'ladi. Chunki yonbag'irlar tashqi ta'sirga nisbatan barqaror bo'ladi. Mabodo, mazkur o'simlik qoplami yo'q qilinsa, barqarorlik keskin kamayib, turli salbiy hodisalar ro'y bera boshlaydi.

Shuning uchun tabiat komplekslari landshaftlarning barqarorligini xo'jalik ishlarini olib borishda hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Sug'orma dehqonchilik hududlarida yerlarning hosildorligi landshaftlarning barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. Tog' etaklaridagi landshaftlar barqarorligi bilan ajralib turadi. Mazkur joylarda yer osti suvlarli ancha chuqurdaga joylashgan, shuning uchun bu yerlarda sho'rланish hodisalari kuzatilmaydi. Qiya joylarda esa noto'g'ri sug'orish natijasida jarlar rivojlanishi mumkin.

Tekislikda, ya'ni cho'llarda joylashgan yaylovlarda landshaftlar barqarorligi past darajada bo'ladi. Shuning uchun ushbu hududlar-

da landshaftlar barqarorligi chorvani noto'g'ri boqish, mavjud o'simlikni kesish va qirqish, payhon qilish va texnik eroziya tufayli keskin pasayib ketishi mumkin. Buning natijasida chorva mollari yemaydigan o'simlik turlari o'sib chiqadi va ko'payadi. Masalan, qumli yaylovlarda isiriq, selen, quyonsuyak, juzg'un, taqirli yaylovlarda yulg'un, sho'ra, oqbosh, qo'shbarg va boshqalar tar-qalishi mumkin.

Yaylovlarning barqarorligini ta'minlash uchun chorva mollari ni boqishni to'g'ri tashkil qilish, yaylovlarga «dam berish», o'simliklarni qirqishni to'xtatish, avtomobilarning harakatini ma'lum bir yo'naliшда amalgalash lozim.

Tuproq suv, havo o'z-o'zini tozalash qobiliyatiga ega. Tog'-lardagi tuproq va suvning o'z-o'zini tozalash xususiyati yuqori, ammo bu xususiyat tekisliklarda kam. Shamol va yog'inlar ta'sirida havo doimo o'z-o'zidan tozalanib turadi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Landshaftlarning barqarorligi deganda nimani tushunasiz?
2. Antropogen landshaftlarning barqarorligi nimaga bog'liq?
3. Qumli cho'llarda nima uchun landshaftlarning barqarorligi past?
4. Qanday hollarda landshaftlarning barqarorligi juda yuqori bo'ladi?
5. O'zingiz yashab turgan joydagi antropogen landshaftlar ro'yxatini tuzing.

17-§. TABIAT KOMPLEKSLARINING INSON TOMONIDAN O'ZGARTIRILISHI

Tashqi omillar ta'sirida yoki rivojlanish mobaynida landshaftlarning yangi xossalarga ega bo'lishi yoki avvalgi xossalari niyo'qotishiga landshaftlarning o'zgarishi deb ataladi.

Inson xo'jalik faoliyati tabiatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omildir. Inson o'zining mehnati va ongi yordamida atrofini qurshab olgan tabiatga faqat moslashibgina qolmasdan, balki uni o'zgartiradi. Tabiatning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining o'zgarishi boshqalarining holatida ham aks etadi, shu sababli, inson tabiat komplekslarini o'zgartirar ekan, uning oqibatlari qanday bo'lishini ham bashorat qila bilishi lozim.

Yirik suv omborlari qurilganda landshaftda kompleks o'zgarishlar sodir bo'ladi: yer osti suvlari sathi ko'tariladi, namlikning o'zgarishi natijasida botqoqliklar vujudga keladi, iqlim, tuproq va o'simlik qoplami o'zgaradi. Yirik suv omborlarining landshaftlarga salbiy ta'sirini o'rganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bitta yirik suv ombori qurgandan ko'ra o'zaro bir-biriga ta'sir etuvchi kichikroq suv omborlari tizimini qurish ancha qulay ekan.

Hozirgi paytda sayyoramizda antropogen landshaftlar keng tarqalgan. Ular **madaniy** va **buzilgan** landshaftlarga bo'linadi.

Madaniy landshaft insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida ongli ravishda o'zgartiriladi va u inson ehtiyojlari uchun foydalanishga qulay holatda saqlab turiladi. Madaniy landshaftlarga bog'lar, ekin dalalari, shaharlar, suv omborlari, dam olish zonalari va boshqalar kiradi (23-rasm).

Buzilgan landshaftlar insonning tabiatga nooqilona ta'siri natijasida vujudga keladi. Ekin dalalaridagi jarlar, suv omborlari yonidagi botqoqlar, mineral resurslarni qazib olish va qayta ishslash hududlaridagi surilmalar, o'pirilishlar va tashlamalar uyumini buzilgan landshaftlar qatoriga kiritish mumkin. Ularni qayta tiklash ishlariga juda katta mablag' talab qilinadi. Hozirgi paytda mazkur landshaftlar qayta tiklanib, ulardan xo'jalik maqsadllarida foydalanilmoqda. Masalan, AQSHda bunday joylar yaylovlarga



23-rasm. Madaniy landshaft. Paxtazor.

aylantirilgan, Ukrainada qishloq xo'jaligi, Germaniyada rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladi.

Landshaftlar o'zgarish darajasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Kuchsiz o'zgarish landshaftlar. Mazkur landshaftlarda ayrim komponentlargina o'zgaradi. Masalan, cho'llarda o'simliklar va hayvonlarning ayrim turlari o'zgarishi mumkin. Ammo komponentlar orasidagi bog'liqlik buzilmagan bo'ladi.

O'rtacha o'zgargan landshaftlar. Bunda komponentlar orasidagi o'zaro bog'liqlik va uyg'unlik buziladi. O'simlik, tuproq, relyef va hayvonot dunyosi o'zgaradi. Yaylovlar yaroqsiz holga keladi va begona o'tlar katta maydonni egallaydi.

Kuchli o'zgargan landshaftlar. Bunda barcha tabiat komponentlarining yangi sharoitga moslashgan aloqalarining vujudga kelishi ro'y beradi. Oqibatda, taqir va taqirli tuproqlarda, botiqlarda sho'rxoklar yoki botqoqlar taqirli tuproqlarning cho'l qum tuproqlariga aylanishi kuzatiladi. Yaylovlarda hosildorligi kam, ikkilamchi o'simliklar keng tarqaladi.

Juda kuchli o'zgargan landshaftlar. Bunda litologik asosdan tashqari barcha komponentlar (tuproq, o'simlik, mikroiqlim, yer osti va usti suvlari, hayvonot dunyosi) kuchli va juda kuchli o'zgarishga uchraydi. Masalan, botqoq tuproq o'tloq-taqir, ba'zi joylarda esa sho'rxokka, o'tloq-taqir tuproqlar taqir tuproqqa aylanib ketadi.

Bilasizmi?



Meteorologik stansiya — ob-havo va iqlimni o'rGANISH, atmosferani ilmiy tadqiq qilish maqsadida uzlusiz meteorologik kuzatishlar olib boradigan muassasa.

Meteorologik stansiyada atmosfera temperaturasi, bosim va havo namligi, shamol, yog'inlar, bulutlar va boshqa meteorologik elementlar uzlusiz aniqlab turiladi. Meteorologik stansiya 3 razryadga bo'linadi.

Hozirgi kunda sayyoramizdagi barcha davlatlarda 10000 ga yaqin, jumladan, O'zbekistonda 47 ta meteorologik stansiya ishlab turibdi.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- 1. Landshaftlarning o'zgarishi deb nimaga aytiladi?
- 2. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida antropogen landshaftlarning qanday turlari vujudga keladi?
- 3. O'zingiz yashab turgan joydagi madaniy landshaftlar ro'yxatini tuzing.
- 4. Landshaftlar o'zgarishiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
- 5. Landshaftlarning o'zgarish darajasi jadvalini tuzing.

VI b o b

GEOGRAFIK BAHOLASH



Aziz o‘quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz. Baholash, baholash bosqichlari, baholash usullari, yer, iqlim va rekreatsiya resurslarini baholash.

Tabiiy muhit baholanishi natijasida uning ijtimoiy ehtiyoj nuqtayi nazaridan qulayligi yoki yaroqliligi o‘rganiladi. Baholash natijasida biror hududning yoki tabiat komponentining dehqonchilik, chovachilik, dam olish, uy-joy, yo‘l qurilishi va boshqa sohalarda foydalanishga qanchalik qulayligi aniqlanadi. Mavzuni o‘rganish davomida geografik baholash usullari va tabiiy muhitni turli maqsadlarda baholash masalalari haqida bilib olasiz.

18-§. GEOGRAFIK BAHOLASH USULLARI

Tabiiy sharoit yoki landshaftlarni foydalanish maqsadlarida baholash — **geografik baholash** deb ataladi. Masalan, dehqonchilik, chovachilik, sanoat, transport, rekreatsiya, suv xo‘jaligi va boshqa maqsadlarda baholash amalda oshirilishi mumkin.

Geografik baholash quyidagi boshqichlardan iborat:

- a) baholash ishlarining maqsad va vazifalarini aniqlash (masalan, daryo vodiysining ma’lum bir qismini suv ombori qurish maqsadida baholash);
- b) baholash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar ro‘yxatini tuzish;
- d) o‘rganilayotgan hudud daryo vodiysining hozirgi va kela-jakdagi holatini belgilaydigan ko‘rsatkichlar yoki xossalarni o‘rganish va o‘lchash (vodiyning geologik tuzilishi, uzunligi, kengligi, balandligi, yonbag‘irlar qiyaligi, suvning sarfi, loyqaligi, me’yori va h.k.);

e) olingan ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni bir-biriga taqqoslash asosida har bir komponent bo'yicha alohida baholashni amalga oshirish (relyef, geologik tuzilish, suv o'lchamlari va h.k. haqida);

f) alohida baholashlar asosida umumiylah baholashni amalga oshirish (suv o'mborini mazkur joyda qurish mumkinmi yoki yo'qmi);

g) yakuniy jadval va xaritalar tuzish.

Tabiiy geografik baholashning aniq maqsadiga ko'ra sifat va miqdor usullaridan foydalilaniladi. Sifat ko'rsatkichlari qulaylik darajasiga qarab «juda qulay», «qulay», «o'rtacha qulay», «kamroq qulay», «qulay emas» deb baholanadi.

Masalan, tekisliklar yo'l qurilishi uchun juda qulay, qumli cho'llar qulay, to'lqinsimon tekisliklar o'rtacha qulay, adirlar kamroq qulay, tog'lar esa qulay emas.

Baholashning miqdor usuli har bir darajani sonli ko'rsatkichlar asosida amalga oshirishga asoslangan. Masalan, vegetatsiya davrida havo haroratining 10°C dan yuqori bo'lgan kunlar yig'indiisi qishloq xo'jalik ekinlarining qaysi turlari hududning qaysi joylarida o'sishi mumkinligini aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, arpaning pishib yetilishi uchun quyidagi haroratlar yig'indiisi bo'lishi shart. Vegetatsiya davrida havo haroratining $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori yig'indiisi 1000° gacha bo'lishi eng tezpishar arpa navining yetilishi uchun yetarli emas, mazkur arpa navi $1000-1400^{\circ}$ da pishadi, $1400-1800^{\circ}$ da esa o'rta pishar, 1800° dan oshganda esa eng kechki navlar yetiladi. Ko'rsatilgan ushbu miqdor ko'rsatkichlari baholashning ma'lum bonitetli darajalari hisoblanadi.



Eslab qo'ing!

Foydalanish maqsadlarida tabiiy sharoitni yoki landshaftlarni baholash — **geografik baholash** deb ataiadi.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Geografik baholash deb nimaga aytildi?
2. Geografik baholash qanday bosqichlardan iborat?
3. Geografik baholashning qanday usullarini bilasiz?
4. O'zingiz yashab turgan joy dehqonchilik uchun qulaymi yoki noqulaymi? Fikringizni asoslab daftaringizga yozing.
5. Geografik baholashning miqdor usuli nimaga asoslanadi?

19-§. YER RESURSLARINI BAHOLASH

Yer resurslari xo‘jalik jihatdan juda ko‘p maqsadlarda baholanadi. Ayniqsa, yer resurslarini dehqonchilik maqsadlarida baho-lash keng tarqalgan.

Dehqonchilikni amalga oshirish asosan relyef, agroiqlimiylar surslar, tuproq sharoiti, yer osti suvlarining joylashishi va xossalari ning qulayligi, suvning mavjudligi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishning murakkablik darajalari landshaftlarning xususiyatlariga qarab turlicha bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatilgan omillarning tahlili asosida O‘zbekiston tabiiy-hududiy komplekslari murakkablik darajasiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: oddiy, o‘rtacha murakkab, murakkab va juda murakkab tabiiy komplekslar (*I-jadval*).

Oddiy tabiiy komplekslarga tog‘ oldi prolyuvial va daryo vodiyalarining yuqori terrasalari kiradi. Yer osti suvlarining gorizontal harakati yuqori darajada ta‘minlangan bo‘lib, bu suvlarining sathi ko‘tarilmaydi, chunki lyossimon jinslar ostida shag‘al toshlar yotadi. Mazkur joylar dehqonchilik uchun juda qulay.

O‘rtacha murakkablikdagi tabiiy komplekslarga yoyilmalar va daryo deltalarining yuqori qismlari kiradi. Yer osti suvlarining gorizotnal harakati ta‘minlangan, ammo ayrim pastqam joylarda u yer yuzasiga yaqin ko‘tariladi va sho‘rlanishga sabab bo‘lishi mumkin. Shamol va suv eroziyasini yuz berishi mumkin. Shuning uchun ihota daraxtzorlarini vujudga keltirishni loyihalashtirish zarur.

Murakkab tabiiy komplekslarga yoyilmalar va deltalarining o‘rta qismlari va allyuvial terrasalar kiradi. Yer osti suvlarining gorizontal harakati yaxshi emas, sug‘orish davomida ularning sathi ko‘tariladi va tuproqda tuz to‘plana boshlaydi. Buning oldini olish uchun gorizontal va tik zovurlar qurilishni ko‘zda tutmoq lozim.

Juda murakkab tabiiy komplekslarga deltalarining etak qismlari, prolyuvial tekisliklarning quyi yoki chekka joylari, adirlar, plato va balandliklar kiradi. Yer osti suvlarining gorizontal harakati ta‘minlanmagan, ularning sathi sug‘orish paytida tezda ko‘tarilib ketadi. Buning oldini olish maqsadida zich zovurlar tarmog‘ini qurish, yerni sifatli qilib yuvish va tekislash, shamol eroziyasiga qarshi ihota daraxtzorlarini vujudga keltirish lozim. Suv shimalishining oldini olish uchun tomchilatib, yomg‘irlatib va tuproq ostidan sug‘orish usullarini qo‘llash zarur.

O'zbekistonning cho'l va chalacho'l mintaqalarida sug'orishga yaroqli yerlar tabiat komplekslarining murakkablik darajalarini aniqlovchi mezonlar

TK lari va melio- ratsiya murak- kabligi	Relyef		Yotqiziq- larning tarkibi	Tuproqlar			Grunt suvlari		Yerlar- ning meliorativ holati
	turi	yuzasi- ning xusu- siyati		nomi	sho'rla- nishga berilganligi	eroziyaga berilganligi	chu- qurligi m	mineral- lashuv darajasi, har I da g	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Oddiy (maxsus tadbirlar talab qilmaydi)	Tog' oldi prolyuvial tekislik, yuqori allyuvial terrasarlar	Qiyaroq	Lyoss va lyossimon yotqiziqlar ostida dag'al jinslar mavjud	Tipik bo'z, sur-bo'z	Berilmagan	Yuviilmagan, joylarda kamroq yuvilgan	20—100	3 gacha	Barqaror
O'rtacha murakkab (oldini olvchi tadbirlar zarur)	Konus yoymalari va daryo deltala- rinin bosh qismi	To'lqinsi- mon	Lyossimon yotqiziqlar qum, ba'zan shag'al bilan aralash holda uchraydi, ular ostida dag'al jinslar bor	Tipik bo'z, sur-bo'z, qumli cho'l, taqirli	Berilmagan	Turli darajada yuviilgan joylarda shamol eroziyasi mavjud	10—15 va undan past	3—10 va undan ko'p	Ko'proc barqaror

1-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Murakkab (maxsus tadbirlar kompleksi zarur)	Konus yoymalari va daryo deltala- rining o'rt qismlari, quyi terrasalar	Qiya	Qumoq, qumloq yotqiziqlari qum qatlamlari qum qatlam- chalari bilan aralash holda uchraydi	Sur-bo'z, qumli cho'l taqiri	Turli darajada	Shamol eroziyasiga berilgan	5—10	5—10 va 10—30	Barqaror emas
Juda murakkab (katta hajmda maxsus tadbirlar kompleksi zarur)	Konus yoymalari va daryo deltala- rining etak qismlari, qirlar, adirlar, platolar	Yassi, qiya to'lqinsi- mon botiq	Og'ir mexanik tarkibili yotqiziqlar (gil, og'ir qumloq) shag'al aralash qumloq (jipslashgan)	Sur-bo'z, taqir o'tloq, taqirli, sho'rxok	Yotqiziqlar tarkibida tuz va gips mavjud	Shamol eroziyasiga turli darajada berilgan	3—5, 10—20 va undan pastda	10—30 va undan ko'p	Juda barqaror

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Yerlarni dehqonchilik maqsadlarida baholash qanday amalga oshiriladi?
2. O'zbekistonligi tabiiy komplekslar murakkablik darajasiga ko'ra qanday guruhlarga ajratilgan?
3. Nima uchun oddiy tabiiy komplekslarda dehqonchilik qilish juda qulay?
4. Siz yashab turgan joy tabiiy komplekslarning murakkablik darajasi qanday? U yerda dehqonchilik qilish qulaymi? Kuzatishlaringizni daf-taringizga yozing.

20-§. IQLIMIY RESURSLARNI BAHOLASH

Iqlim resurslarining miqdor ko'rsatkichlari ko'p jihatdan qishloq xo'jalik ekinlarining turini va hosildorligini belgilab beradi. Har qanday ekinlarning pishib yetilishi uchun ma'lum miqdorda issiqlik zarur bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz iqlimiylar resurslarini qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan baholash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Vegetatsiya davrida kerakli miqdorda issiqlik mavjud bo'lsagina ekinlar urug'i unib chiqadi, rivojlanadi va pishib yetiladi. Ekinlarning urug'i unib chiqishi, ko'p hollarda, havo harorati o'rtacha $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lganda yuz beradi.

O'zbekistonning tekislik qismida quyidagi issiqlik mintaqalari mavjud: issiq, juda issiq, o'rtacha jazirama, jazirama, o'ta jazirama.

Issiq mintaqaga O'zbekistonning shimoliy g'arbida joylashgan Ustyurt platosining Orol dengizi sohillari kiradi. $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori haroratlar yig'indisi 3500° dan kam. Mazkur mintaqada uzumning ertapishar navlari yetilishi mumkin.

Juda issiq mintaqada haroratlar yig'indisi $3500-4000^{\circ}$. Mazkur mintaqaga Ustyurt platosining shimoliy va o'rta qismlari, Amudaryo deltasining shimoliy qismi kiradi. Ushbu mintaqada uzumning tezpishar, sholining ertapishar, makkajo'xorining kech-pishar navlari pishib ulguradi.

O'rtacha jazirama mintaqada haroratlar yig'indisi $4000-4500^{\circ}$ gacha boradi. Ustyurt platosi va Amudaryo deltasining janubiy qismlari, Xorazm vohasi, Qizilqumning shimoliy qismiga to'g'ri keladi. Mazkur mintaqada paxtaning ertapishar navlari to'liq pishib yetiladi.

Jazirama mintaqada haroratlar yig'indisi 4500° dan 5000° gacha yetadi. Ushbu mintaqaga Qizilqumning katta qismi, Zarafshon

vodiysining quyi qismi, Mirzacho'l, Farg'ona vodiysi kiradi. Mazkur mintaqada paxtaning o'rtapishar navlarini ekish mumkin.

Juda jazirama mintaqada haroratlar yig'indisi 5000° dan yuqori bladi. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining janubiy qismlari shu mintaqada joylashgan. Ushbu mintaqada ingichka tolali paxta yetishtiriladi.

Sizga ma'lumki, O'zbekistonning sharqiy va janubi sharqiy qismlari asosan tog'lardan iborat. Tog'larda balandlikka ko'tarilgan sayin havo harorati pasayib boradi, natijada musbat haroratlar yig'indisi kamayib, yetishtiriladigan ekin turlari ham o'zgarib boradi.

Tog'larda quyidagi issiqlik mintaqalari ajratiladi: iliq mintaqaga, salqin mintaqaga, juda salqin mintaqaga.

Iliq mintaqada haroratlar yig'indisi $3000-4000^{\circ}$ atrofida va o'rtacha balandlikdagi tog'larni o'z ichiga oladi. Ushbu mintaqada lalmikor yerlarda don yetishtirish hamda sug'orma uzumchilikni rivojlantirish mumkin, paxta yetilmaydi.

Salqin mintaqada musbat haroratlar yig'indisi 3000° dan kam. O'rtacha balandlikdagi tog'larni o'z ichiga oladi. Mazkur mintaqadan asosan yaylov sifatida foydalaniladi.

Juda salqin mintaqada haroratlar yig'indisi 1000° dan kam, dehqonchilik uchun yaramaydi. Bu mintaqa baland tog'larni o'z ichiga oladi.

Bilmingizni sinab ko'ring:



1. Havo harorati necha darajaga yetganda ekinlar urug'dan unib chiqaboshlaydi?
2. O'zbekistonda qanday issiqlik mintaqalari ajratilgan?
3. Musbat haroratlar yig'indisi qancha bo'lganda ingichka tolali paxta yetishtirish mumkin?
4. Qaysi mintaqadan asosan yaylov sifatida foydalaniladi?
5. Qaysi mintaqaga dehqonchilik uchun yaramaydi?

21-§. REKREATSIYA RESURSLARINI BAHOLASH

Tabiat komplekslarining dam olish maqsadlarida foydalaniladigan xususiyatlari yoki komponentlari rekreatsion resurslar deb ataladi. Masalan, manzarali o'rmon, dengiz va okean qirg'oqlari, tog' vodiylari, g'orlar, manzarali chiroyli o'simliklar, ajoyib relyef shakllari, muzlar shular jumlasidandir.

Rekreatsiya (tiklash, o'rnini to'ldirish)ning qamrovi katta bo'lib, odamlarning dam olishi, salomatligini tiklashi, madaniy hordiq chiqarishi ma'nosida ishlataladi.

Tabiiy komplekslar yoki landshaftlarni rekreatsion nuqtayi nazaridan tadqiq qilish asosan landshaftlarning rekreatsion imkoniyatlarini va ularga rekreatsion bosimning ta'sirini baholashdan iborat.

Dam olish tashkiliy va notashkiliy (ixtiyoriy) bo'lishi mumkin. Tashkiliy dam olish turli muassasalar tomonidan uyuşhtiriladi. Notashkiliy (ixtiyoriy) dam olish esa odamlarning o'z xohishlari bo'yicha bir yoki bir necha kishi bo'lib, tanlangan hududlarda uyuşhtiriladi.

Dam olishdan ko'zlangan maqsad turlicha bo'lishi mumkin: davolanish, sog'lomlashtirish, sport, tanishuv va h.k.

Dam olish mavsumga qarab ham turlicha bo'lishi mumkin. Yozgi dam olish turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: cho'milish, quyosh vannalari olish, piyoda yurish (davolanish, salomatlikni tiklash, ekskursiya), qayiq sporti, baliq ovi, turli xil mevalar va qo'zigorin terish, otta sayr qilish, alpinizm bilan shug'ullanish va h.k. Qishki mavsumda quyidagi dam olish turlari bilan shug'ullanish mumkin: chang'i sporti, muzosti baliq ovi, sport ovchiligi, davolanish, salomatlikni tiklash, piyoda sayr.

Rekreatsion baholash obyekti — landshaftlar, joylar, mavdonlar va fatsiya bo'lishi mumkin. Rekreatsiya komplekslarini joylashtirishni loyihalashda landshaftlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. Bunda turli landshaftlarni rekreatsion maqsadlarda foydalanish darajasiga qarab eng qulay landshaft turi tanlanadi. Masalan, daryo vodiysi, tog' yonbag'ri, ko'l yoki suv ombori qirg'og'i, tekislik, okean yoki dengiz qirg'og'i, o'rmon va h.k. (24-rasm).

Alovida rekreatsion komplekslarni (dam olish uylari, satoriylar, sayyohlik majmualari va h.k.) loyihalashtirayotganda aniq maydonni baholash yaxshi natija beradi.

Aniq bir dam olish muassasalarining ichki tuzilishini loyihalashda tabiat komplekslarini fatsiya darajasida baholash lozim. Asosiy inshootlarni fatsiyaning relyef sharoiti, suvlari o'simligi, landshaft manzarasiga qarab joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi (2-jadval).

Rekreatsion maqsadlarda baholashda ularni estetik jihatdan baholash ham muhim o'rin tutadi. Bunda tabiiy sharoitning relyefning, o'simliklarning, landshaft umumiy ko'rinishining estetik jihatdan zavq bera olish imkoniyati hisobga olinadi.

**Tog' turizmi maqsadlarida tabiat komplekslarini baholash mezonlari
(Chirchiq va Ohangaron daryolari havzalari misolida)**

Yonbag'ir xususiyati	Yonbag'ir qiyaligi, daraja	Yonbag'ir yuzasining xususiyati	Tabiiy jarayonlar	O'simlik qoplami o'tlarning % hisobidagi qoplami	Yolg'izoyoq yo'llarning mavjudligi	Suv manbarining mavjudligi	Tabiat manzara-larining estetik ahamiyati
1	2	3	4	5	6	7	8
Qulay emas							
Juda qiya, ba'zan tik ko'tarilgan	30—60	Kristalli tog' jinslari usti ochilib yotadi	Tog' qulashi, qurumlar tarqalgan	Siyrak buta va butachalar mavjud, 0—30	«Echki so'qmoqlari» mavjud	Yo'q	Yalang'och qoyalar, bir-biridan kam farq qiladigan manzaralar
Kamroq qulay							
Juda qiya, joylarda tik ko'tarilgan	30—40, ba'zan 50	Kristalli tog' jinslari usti ochilib yotadi, ba'zan lyosimon jinslar bilan qoplangan	Tog' qulashi, surilma va eroziya tarqalgan	Siyrak butalar, onda-sonda daraxt uchraydi, 0—40, ba'zan 50	Siyrak so'qmoqlar, jarayonlar bilan buzilgan	Joylarda kam suvli, qurib qoladigan buloqlar mavjud	Bir xil, bir-biridan kam farq qiladigan manzaralar

1	2	3	4	5	6	7	8
Qulay							
Qiya	15—30	Lyoss, lyossimon jinslar, yuqori qismida ellyuviy va dellyuviy tarqalgan	Surilma, eroziya ariqlari va jar eroziyasi	Siyrak daraxtlar va zich butalar, 40—50	Yetarli darajada, ba'zan buzilgan	Sersuv buloqlar, soylar, suvi ichish uchun yarоqli	Bir-biridan farq qiladigan manzaralar, relyefning tik parchalanishi kamroq, atrofning ko'rishi, 15 km dan ko'p
Juda ham qulay							
Qiya, o'rtacha	15—30, 10—15	Lyoss, lyossimon jinslar, yuqori qismida ellyuviy va dellyuviy	Siyrak surilma, eroziya ariqlari va jarlar	Daraxt va butalar zich holda, 30—100	Yetarli darajada	Yirik soylar, sersuv buloqlar	Bir-biridan farq qiladigan manzaralar, relyefning tik va yotiq parchalanishi kuchli atrof ko'rinishi 25 km dan ko'p



24-rasm. «Toshkentlend» — dam olish bog'i.

Baholashning oxirgi bosqichida tabiiy komplekslarning rekreatsion korxonalarini joylashtirish uchun yaroqliligi va rekreatsion bosimga barqarorlik darajasi hisobga olinadi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Rekreatsiya so'zining ma'nosini tushuntirib bering.
2. Yozgi dam olish turlarini aniqlang.
3. Rekreatsiya resurslari deganda nimani tushunasiz?
4. O'zingiz yashab turgan joyda qanday dam olish maskanlari bor?
5. O'zbekistondagi mashhur dam olish joylari ro'yxatini tuzing.

VII b o b

GEOGRAFIK BASHORAT



Aziz o‘quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: bashorat, bashoratlash, geografik bashorat, geografik bashoratlash, bashorat usullari, sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geografik bashoratlar.

Inson mehnat faoliyati bilan shug‘ullanar ekan, tabiiy sharoitning shu kundagi holati bilangina emas, balki kelajakda ro‘y beradigan turli o‘zgarishlar bilan ham qiziqadi. Binobarin, tabiiy sharoit o‘zgarishini inson manfaatlari nuqtayi nazaridan oldindan bashorat qilish va chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Ushbu bo‘lim bayonida Siz geografik bashorat, uning usullari, turlari hamda O‘zbekiston tabiat komplekslarining o‘zgarishini bashoratlashga doir mavzular bilan tanishasiz.

22-§. GEOGRAFIK BASHORAT HAQIDA TUSHUNCHА

Geografik qobiqning kelajakdagи holatini oldindan ko‘ra bilish, fan-texnika inqilobi sharoitida insonning tabiiy muhitga ta’siri va uning oqibatlarini oldindan ilmiy asosda ayta olish va asoslab berish zamонавиy geografiya fani oldida turgan muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Fanda biror hodisa yoki biron-bir obyekt holatining o‘zgarishini oldindan ko‘ra bilish va ayta olish **bashorat** deb ataladi.

Hozirgi paytda geografiyada bashoratlash va bashorat tushunchalari mavjud. **Bashoratlash** — o‘rganilayotgan borliq (obyekt) holatining o‘zgarishi haqida ma’lumotlar yig‘ish yoki olish jarayonidir. Bashorat esa bashoratlash bo‘yicha tadqiqotlarning natijasidir. Umuman bashorat deganda o‘rganilayotgan borliq yoki hodisaning kelajakdagи holat va ko‘rinishining tavsifi tushuniladi.

Geografik bashoratlash tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitning rivojlanishi va o'zgarishi haqida ma'lumotlar olish va to'plash jarayonidir.

Geografik bashorat deb, tabiiy muhit va hududiy ishlab chiqarish tizimlarining o'zgarishidagi asosiy yo'nalishlarni ilmiy jihatdan oldindan asoslab berishga aytildi.


So'nggi vaqtida ilmiy-texnik jadallashtirish jarayoni tufayli bashoratlash bo'yicha ilmiy izlanishlar juda tezlik bilan rivojlna boshladi. Ilmiy g'oyalarni amaliyatda qo'llash muddatlari keskin qisqarishi munosabati bilan tabiiy muhitga bo'lgan bosim kuchayib ketdi. Natijada tabiiy muhitning aks ta'siri muddatlari ham keskin qisqara boshladi. Tabiiy muhitning inson ta'siriga aks ta'siri ko'pincha salbiy ko'rinishga ega bo'la boshladi. Shuning uchun hozirgi paytda noxush hodisalarini oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Insonning tabiatga ta'siri oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaslik va ularni oldindan ayta olmaslik sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Orol dengizi muammosi bunga misol bo'lishi mumkin (*25—26-rasmlar*).

Geografik bashoratlar bir necha variantlarda amalgga oshiriladi. Masalan, Sibir daryolari oqimining bir qismini O'rta Osiyo va Qozog'istonga burish loyihasini amalgga oshirish va uning ekologik oqibati bir necha variantda ishlab chiqilgan. Ulardan avvaliga 5—6, keyinchalik esa maqbul varianti tanlab olindi va mazkur variant asosida barcha hisob-kitob ishlari bajarildi.

Geografik bashoratlar turli muddatlarga tuziladi. Shuning uchun bashoratlar muddatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: **operativ bashorat** bir oy muddatga, **qisqa muddatli bashorat** 1 oydan 1 yilgacha, **o'rta muddatli bashorat** 1 yildan 5 yilgacha, **uzoq muddatli bashorat** 5 yildan 15 yilgacha, **juda uzoq muddatli bashoratlar** 15 yildan ko'proq muddatga ishlab chiqiladi.

Tabiiy geografik bashoratni amalgga oshirish uchun tabiat komplekslari komponentlarining bashoratli xossalarni aniqlab olish lozim bo'ladi. Ma'lum bir joyning relyefi, tog' jinslari, tuproqlari, suvlari, o'simligi va hayvonot dunyosi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu xususiyatlar haqdagi ma'lumotlar tabiiy geografik bashoratlarda ishlatalidi.

Tabiiy komplekslar komponentlarining tabiiy muhit iflosninishini kamaytirish xususiyatlari quyidagilardan iborat:



25-rasm. Orol dengizi havzasi bo'yicha o'rtacha suv olish va suv resurslaridan foydalanish tarkibi.



26-rasm. Orol dengizi chiziqlari.

1. Relyef. Botiqlar texnogen mahsulotlarni (chiqindilarni) to'plovchilar. Balandliklar esa ularni tarqatib yuboruvchidir. Yonbag'irlar qiyaligi ularning parchalanish darajasi, zichligi, yer osti suvlaringin harakatiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin.

2. Tog' jinslari. Suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan jinslar, ularning qalinligi tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatadi.

3. Suvlar. Ularda erigan organik moddalarning miqdori, yillik oqim miqdori, oqim tezligi muhim ahamiyatga ega. Oqim tezligi qancha yuqori bo'lsa, ifloslovchi moddalar shuncha tez olib ketiladi. Suvdagagi organik moddalar og'ir metallarning eruvchanligini tezlashtiradi.

4. Tuproqlar. Oksidlanish-qaytarilish, kislotali-ishqorli sharoiti. Ular tuproqni ifloslovchi moddalardan o'z-o'zini tozalash qobiliyatini belgilab beradi.

5. O'simliklar. Ifloslovchi moddalarni yutadigan o'simliklar turlari.

Mazkur xususiyatlар asosida tabiiy muhitning o'zgarishini oldindan aytib berish mumkin.

Eslab qoling!



Geografik bashorat deb, tabiiy muhit va hududiy ishlab chiqarish tizimlarining o'zgarishidagi asosiy yo'nalishlarni ilmiy jihatdan oldindan asoslab berishga aytildi.

Geografik bashoratlash deganda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitning rivojlanishi va o'zgarishi haqida ma'lumotlar olish va to'plash jarayoni tushuniladi.

Bilasizmi?



Agar Yer yuzida o'rtacha harorat **3–4°C** ga ko'tarilsa, iqlim mintaqalari yuzlab kilometrga surilishi, dehqonchilik chegaralari shimalga kirib borishi va juda katta maydondagi doimiy muzliklar erib ketishi mumkin. Shimoliy Muz okeanini qoplagan muzlar yozda erib ketib, kemalar bermalol suzib yurishi mumkin. Ikkinci tomonдан esa Moskva va uning yon atrofidagi shaharlar iqlimi Kavkaz ortining hozirgi iqlimiga o'xshab qolar edi. Afrikadagi ekvatorial zona shimalga surilib, Sahroi Kabirni egallashi mumkin. Antarktida va Grenlandiya muzliklari erib ketib, natijada Dunyo okeani sathi 66 metrga ko'tarilgan bo'lar edi. Buning natijasida esa hozirgi insoniyat yashab turgan 25 % qirg'oqlar suv ostida qolgan bo'lar edi.

BMT ekspertlarining ilmiy bashoratlariga ko'ra Yer yuzi aholisi 2010-yilda 7 mldr, 2025-yilda esa 8,5 mldr kishiga, 2040-yilga borib, 10 mldr kishiga yetadi.

Bilmingizni sinab ko'ring:



1. Bashorat deganda nimani tushunasiz?
2. Bashoratlash nima?
3. Geografik bashoratlash deb nimaga aytildi?
4. Geografik bashoratlar qanday muddatlarga tuziladi?
5. Tabiat komponentlarining qanday xususiyatlari atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishi mumkin?

23-§. BASHORATLAR USULLARI

Geografik bashoratlashda turli xil usullardan foydalaniladi. Qanday usullardan foydalanish bashoratning maqsadi va muddati-ga bog'liq bo'ladi. Qisqa muddatli geografik bashoratlarda **landshaft-indikatsiya usuli**, uzoq muddatli geografik bashoratlarni amalga oshirishda **geografik o'xshatish** va **ekstrapolyatsiya usuli** qo'llaniladi. Bundan tashqari juda ko'p hollarda **tizimlararo tahlil usulidan** keng foydalaniladi.

Landshaft-indikatsiya usuli. Mazkur usulning mazmuni shundan iboratki, landshaftning bevosita ko'rinish turadigan komponentlari (o'simlik, tuproq, relyef va boshqalar) xususiyatlarini o'rganish orqali kuzatib bo'lmaydigan komponentlarning holatini o'rganish mumkin. Masalan, o'simlik turini aniqlash va holatini o'rganish orqali boshqa komponentlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Agar cho'lda yantoq o'simligi keng tarqalgan bo'lsa, yer osti suvlari 5—10 m chuqurlikda, agar qamish o'sayotgan joy bo'lsa, yer osti suvlari 1,5—2 m chuqurlikda ekanligi va tuproqlar o'rtacha sho'rlanganligi haqida xulosa chiqariladi.

Shunday qilib, dala sharoitida landshaftlar o'rganilayotganda o'simlik, tuproq va relyefning xususiyatlariga e'tibor berilsa, boshqa komponentlar to'g'risida, ya'ni qaysi o'simlik qoplami keyinchalik eng ko'p tarqalishini ham bashorat qilish mumkin.

Geografik o'xshatish usuli. Bu usulda biror hududda bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish asosida xuddi shunday o'zgarishlar boshqa shunga o'xhash hududlarda ham sodir bo'lishi mumkinligi bashorat qilinadi.

O'xshatish usulini qo'llashning asosiy shartlaridan biri o'xshatish o'chamlarining mos kelishidir. O'xshatish o'chamlari quyida-gilarni o'z ichiga oladi:

1) relyef sharoitining o'xhashligi. Bunda ikkala hudud ham bir xil relyef shaklida joylashgan bo'lishi lozim (daryo vodiysi, tekislik, botiq, yonbag'ir, balandlik);

2) tog' jinslari va ular xossalaringin o'xhashligi. Ikkala hudud ham deyarli bir xil xossaga (suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan, yoriqsiz, yoriqli, gilli, qumli, qoyalı), bir xil genezisga ega (cho'-kindi, metamorfik, magmatik) tog' jinslaridan iborat bo'lishi lozim;

3) tuproqlari va ularning qalinligi, xossalari bir xil bo'lishi lozim (masalan, tog' bo'z tuproqlar);

- 4) o'simlik qoplaming o'xshashligi;
- 5) hayvonot dunyosining o'xshashligi;
- 6) insonning tabiatga ta'sirining o'xshashligi (suv ombori, kon, shahar, ekinzorlar, bog'lar, to'g'onlar, yo'llar, kanallar va h.k.).

Ushbu usul ko'proq aniq bir muhandislik inshootlarining tabiatga ta'sirini bashoratlashda qo'llaniladi. Masalan, tekislikda avval qazilgan foydali qazilma konining tabiiy muhitga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish bilan xuddi shunday sharoitdagi boshqa joyda qazib olinayotgan foydali qazilma konining tabiiy muhitga ta'sirini bashoratlashda o'xhatish usulini qo'llash mumkin.

Ekstrapolyatsiya usuli. Mazkur usulning mohiyati o'zgarish yo'nalishini kelajakka nisbatan ekstrapolyatsiya qilishdan iborat. Ushbu usul tabiat komplekslarining holatidagi mavjud bo'lган o'zgarishlar yo'nalishini o'rganish orqali, bu o'zgarishlar kelajakda ham davom etadi, degan xulosa chiqarishga asoslangan. Masalan, Niagara sharsharasi ohaktoshlarni yemirib, Eri ko'li tomon astasekin chekinmoqda. Bu jarayon davom etaversa, Niagara sharsharasi yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bunday jarayonning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

Tizimlararo tahlil usuli. Mazkur usulning asosiy mohiyati shundan iboratki, bir tizim holatining tahlili asosida boshqa tizimning holati bashorat qilinadi.

Masalan, har 11 yilda Quyoshdagagi dog'lar sonining ko'payishi asosida Yerdagi qator noxush hodisalarining ro'y berishi oldindan aytib beriladi.

Eng xavfli qor ko'chkilari, sellar, qurg'oqchilik, toshqinlar va boshqa noxush hodisalar Quyosh faolligining 11 yillik davriyligi bilan bog'langan.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Bashoratning qanday usullarini bilasiz?
2. Tizimlararo bashorat usuli qanday hollarda qo'llaniladi?
3. Landshaft-indikatsiya usulining mazmuni nimadan iborat?
4. O'xhatish usuli qanday hollarda qo'llanadi?
5. O'zingiz yashab turgan joyda bir-biriga o'xshash va bir xil sharoitda joylashgan inshootlar ro'yxatini tuzing.

24-§. SAYYORAVIY, MINTAQAVIY VA MAHALLIY GEOGRAFIK BASHORATLAR

Geografik bashoratlar jahon, mintaqasi va mahalliy miqyoslarda olib boriladi.


Sayyoraviy bashoratlar. Ular Yer rivojlanishining evolyutsion yo‘nalishlarini o‘rganishga asoslangan. Umumsayyoraviy geografik bashoratlarning asosiya maqsadi insoniyatning kelajakdagi hayotini va Yerni saqlab qolishga qaratilgan muammolarni oldindan bashorat qilishdir. Shuning uchun ham mutaxassis va olimlarning ko‘pchiligi hozirgi paytda butun dunyo miqyosida kelajakda kuti layotgan turli noxush hodisalarini bashorat qilish bilan shug‘ullanadi. Atmosfera havosining ifloslanishi, ozon qatlamining yupqalanishi, «issiqxona samarasi»ning vujudga kelishi, cho‘llashish jarayoni, gidrosferaning ifloslanishi va toza ichimlik suvi muammosi shular jumlasidandir. Insoniyatning kelajakdagi hayoti yuqorida muammolarning qanday bashorat qilinishiga bog‘liq. Umum-sayyoraviy bashoratlar ma’lum bir hududga bog‘lanmagan bo‘ladi (27-rasm).

Mintaqaviy bashorat. Mintaqaviy bashorat deb hududiy jihatdan chegaralangan tabiiy komplekslarning kelajakdagi o‘zgarishini oldindan asoslab berishga aytildi.


Jahoning xo‘jaligi yuksak darajada rivojlangan qismlarida jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlari o‘ta keskinlashadi. Buning oqibatida turli xil ekologik muammolar yuzaga keladi, nati-jada ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar murakkablashib ketishi mumkin.

Mazkur mintaqalarga O‘rta dengiz, Boltiq, Shimoliy, Qora dengizlar, Meksika, Fors qo‘ltiqlari va boshqa joylar kiradi. Ushbu joylarda neft tashilishi, daryolar orqali turli xil zararli moddalar ning oqib kelishi, turli sanoat chiqindilarining dengizlarga tashlanishi natijasida ular tobora ifloslanib bormoqda. Oqibatda, dengiz o‘simplik va hayvonot dunyosiga katta zarar yetkazilmoqda, dengiz qirg‘oqlarining rekreatsion imkoniyatlari cheklanmoqda va aholining yashash sharoiti yomonlashmoqda.


Mahalliy geografik bashoratlar. Ma’lum bir muhandislik inshooti yoki inshootlar guruhining tabiiy muhitga ta’sirini oldindan asoslab berish mahalliy geografik bashorat deb ataladi. Tabiatga ta’sir etadigan muhandislik inshootlari sanoat korxonasi, suv ombori, shaxtalar, yo’llar, aerodromlar, shaharlar va boshqalar bo‘lishi mumkin.




Energetika: 2010-yilgacha bo'lgan davrda issiqxona gazlari emissiyasi bashorati




2010-yilgacha bo'lgan davrda issiqxona gazlari emissiyasi bashorati




Sanoat: 2010-yilgacha bo'lgan davrda issiqxona gazlari emissiyasi bashorati



2010-yilgacha bo'lgan davr metan emissiyasi bashorati



Uglerod qo'shoxsidi emissiyasi bashorati



2010-yilgacha bo'lgan davr uchun azot chala emissiyasi bashorati

27-rasm. Issiqxona gazlari emissiyasi bashorati: . . . — 1-variant; — 2-variant; — 3-variant

Mahalliy geografik bashoratlarni amalga oshirishda ko'proq o'xhatish va matematik hisoblash usullaridan foydalaniladi. Masalan, foydali qazilma koni ochiq usulda qazib olinadigan bo'lsa, hududda botiq hosil bo'ladi, tashlamalar vujudga keladi, yer osti suvlari sathi pasayadi, noxush jarayon (surilma, ko'chki, o'pirilma)lar rivojlanadi, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi ma'lum joylarda butunlay yo'qoladi, ma'lum bir joylarda esa katta o'zgarishlarga uchraydi.

Eslab qoling!

Umumsayyoraviy bashoratlarning maqsadi insoniyatning kelajakdagi hayoti va Yer sayyorasini saqlab qolish yo'llidagi muammolarni oldindan bashorat qilishdir.

Mintaqaviy bashorat deb hududiy jihatdan chegaralangan tabiiy komplekslarning kelajakdagi o'zgarishini oldindan asoslab berishga aytildi.

● Ma'lum bir muhandislik inshooti yoki inshootlar guruhining tabiiy muhitga ta'sirini oldindan asoslab berish **mahalliy geografik bashorat** deb ataladi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Bashoratlar qanday turlarga bo'linadi?
2. Umumsayyoraviy bashoratlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Mintaqaviy bashoratlar deb nimaga aytildi?
4. Mahalliy geografik bashoratlar qanday amalga oshiriladi?
5. Jamiat bilan tabiat o'rtaсидаги munosabatlar qaysi mintaqalarda o'ta keskinlashadi?

25-§. O'ZBEKISTON TABIAT KOMPLEKSLARINING O'ZGARISHINI BASHORATLASH

O'zbekistonda shakllangan tabiat komplekslari rivojlanishi va tuzilishining asosiy qonuniyatlarini, ularda vujudga keladigan tabiiy geografik jarayonlarni, inson faoliyati ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganish asosida kelajakdagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlarini bashorat qilish mumkin (*3-jadval*).

O'zbekistonda asosan tekislik, tog' oldi va tog' tabiat komplekslari tarqalganligi uchun bashoratlash ishlari ikki yo'nalishda olib borilishi lozim.

O'zbekiston yaylov tabiat komplekslarining inson faoliyati ta'sirida o'zgarishining bashorati

Tabiat kompleksi	Ta'sir etuvchi omillar					
	Mol boqish	Daraxt va butalarni qirqish	Texnik eroziya: avtomobil va boshq. mexanizm harakati	Ihotazorlarni vujudga keltirish, yaylovlar mahsuldarligi oshirish	Ehtimol qilinayotgan tabiiy jarayonlar	Bashorat qilinayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari
1	2	3	4	5	6	7
Plato va qoldiq balandliklarning bo'z-qo'ng'ir tuproqlarida shuvoq va sho'ra mavjud (1,6)		Kuchli	Betartib harakat kuchli	Hozirgacha amalga oshirilmagan	Avtomobil yo'llarida deflyatsiya kuchayadi, tuproq yo'qolib boradi	Ustyurtning markaziy qismida tuproq va o'simlik qo'shimcha 10...20% kamayishi mumkin
Botiqlardagi sho'rxoklar galofitlar, ba'zan sho'r bilan band (2,11)	Kuchsiz	Joylarda kuchli	Kamroq		Deflyatsiya, burg'ulash natijasida ko'p hajmda suv chiqariladi, ko'l, botqoq vujudga keladi	Butalar qirqlishi kuchayadi, yangi ko'l, ko'lmaq va botqoqliklar tarkib topadi
Qumli tekisliklarda psammofitlar tarqalgan	Borgan sari kuchayadi	Qirqish kamayishi mumkin, lekin uzoq yaylovlar. kuchayadi	Yangi ma'dan konlarini qidirish jarayonida kuchayadi	Sur'ati nihoyatda past	Aholi punktlari atrofida va burg'u-lash maydonida barxanlar maydoni kengayadi	Harakatdagi qumliklarning maydoni kengayadi, yaylovlarning mahsuldarligi kamayadi

3-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7
Deltalarining taqirli tuproqlarida va taqirlarda boyalichli qora saksovul mavjud (4,10)	Kuchsiz	Joylarda kuchli	Joylarda kuchayadi		Avtomobilarning betartib harakati deflyatsiyani kuchaytiradi	Tuproqning deflyatsiyaga berilishi kuchayadi, ularning maydoni 15—25% ga yetadi
Dengiz tekisliklardagi qum va sho'rxoklarda psammofitlar tarqalgan (5)			Kamroq	Amaliy ishlar boshlanmagan	Sho'rxoklar taqirli va qoldiq sho'rxoklarga evolyutsiya yo'li bilan o'tadi, deflyatsiya kuchayadi	Barxanli qumlarning maydoni kengayadi, sho'rxoklarning yuzasi sho'rsizlanadi, keyinchalik o'simlik bilan qoplanishi kuchayadi
Past tog'larda shuvoqzorlar bo'zqo'ng'ir tuproqlarni egallagan (7)	Kuchsiz		Kelajakda harakat kuchayadi		Texnogen jarayonlar kuchayishi bilan terrikon va karyerlarning soni ko'payadi	Texnogen landshaftlar va buzilgan yerlar maydonlari kengayadi
Tog' oldi prolyuvial tekisliklardagi bo'zqo'ng'ir tuproqlarda sho'rali shuvoqzorlar tarqalgan (8)	Kuchli		Ma'lum yo'llar bo'yicha kelajakda kuchayadi	Nihoyatda past	Burg'ulash va avtomobillar harakatining kelajakda kuchayishi deflyatsiya va eroziyani katta miqyosda tezlashtiradi	Relyefning o'ydin-chuqurligi oshadi, yaylovlar ishdan chiqadi

3-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7
Deltalarda o'tloq tuproqlarda qamish-zorlar, qoldiq sho'rxoklarda turli o'tli yulg'unzorlar, taqirlarda qora saksovul mavjud (9)	Kuchli	Kamayishi mumkin	Joylarda kuchayadi	Nihoyatda past	Amudaryo deltasida deflyatsiya, yaylovlar buzilishi, to'qayzorlar qurishi kuchayadi	Qum relyef shakllari vujudga keladi, yaylovlar mahsuldorligi pasayadi
Tog' oldi, adir va past tog'lardagi bo'z tuproqlarda turli o'tli dasht mavjud (13, 14)	Kuchli	Joylarda kuchli	Betartib harakat kuchli	Amalga oshirilmagan	Tuproqning deflyatsiya, eroziyaga berilishi va yaylovlarning degradatsiyasi tezkor	Relyef o'ydim-chuqurligi ortadi, yaylovlarning mahsuldorligi pasayadi
Past va o'rtacha balandlikdagi tog'larda turli o'tli bug'doyiqlar o'sadil (16, 17)	Kuchli	Kuchli	Tartibli	Nihoyatda past	Betartib mol boqish, qiya yerlarni haydash, daraxtlarni qirqish tabiiy jarayonlarning vujudga kelishini kuchaytiradi	Tuproqning yuvilishi, jar eroziyasi, surilma, sel kuchayadi
Baland tog'lar yonbag'irlaridagi och qo'ng'ir tuproqlarda kserofitlar shashir bilan almashib keladi (18)	Kuchsiz				Tabiiy jarayonlar harakatida insonning ta'siri kuchsiz	Tabiat komplekslari tabiiy holda rivojlanadi

O'zbekistonda tekislik tabiat komplekslaridan hozirgi paytda asosan chorvachlik va suq'orma dehvонchilik maqsadlarida foydalaniladi.

Cho'l yaylovlardan ham turlicha foydalaniladi. Qizilqum, Qarnob va Surxondaryo yaylovlardan yuqori darajada foydalanilsa, Ustyurt platosi, Qizilqumning shimoli g'arbi, Orol dengizining qurigan qismidagi yaylovlardan umuman foydalanilmaydi.

Ustyurt platosi hozirgi paytda, asosan, inson faoliyati ta'sirida o'zgarmoqda. Bu yerda geologik-qidiruv ishlari, yo'l qurilishi, gaz quvurlarining yotqizilishi, ayrim joylarda muhandislik inshootlarning qurilishi inson xo'jalik faoliyatining asosi hisoblanadi.

Kelajakda gaz va neft konlarining qidirilishi va ularning ishga tushirilishi, yo'llarning qurilishi, aholi manzilgohlarining barpo qilinishi munosabati bilan texnogen eroziya keng rivojlanishi mumkin.

Tog' oldi va tog' tabiat komplekslarida insonning mehnat faoliyati juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Tog' oldi tabiat komplekslari kuchli o'zgargan, adirlar va past tog'lar kamroq o'zgargan, o'rtacha va baland tog'lar tabiat komplekslari kuchsiz o'zgargan hisoblanadi (28-rasm).

Tog' oldi tekisliklarining tabiat komplekslari o'zgarishining bashoratini Mirzacho'l misolida ko'rib chiqamiz. Mirzacho'lning deyarli barcha yerlari o'zlashtirib bo'lingan. Mirzacho'l dagi tabiat komplekslarining kelajakdag'i o'zgarishini bashoratlashda yerosti suvlari sathi, ularning minerallashish darjasini hisobga olinmog'i lozim. Mirzacho'l yerlari dan doimiy yuqori hosil olish uchun yerosti suvlari sathining 2,5 m chuqurlikda va ularning minerallashish darjasini 3—5 g



28-rasm. Angren ko'mir konida ko'mir qazib olish.

miqdorida ushlab turish lozim. Shunda sho'rlanish jarayoni ro'y bermaydi. Buning uchun vertikal va gorizontal zovurlar yaxshi ishlashi, yerni yuvish ishlari vaqtida olib borilishi lozim. Aks holda yerosti suvlar sathining ko'tarilishi va ularning bug'lanishi natijasida yerlar sho'rlanib ketadi va ishdan chiqadi.

Tog'-kon sanoati rivojlangan hududlarda tabiat komplekslari ning o'zgarishini bashoratlashda quyidagilarga e'tibor beriladi: a) konning maydoni va loyihadagi chuqurligi; b) konni qazib olish usuli (yopiq yoki ochiq tarzda); d) kondan va qayta ishlovchi korxonalaridan chiqadigan chiqindilarning yillik miqdori va ular egalelaydigan maydon; e) konni qazib olish jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan noxush tabiiy geografik jarayonlar; f) konni qazib olish jarayonida tuproq, o'simlik, suv va hayvonot dunyosining o'zgarishi va h.k.

Bilasizmi?



Baobab — savannalardagi ajoyib daraxtdir. U dunyodagi bahaybat daraxtning ham eng ulkanidir. Ba'zan uni «o'simliklar dunyosining begemoti» deb atashadi. Tanasi silliq po'stloq bilan qoqlangan baobab daraxting bo'y 18—20 metr, tanasining aylanasi 45 metr keladi, diametri esa 10 metr dan ham ortishi mumkin.

Bu daraxt savannada ulkan posbondek qad ko'tarib turadi, qurg'oqchilik davri boshlanishi bilan barglari to'kilib, qing'ir-qiyishq shoxlari yalang'ochlanib qoladi. Maymunlar ko'pincha baobab tanasida yashaganligi uchun u maymun daraxti ham deyiladi. Baobab daraxti 5000 yilgacha yashaydi. Lekin ba'zi bir olimlar bu fikrga shubha bilan qaraydi. Darhaqiqat, bu daraxtning yoshini aniqlash juda qiyin, chunki baobab tanasida boshqa daraxtlardagi singari yillik halqlar bo'lmaydi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Ustyurt platosi tabiat komplekslari kelajakda qanday omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin?
2. Mirzacho'lda tabiat komplekslari o'zgarishining oldini olish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmoq lozim?
3. Siz yashab turgan joyda tabiiy muhit qanday omillar ta'sirida o'zgarmoqda?
4. Darslikdagagi 3-jadvaldan foydalananib, qanday hollarda yaylovlarining kuchli o'zgarishga uchrashini aniqlang.

VIII b o b

ATROF-MUHIT MONITORINGI



Aziz o‘quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: monitoring, bioekologik, geoekologik va biosfera monitoringi.

Inson omilining atrof-muhitga bo‘lgan ta’siri tobora kuchayib borayotganligini e’tiborga olib, maxsus kuzatish tizimini tashkil qilish zarurati paydo bo‘ldi. Mazkur kuzatish natijasida to‘plangan ma'lumotlar tabiiy muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarni baholash va tegishli xulosalar chiqarishga imkon beraði. Shuning uchun ham monitoring tizimini tashkil qilish bo‘yicha takliflar o‘rtaga qo‘yildi. Atrof-muhit holatining monitoringi masalasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1972-yilda Stokgolmda bo‘lib o‘tgan tabiiy muhit muhofazasiga bag‘ishlangan konferensiysi arafasida vujudga keldi. U «SKOPE» (atrof-muhit muammolari bo‘yicha ilmiy qo‘mita) tomonidan ishlab chiqilgan edi. Monitoring tushunchasining mazmuni, turlari hamda O‘zbekiston hududida atrof-muhit monitoringini amalga oshirish masalalari ushbu bo‘limda ochib beriladi.

26-§. MONITORING VA UNING TURLARI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnika inqilobi natijasida jamiyatning tabiatga ta’siri kuchayib ketdi. Oqibatda sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqsa boshladи. Bu esa atrof-muhit holatini doimiy kuzatib borish tizimini tashkil qilishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan fanda yangi, monitoring (lotincha «monitor» — esga soladigan, ogohlantiradigan) tushunchasi paydo bo‘ldi.

Monitoring — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma'lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimdir.

Monitoringning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishini kuzatish, olingen ma'lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv apparatini ishga solishdir.

Monitoring asosida atmosfera havosi, suv havzalari, yerosti suvlar, tuproq, o'simlik qoplamining turli chiqindilar, zaharli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Kuzatish ishlari insonning ma'lum ekologik sharoitda yashashining buzilishiga qaratiladi. Atrof-muhitning o'zgarish darajasi hali ifloslanmagan tabiiy sharoit holatiga nisbatan olinadi.

Akademik I.P. Gerasimov tomonidan monitoring tashkil qilishning **bioekologik**, **geoekologik** va **biosfera bosqichlari** ajratilgan.

Bioekologik monitoring bosqichi yoki pog'onasida atrof-muhitning ifloslanishi uning inson salomatligiga ta'siri nuqtayi nazaridan kuzatiladi. Mazkur pog'onada odamlarning kasallanishi, o'lim, tug'ilish, uzoq umr ko'rish va boshqa ma'lumotlardan foydalaniлади. Bu ma'lumotlar insonning atrof-muhit o'zgarishiga aks ta'siri hisoblanadi. Ushbu bosqichda monitoring kuzatish shoxobchalari va sanitariya-gigiyena xizmati ma'lumotlariga tayanib ish ko'rildi.

Bioekologik monitoring inson salomatligi uchun zararli bo'lgan chiqindi va moddalar bo'yicha kuzatishni tashkil qiladi.

Geoekologik (geotizimli) **monitoring** bosqichi yoki pog'onasida asosan tabiiy-hududiy, tabiiy-texnogen va demografik (aholi) geotizimlari kuzatiladi va nazorat qilinadi. Mazkur bosqich (pog'ona) uchun tabiatni ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdori va tabiiy komplekslarning (geotizimlarning) o'z-o'zini tozalash qobiliyati haqidagi ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Kuza-tishlar geografik statsionarlarda, maxsus zona yoki mintaqaviy poligonlarda olib boriladi.

Geotizimli monitoringni amalga oshirishda hududda havo, suv, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ifloslantiruvchi manbalar bo'yicha kuza-tish tashkil qilinadi. Bu borada geotizimning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinmog'i lozim. Cho'llarda kemiruvchilar turli xatarli kasalliklarni tarqatuvchi manba hisoblanadi. Buning oqibatida ma'lum vaqt mobaynida katta hududda yuqumli kasallik o'chog'i yuzaga keladi. Shuni hisobga olib, cho'l geotizimida muntazam ravishda monitoring ishlarini olib borish lozim bo'ladi.

Biosfera monitoringi bosqichining asosiy vazifasi atrof-muhitni dunyo miqyosida kuzatishdan iborat. Bunda atmosferaning changlanishiga, Dunyo okeanining ifloslanishiga va boshqa ko'r-satkichlarga ko'proq e'tibor beriladi. Kuzatishning asosiy maqsadi dunyo miqyosida bo'ladigan o'zgarishlarning aholi salomatligi va faoliyatiga ta'sirini baholashdir. Kuzatishlar biosfera poligonlari tizimida olib boriladi. Biosfera poligonlari tizimiga qo'riqxonalar va aholining xo'jalik faoliyati zonalari kiradi.

Atmosferani kuzatishda asosiy e'tibor chang miqdorining ortib ketishiga, «issiqxona samarasi»ning vujudga kelishiga, qutbiy mintaqalarda ozon qatlaming yupqalanishiga qaratiladi.

Eslab qoling!

! **Monitoring** deb, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ma'lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimiga aytildi.

Bilasizmi?



Ekologik siyosat. Atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish ishlab chiqarishning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi hamda aholi hayotiga jiddiy xavf soladi. Shu munosabat bilan tabiat muhofazzi bo'yicha turli xil harakatlar va tashkilotlar vujudga keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ko'pchiligidagi ekologik siyosat yurgizlasi boshladi. Tabiatni muhofaza qilish borasida qonunlar qabul qilindi, atrof-muhitni qo'riqlash bo'yicha davlat tashkilotlari tuzildi. Natijada XX asrning 80-yillardan boshlab jahoning ayrim mintaqalarida atrof-muhitning ifloslanish darajasi kamaya boshladi. Ammo jahondagi ko'pchilik davlatlarda ekologik sharoit hamon keskinligicha qolmoqda. Ekologik siyosatni olib borish va amalga oshirish uchun ayrim davlatlarning harakatlari yetarli emas. Buning uchun jahon hamjamiyatining birgalikdagi harakati zarur. BMT tarkibida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha maxsus komissiya faoliyat ko'rsatmoqda (YNEP). Bu ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston ollmlari ham faol ishtiroy etmoqdalar.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- ? 1. Monitoring tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. Monitoringning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Monitoringning qanday turlarini bilasiz?
4. Monitoringning qaysi bosqichida dunyo miqyosida atrof-muhit iflosnishi kuzatiladi?

27-Ş. O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT MONITORINGINI AMALGA OSHIRISH

O'zbekistonda qishloq va suv xo'jaligi, tog'-kon, kimyo, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlarining so'nggi 30—40 yil davomida tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida atrof-muhitda kuchli o'zgarishlar ro'y berdi, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqdi. Natijada atrof-muhit holatini muntazam kuzatish, nazorat qilish va boshqarishning yagona davlat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati tug'ildi.

Atrof-muhit monitoringi mamlakatimizdagi bir qancha muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Atmosfera havosi va suv havzalarining ifloslanishi O'zbekiston Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi tomonidan, yerosti suvlaring ifloslanishi, noxush tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishi O'zbekiston Geologiya vazirligiga qarashli «O'zbekgidrogeologiya» korxonasi tomonidan, tuproqlarning sho'rланishi va grunt suvlari me'yori, kollektor suvlari minerallashuv darajasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan, o'rmonlar holati O'rmon xo'jaligi qo'mitasi tomonidan, atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan masalalar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan kuzatib, nazorat qilib turiladi. Bu tashkilot va muassasalarining monitoring sohasidagi faoliyati Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan boshqariladi. Bu qo'mita atrof-muhit bo'yicha turli axborot va ma'lumotlarni yig'ib, yuzaga kelgan ekologik vaziyatni baholaydi. Noxush ahvol vujudga kelgan bo'lsa, tegishli tashkilotlarga xabar berish bilan birga uning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Atrof-muhit monitoringini kuzatish va nazorat qilish turli usularda olib boriladi: aerokosmik, avtomatik laboratoriylar, ko'chma laboratoriylar va h.k.

Aerokosmik usul bilan atmosfera havo massalarining yo'naliishi, havoning ifloslanishi, tog'lardagi muzliklar, qorliklar rejimi, tuproq va o'simlik qoplamlarining holati, ekinlarning o'sishi, ularning holati hamda hosildorligi kuzatib turiladi. O'zbekistonning ma'lum bir hududi aerokosmik usulda kuzatilayotganda olin-gan ma'lumotlar avtomatik ravishda tegishli tashkilotlarga uzatib turiladi.

Atmosfera havosi monitoringi O'zbekiston hududida asosiy gidrometeorologik stansiya va postlar (avtomatik ravishda ishlaydi-gan maxsus uychalar — Post-2)da amalga oshiriladi.

Atmosfera va suv tarkibidagi zararli, ifloslantiruvchi moddalar miqdori maxsus laboratoriyalarda kimyoviy usullar yordamida aniqlanadi.

Sanoat rivojlangan hududlarda maxsus kuzatish asosan stationar (doimiy), marshrutli va harakatdagi postlarda olib boriladi. Mazkur postlarda gazlarning miqdori avtomatik usulda aniqlanadi.

Suv havzalarining ifloslanishi ham muntazam ravishda kuzatib va nazorat qilib turiladi. Daryolar, kanal va kollektor suvlarning ifloslanish darajasi bir yo'la bir necha joylarida yuqoriqismida, sanoat markazlari va shaharlarga kirish joylarda, ichkarisida va chiqish joyida) aniqlanadi.

Yil davomida mamlakatimiz bo'yicha olib borilgan kuzatish va nazorat ma'lumotlari yig'ilib, o'rtacha oylik ko'rsatkichlar aniqlanadi. Tuproq, suv va o'simliklardagi turli zararli chiqindilar, asosan, sanoat korxonalari atrofida, pestitsidlar ekinzorlar va ular hududidagi suv havzalarida kuzatiladi va nazorat qilib turiladi.

Sug'oriladigan hududlarda tuproqning sho'rланishi bo'yicha kuzatish va nazorat amalga oshiriladi. Kuzatish va nazorat ma'lumotlari yilda ikki marta — 1-aprel va 1-oktabrda yig'iladi.

Yaylovlar asosan aerokosmik usulda kuzatiladi va nazorat qilib turiladi.

Eslab qoling!

! Atrof-muhit monitoringini kuzatish va nazorat qilish turli usuliarda olib boriladi: aerokosmik, avtomatik laboratoriylar, ko'chma laboratoriylar va h.k.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Atrof-muhit monitoringini amalga oshirishda qanday usullardan foy-dalaniladi?
2. O'zbekistonda monitoringni amalga oshirish qaysi tashkilot tomonidan boshqarilib turiladi?
3. Havo va suvning ifloslanishi qayerlarda kuzatilib, nazorat qilib turiladi?
4. O'zingiz yashab turgan joyda suv va havoni ifloslaydigan korxonalar ro'yxatini tuzing.
5. O'zbekistonda yer resurslarining ifloslanishi qaysi tashkilot tomonidan nazorat qilib turiladi?

IX b o b

GEOGRAFIK-EKOLOGIK EKSPERTIZA ASOSLARI



Aziz o‘quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: ekspertiza, ekspertiza muddatlari, ekspertiza xulosalarini.

XX asrning 60—70-yillaridan e’tiboran yirik xo‘jalik korxonalarini qurish va boshqa loyihali tadbirlar mutaxassislarning har tomonlama ko‘rigidan o‘tib, ularning ruxsati bilangina amalgalashirila boshlandi. Bu jarayon umumiyligi ma’noda ekspertiza deb ataladi. Mavzular bayonida ekspertiza tushunchasi, ularning turlari, ekspert xulosalarini chiqarish va O‘zbekiston hududida geografik-ekologik ekspertiza o‘tkazilishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganasiz.

28-§. EKSPERTIZA HAQIDA TUSHUNCHА

Ekspertiza deb yirik muhandislik inshootlarini qurish loyihalining mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilishiga aytildi.

«Ekspert» so‘zi lotin tilida «tajribali» degan ma’noni bildiradi. Ekspert — biror sohada ekspertiza o‘tkazuvchi mutaxassisdir. Masalan, qurilish, geologiya, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, atom energetikasi, mashinasozlik va h.k. sohalar bo‘yicha ekspertiza asosan loyihalanayotgan muhandislik inshootining atrof-muhitiga ta’sirini baholash yuzasidan o‘tkaziladi. Ekspertizalar **geografik** va **ekologik ekspertizaga** bo‘linadi.

Geografik ekspertiza deb loyihalanayotgan muhandislik inshootining atrof-muhit talablariga mos kelish-kelmasligini aniqlashga aytildi.

Ekologik ekspertiza deb inson faoliyatining geografik muhit biologik (o‘simlik, hayvonot dunyosi va mikroorganizmlar) qismiga ta’sirini baholashga aytildi.

Geografik va ekologik ekspertiza bir-biriga barcha jihatdan yaqin va bir-birini taqozo qilishini e'tiborga olib, geologik-ekologik ekspertiza deb ataladi.

Ekspertiza — ilmiy tekshirish, loyihalash boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar va ishlanmalarni o'rganish hamda ularni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlab, chuqur asoslangan xulosa berishdan iboratdir. Ekspertiza jarayonida muhandislik inshootining atrof-muhitga, aholi salomatligiga qanday ta'sir qilishi e'tiborga olinadi.

Ekspertiza turli darajalarda amalga oshiriladi. Davlat ekspertizasi, Vazirlik ekspertizasi, Davlat fan va texnika qo'mitasi ekspertizasi, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasi va boshqalar. Atrof-muhit bo'yicha ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Ushbu tashkilotda ekologik-geografik ekspertiza boshqarmasi mavjud.

Loyihalarning mazmuniga binoan mazkur yo'nalish bo'yicha yetakchi mutaxassislar u bilan tanishib chiqib, o'z mulohazalarini bildiradilar. Masalan, ma'lum bir foydali qazilma konini ishga tushirish loyihasi ekspertizasini geologlar, tog'-kon sanoati mutaxassislari, iqtisodchilar, ekologlar va boshqa mutaxassislar o'tkazishadi.

Ekspertiza bir necha usulda amalga oshiriladi: **shaxsiy ekspertiza usuli, jamoa ekspertiza usuli, ekspertlar komissiyasi usuli**.

Bitta ekspert xulosasiga asoslangan ma'lumotlar asosiy manba sifatida qabul qilinadigan ekspertiza — **shaxsiy ekspertiza usuli** deb ataladi.

Jamoa ekspertiza usuli jamoaga kiradigan ekspertlarning mustaqil xulosalari tahlili asosida umumlashgan ekspertiza xulosalarini ishlab chiqishga asoslangan.

Ekspertlar komissiyasi usuli tegishli ekspertiza guruhlari tomonidan ma'lum bir hudud yoki obyektning alohida jihatlari (qismalari) bo'yicha ishlab chiqilgan ekspertiza xulosalarining yagona ekspertiza xulosasiga birlashtirilishiga asoslanadi.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Ekspertiza tushunchasining ma'nosi nimadan iborat?
2. Geografik ekspertiza deganda nimani tushunasiz?
3. Ekologik ekspertiza deb nimaga aytildi?
4. Ekspertiza qanday usullarda olib boriladi?
5. Ekspertlar komissiyasi usuli nimaga asoslanadi?

29-§. EKSPERTIZA UCHUN ZARUR BO'LGAN MA'LUMOTLAR

Ekspertiza ma'lum bir ma'lumotlar jamlangan loyihamning tahlili natijasida amalga oshiriladi.

Ma'lum bir obyekt yoki muhandislik inshootining loyihasini o'tkazish uchun ekspertga yoki ekspertlar guruhiga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim.

1. Obyekt yoki muhandislik inshooti joylashgan hudud to'g'risidagi tabiiy geografik ma'lumotlar. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: obyekt yoki muhandislik inshooti hududining geografik joylashishi; hududning geologik tuzilishi, ya'ni mazkur joyda tarqalgan tog' jinslari; hudud yer yuzasining tuzilishi, asosiy relyef shakllarining joylashishi; yerosti suvlari, ularning sathi va sho'rлиgi; yer usti suvlari (daryo, ko'l, botqoq), ularning suv sarfi, me'yori, minerallashish darajasi, hududning iqlimi, hududda tarqalgan asosiy tuproq turlari, ularning sho'rланish darajasi; o'simlik qoplami va ularning turlari, hayvonot dunyosi, asosiy landshaft turlari.

2. Obyekt yoki muhandislik inshooti joylashgan hudud to'g'risida iqtisodiy geografik ma'lumotlar. Bu turdagagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: hududning iqtisodiy geografik joylashishi, ya'ni yirik transport yo'llariga yaqin yoki uzoqligi; hudud aholisining soni, joylashishi; hududning tabiiy resurslari va ulardan foydalanish darajasi; hududda joylashgan sanoat korxonalarini; hudud qishloq xo'jaligi, asosiy dehqonchilik ekinlari, yaylovlari, hudud transporti, hududning yoqilg'i va elektroenergiya hamda suv ta'minoti.

3. Hudud to'g'risidagi ekologik ma'lumotlar. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: hudud tabiiy muhitining ifloslanishiga ta'sir etadigan manbalar; tabiiy manbalar (shamol, surilma, zilzila, sel, suv toshqinlari va h.k.), sun'iy omillar (zavod, fabrika, kommunal xo'jalik korxonalarini, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan o'g'it, pestitsidlar va h.k.); atmosferaga chiqariladigan chiqindilar; suvning ifloslanish darajasi; tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi; aholi salomatligi, keng tarqalgan kasalliklar va ularning sabablari.

4. Obyekt yoki inshoot to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: obyekt yoki inshootning maydoni, balandligi, chuqurligi, qismlari, qurilish muddatlari, faoliyati, mahsuloti, xomashyosi. Masalan, obyekt foydali qazilma

koni bo‘ladigan bo‘lsa, quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi: foydali qazilma turi, zaxirasi, maydoni, chuqurligi, qazib olish usuli (ochiq yoki yopiq); chiqindilar hajmi va ular egallaydigan maydon, yordamchi inshootlarning joylashishi, shaxtaning yillik quvvati (mln t); shaxtaning ishlash muddati (50, 100 yil va h.k.).

Ushbu ma’lumotlar asosida ekspertlar tomonidan mazkur obyekt yoki inshootning qurilishi maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi aniqlanadi.

Bilimingizni sinab ko‘ring:



1. Ekspertiza uchun qanday ma’lumotlar taqdim etiladi?
2. Tabiiy geografik ma’lumotlar nimalarni o‘z ichiga oladi?
3. Ekspertizaga qanday iqtisodiy geografik ma’lumotlar taqdim etiladi?
4. Ekspertizaga taqdim etiladigan ekologik ma’lumotlar nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Obyekt yoki inshoot to‘g’risidagi ma’lumotlar nimalarni o‘z ichiga oladi?

30-§. EKSPERT XULOSASINING TAYYORLANISHI

Taqdim etilgan tabiiy geografik, iqtisodiy geografik, ekologik va muhandislik (inshoot yoki obyekt to‘g’risida) ma’lumotlarning tahlili asosida ekspert xulosasi tayyorlanadi.

Ekspert xulosasi quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi.

1. Loyiha amalga oshirilganidan so‘ng, ya’ni obyekt yoki korxona ishga tushirilganidan keyin uning faoliyati davomida tabiiy muhitda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga baho beriladi.

Agar foydali qazilma koni ishga tushiriladigan bo‘lsa, uning tabiatga ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda baholanishi mumkin: a) kon ochiq usulda qazib olinadigan bo‘lsa, uning chuqurligi va maydoni, ishdan chiqadigan qishloq xo‘jalik yerkari, aholi manzilohlari va ularni ko‘chirish masalalari, tuproq, o‘simlik qoplaming o‘zgarishi, ularni qayta tiklash muammosi; b) yerosti suvlari sathining pasayishi va uning atrofidagi landshaftlarning o‘zgarishga ta’siri, yerosti va yer ustini suvlarining ifloslanishi, ularga qarshi kurash choralarini, atmosferaning ifloslanishi, tabiiy va tabiiy-texnogen jarayonlarning rivojlanishi hamda ularning oldini olish choralarini

ishlab chiqish, kon to‘la qazib bo‘linganidan so‘ng undan foy-dalanish va buzilgan yerlarni qayta tiklash (rekultivatsiya) masalalari; d) aholi salomatligi va unga tabiiy muhit ifloslanishining ta’siri.

2. Tabiiy sharoit yoki tabiiy geografik jarayonlarning obyekt yoki inshoot faoliyatiga ta’siri.

Tabiiy sharoiti murakkab bo‘lgan baland tog‘larda foydali qazilmalar yopiq usulda qazib olinadi. Chunki bunday sharoitda konlarni ochiq usulda qazib olish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Konlarning maydoni aniq va to‘g‘ri o‘lchangan bo‘lmog‘i lozim. Bu maydon doirasida aholi manzilgohlari va yirik muhandislik inshootlarini qurish man etiladi. Masalan, Angren ko‘mir konida tabiiy sharoitni hisobga olmaslik natijasida Angren shahri ikki marta ko‘chirilgan. Hozirgi ko‘mir tarqalgan maydondan tashqarida yangi Angren shahri qurilgan.

3. Ekspertlar guruhiga jalb qilingan mutaxassislarning to‘liq xulosalari olingandan so‘ng, umumiy xulosalar ishlab chiqiladi. Qulay va mahsuldor yer, yaylov resurslari kamroq o‘zgarishini e’tiborga olib konni qazib olishning optimal usuli tanlanishi mumkin (yopiq, ochiq yoki maxsus usulda). Tabiatga bo‘ladigan ta’sirni kamaytirish maqsadida ekologik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, uni loyihaga kiritish tavsiya etiladi.

Ekspertlar guruhi olingan ma‘lumotlar asosida umumiy asoslangan xulosaga keladi. Ekspertiza natijasiga qarab, loyiha qaytarilishi ham mumkin, bu holda u qayta ishlashga yuboriladi yoki korxona qurilishiga umuman ruxsat berilmaydi.

Bilimingizni sinab ko‘ring:



1. Ekspertiza xulosasi qanday qismlardan iborat?
2. Ekspertiza xulosasi salbiy bo‘lgan holda qanday ishlar bajariladi?
3. Baland tog‘larda konlar qanday usulda qazib olinadi?
4. Umumiy xulosalar qachon ishlab chiqiladi?

31-§. O'ZBEKISTONDA GEOGRAFIK-EKOLOGIK EKSPERTIZA O'TKAZISH

Hozirgi kunga kelib dunyoda geografik-ekologik ekspertiza keng tarqalmoqda. Ayrim yirik muhandislik inshootlarining loyihalari hatto xalqaro ekspertlar guruhlari tomonidan ekspertizadan o'tkazilmoqda. Masalan, Xitoyning Yanszi daryosidagi eng yirik «Uch daryo» GESi ekspertizasi amerikalik mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan.

Dunyo bo'yicha juda ko'p inshootlarning tabiiy sharoitni hisobga olmasdan qurilishi natijasida bir qancha falokatlarning ro'y berishi, ayrim inshootlarning esa tabiatga kuchli salbiy ta'siri oqibatida qator ekologik muammolarning yuzaga kelishi loyihalarni geografik-ekologik ekspertizadan o'tkazishni shart qilib qo'ydi.

Shu maqsadda O'zbekistonda o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab yirik inshoot va obyektlarning loyihalari geografik-ekologik ekspertizadan o'tkazila boshlandi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda yangi sanoat korxonalarini ekologik talablarga mos holda joylashtirish, mavjud korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, atrof-muhitga chiqarayotgan chiqindilar masalasi atroflicha tahlil qilinib, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, gaz va changni tutib qoluvchi, ularni tozalovchi zamонавиј moslamalarni o'rnatishga katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda qurilayotgan yirik va o'rtacha korxonalar ekologik tartib-qoida, belgilangan me'yorlar asosida qurilish bilan birga ishlash jarayonida atrof-muhitga zararli chiqindilarni chiqarishi me'yorda bo'lishi kafolatlangan. Masalan, Asaka shahridagi yengil avtomobil zavodi, Qorovulbozordagi neftni qayta ishslash zavodi va boshqa korxonalar ekologik ekspertizadan chuqur va har tomonlama o'tkazilgan.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda har bir hududning tabiiy sharoiti e'tiborga olinishi zarur. Tog' etaklari, vodiylar va botiqlarda qurilishi mo'ljallangan inshootlarni loyihalashda hududning iqlim sharoiti, yerosti suvlari tartibi, yer usti suvlari xususiyatlari, tuproq, o'simlik qoplami, chorva mollari hamda aholi salomatligi ta'siri masalasi oldindan to'liq va atroflicha hal etilishi lozim bo'ladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish maqsadida juda ko'p SUV inshootlari qurilgan. XX asrning 80-yillarida qurilgan SUV inshootlari ekologik ekspertizadan o'tkazilgan emas.

Bu esa tabiatda noxush hodisalar yuzaga kelishiga, ijtimoiy-ekologik sharoitning yomonlashuviga olib keldi.

Masalan, Tuyamo'yin suv ombori qurib ishga tushirilishi bilan Xorazm vohasida yerlarning meliorativ holati o'zgara boshladi. Yerosti suvlarining sathi ko'tarilib, tuproqda tuz to'plana boshladi. Bunday ahvol suv omboridan vohaga suv sizib o'tishi natijasida yuzaga kelgan edi. Demak, to'g'on ostidan suvning chetga sizib o'tishi loyihada jiddiy hisob qilinmagan. Bunday jarayon Karkidon, Tolimarjon, Chimqo'rg'on, Uchqizil, Janubiy Surxon va boshqa suv omborlarida ham kuzatilgan.

O'tgan asrning 80-yillarida So'x daryosida So'x suv ombori qurilishi amalga oshirila boshlandi. Ammo ekspertiza natijasida So'x suv ombori qurilganidan so'ng atrofdagi hududda botqoqlanish jarayoni boshlanib, o'simliklarning vegetatsiya sharoiti o'zgarishi aniqlandi. Natijada suv ombori loyihasi o'zgartirilib, sel suvlari yig'iladigan selxonaga aylantirildi.

Bilasizmi?



Kattaqo'rg'on suv ombori — gidrotexnika inshooti, O'zbekistonda birinchi qurilgan suv ombori. Kattaqo'rg'on shahri yaqinida tabiiy chuqurlikda 1940—1951-yillar davomida qurilib, foydalanishga topshirildi.

Kattaqo'rg'on suv ombori Zarafshon vodiysisidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi. Kattaqo'rg'on suv omborining asosiy inshooti kompleksi suv chiqaruvchi to'g'on, suv keltiriladigan va suv oqlb ketadigan kanallardan iborat.

Suv yuzasi maydoni 79,5 kv.km, uzunligi 15 km, maksimal eni 10 km, o'rtacha eni 5,3 km, maksimal chuqurligi 25 m, o'rtacha chuqurligi 11,3 m.

Kattaqo'rg'on suv ombori suvi bilan Samarcand, Buxoro viloyatlaridan 94 ming ga yer sug'oriladi va 150 ming ga yerning suv ta'minoti yaxshilangan. Kattaqo'rg'on suv ombori suvi kanal bilan Qoradaryoga quyiladi. Suv omborida baliqchilik tez rivojlandi, yiliga o'rta hisobda 240—250 sentner baliq ovlaniadi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. O'zbekistonda geografik-ekologik ekspertiza qachondan boshlab amalga oshirila boshlangan?
2. Tuyamo'yin suv ombori qurilganidan so'ng Xorazm vohasida qanday noxush jarayonlar ro'y berdi?
3. So'x suv ombori nima sababdan qurilmaganini tushuntirib bering.
4. Sanoat korxonalarini qurishda tabiiy sharoitning qaysi xususiyatlari hisobga olinadi?

X b o b

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI



Aziz o'quvchilar! Ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: yirik ekologik muammolar, «issiqxona samarasi», ozon «tuynugi», Dunyo okeani sathining ko'tarilishi, cho'llashish, o'rmon, yer va suv resurslaridan foydalanish, hududiy ekologik muammolar.

Insonning mehnat faoliyati natijasida atrof-muhitga turli chiqindilar chiqariladi. Chiqindilar (qattiq, gazsimon va suyuq)ning bir qismi atmosferaga, boshqasi suvgaga, yerga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etib, vaqt mobaynida to'planib boradi. Ularning yillar davomida asta-sekin to'planib borishi turli muammolarni, ba'zan inson hayoti uchun o'ta xavfli muammolarni keltirib chiqarishi endilikda to'liq tasdiqlanmoqda. Quyida mazkur geoekologik muammolarning ba'zilari bilan tanishasiz.

32-§. YIRIK EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Ular quyidagilar: «issiqxona samarasi», ozon «tuynugi», cho'llashish.

«Issiqxona samarasi». Dunyo bo'yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mlrd tonnani tashkil qildi. Bu miqdor yil sayin orta boshladi. Bu esa Yerdagi o'rtacha harorat 1890-yildagi $14,5^{\circ}\text{C}$ dan 1980-yilda $15,2^{\circ}\text{C}$ ga, ya'ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko'rsatkich yil sayin ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa «issiqxona samarasi»ning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Olimlarning fik-

richa, «issiqxona samarası»ni vujudga keltiruvchi gazlarning hozirgi ortish sur'ati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2—0,5 darajaga ortib boradi. Bu esa turli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo bo'yicha havo haroratining 1—2 darajaga ko'tarilishi natijasida Yevrosiyoda tundra, o'rmon-tundra, tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dasht va dasht tabiat zonalarining shimalga siljishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Afrikada daryolarning suv oqimi ortadi.

Dunyo bo'yicha havo haroratining ortishi muzliklarning erishi va okean suvlarining issiqlik ta'sirida kengayishiga olib keladi. XX asr davomida olimlarning hisobi bo'yicha okean sathi 17,5 sm ga ko'tarilgan. Amerika olimlarining bashoratiga ko'ra 2100-yilga kelib Dunyo okeani sathi 1,4—2,2 m ga ko'tarilishi mumkin. Bu okean sohillarida joylashgan ko'pchilik davlatlarning suv ostida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Ozon «tuynugi». XX asrning 50-yillaridan boshlab, havoda freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdori ko'payganligi kuza tila boshlandi. Bu gazlar 25 km balandlikda joylashgan ozon qatlamenti yemira boshladи. Ma'lumki, ozon qatlami Quyoshdan kelayotgan zararli ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi. Ozon qatlaming yemirilishi natijasida ozon «tuynugi» hosil bo'ldi. Mazkur tuynukdan Yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri raki kasaliga chalinishlariga sabab bo'lishi aniqlangan.

1989-yil 81 mamlakat olimlari, mutaxassislari hamda davlat arboblari qabul qilgan «Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi»da 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni kamaytirib borish tadbirlari belgilab berildi. Natijada so'nggi yillarda ozon «tuynugi»ning maydoni qisqarib bormoqda.

Cho'llashish. Hozirgi paytda cho'llashish jarayoni, ya'ni hosildor yerlarning, yaylovlarning cho'lga aylanishi tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'lmoqda. Tabiiy omillarga asosan qurg'oqchilik kiradi. Masalan, 1968—1974-yillarda Sahroi Kabirning sohil mintaqasida falokatli qurg'oqchilik oqibatida Chad ko'li maydonining 60 foizdan ortig'i, Neger, Senegal daryolari qurib qoldi, namlik yetishmasligi natijasida yaylovlarning mahsulorligi keskin kamaydi, cho'l 100—150 km ga savannaga bostirib kirdi.

Insonning yerdan noto‘g‘ri foydalanishi natijasida katta-katta maydonlarda hosildor yerlar cho‘lga aylanmoqda.

Hozirgi paytda inson faoliyati ta’sirida 9 mln kv.km maydon-da cho‘l hosil bo‘lgan. Har yili taxminan 21 mln ga yer to‘liq buzilib, cho‘lga aylanmoqda. Har yili sug‘orilayotgan yerlarning 6 mln ga maydoni cho‘lga aylanadi.

Hozirgi paytga cho‘llashishning oldini olish bo‘yicha mun-tazam ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Keniya davlatining poytaxti Nayrobida cho‘llashishga qarshi kurashni muvofiqlash-tiruvchi tashkilot faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Bilimingizni sinab ko‘ring:



1. Yirik ekologik muammolarga nimalar kiradi?
2. «Issiqxona samarası» qanday hosil bo‘ladl va uning oqibatlari nimalar-dan iborat?
3. Ozon «tuynugi» qanday gazlar ta’sirida vujudga keladi?
4. Cho‘llashish jarayoni qanday omillar natijasida sodir bo‘ladi?
5. O‘zingiz yashab turgan joyda yerlar qanday omillar ta’sirida buzilishini va ishdan chiqishini aniqlab, daftaringizga yozing.
6. Cho‘llashishning oqibatlari haqida so‘zlab bering.

33-§. HUDDIY EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Sanoat va qishloq xo‘jaligi yuqori darajada rivojlangan hudud-larda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning keskinlashuvi oqibatida mintaqaviy ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Bu ekologik muammolar tabiiy muhitni keskin o‘zgartirib, aholi salo-matligiga ta’sir etmoqda.

Hozirgi paytda hududiy ekologik muammolar O‘rta, Qora, Azov, Boltiq, Shimoliy, Karib dengizlari havzasi, Fors qo‘ltig‘i, Kaspiy va Orol dengizlari, Baykal, Balxash, Ladoga, Onega, Chad, Buyuk ko‘llar va boshqa hududlarda mavjud.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda vujudga kelgan hududiy ekologik muammo — bu Orol dengizi muammosidir. 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga har yili o‘rtacha 52 kub m mutlaq ba-landlikda, akvatoriysi 66 ming kv.km, suvning o‘rtacha sho‘rlan-ganlik darajasi 9,5—10 foiz (9,5—10 g/l) bo‘lib, o‘rtacha chuqurli-gi 16 m ni tashkil qilgan.

O'rta Osiyo va Janubiy Qozog'istondagi qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, qator yirik suv omborlarining bunyod etilishi, kanallar, kollektor-zovurlar tizimlarini qurib, ishga tushirilishi natijasida 1961-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga tushadigan suvlar miqdori kamaya boshladidi. Buning oqibatida Orol dengizining sathi pasayib, maydoni qisqara boshladidi, suvning sho'rlanganlik darajasi esa orta boshladidi (*4—5-jadval-lar*).

4-jadval

**Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo orqali quyilgan suv miqdorining
1926—1996-yillar mobaynida o'zgarib borishi, km³**

Tavsif	Yillar					
	1926— 1940	1941— 1950	1951— 1960	1961— 1970	1971— 1985	1986— 1996
Suv resurslari	103,7	113,8	119,9	116,2	109,6	98,6
Suv oqimi sarfi	43,8	50,5	56,9	70,8	92,2	—
Daryo deltalarida yetib kelgan suv	59,9	63,2	63,0	45,4	17,4	14,6
Daryo deltalarida sarflangan suv	6,1	8,0	7,8	3,9	2,4	2,0
Dengizga quyilgan suv	53,8	55,2	55,2	41,5	15,0	12,6

5-jadval

**Orol dengizi rejimining o'zgarishi
(A.Y.Asarin ma'lumotlari bo'yicha)**

Tavsif	Yil boshiga tegishli bo'lgan ma'lumotlar							
	1965	1970	1975	1980	1985	1989	1999	2003
Sathi m	52,5	51,5	49,4	46,3	42,2	38,6	35,0	30
Hajmi, km ³	1040	975	845	675	470	329	231,3	155
Maydoni, ming km ²	64,4	61,2	57,4	52,1	45,0	36,5	28,0	20

Orol dengizi sathi 1960—1970-yillari 21 sm, 1971—1980-yillarda 68 sm, 1981—1985-yillarda 80 sm ni tashkil qildi.

Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryodan 1941—1960-yillari 55,2 kub km; 1961—1970-yillari 41,5; 1971—1985-yillari 15,0; 1986—1996-yillari 12,6 kub km suv kelgan.

Hozirgi paytda Orol dengizining qurib qolgan qismi maydoni 3 mln ga ni tashkil qiladi. Dengizning qurigan qismi yalang te-kislikdan iborat bo‘lganligi uchun yerosti suvlarining gorizontal harakati qiyin, shuning uchun ularning asosiy qismi bug‘lanib, tuproqda tuz miqdorining ortib ketishiga olib keldi.

Amudaryo va Sirdaryo quyi qismiga oqib kelayotgan suvning kamayishi oqibatida bu yerdagi botqoq va to‘qaylar maydoni qisqarib, cho‘llashish jarayoni rivojlandi.

Hozirgi vaqtida Orol dengizi muammosi yechimi ikki narsaga — dengiz sathini ma’lum darajada ushlab turishga va Orolbo‘yi ekologik sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Orol dengizi sathini ma’lum bir balandlikda, ya’ni 33 m mutlaq balandlikda ushlab turish uchun Orolga har yili Amudaryo va Sirdaryodan 20 kub km suv tushib turishi lozim.

Orolbo‘yi hududida ekologik sharoitni yaxshilashning asosiy yo‘li aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash, qurib qolgan o‘zanlar, ko‘llarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to‘sish uchun qumlarni o‘simliklar bilan mustahkamlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlar, pichanzorlar maydonini kengaytirishdan iborat.

Biiimingizni sinab ko‘ring:



1. Orol dengizi qurishining asosiy sababi nima?
2. Orol dengizini saqlab qolish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?
3. Orolbo‘yi hududi ekologik sharoitini yaxshilash uchun nimalar qilish lozim?
4. Orol muammosini yechish bo‘yicha o‘z fikrlaringizni daftaringizga yozing.

XI b o b

ISHLAB CHIQARISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI



Aziz o‘quvchilar! Sizlar ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: ishlab chiqarish jarayoni, ish kuchi, mehnat, kapital, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, korxona, texnik loyiha, tabiiy va inson resurslari.

Inson har doim uchta vazifani bajarib kelgan. Uning aholini tabiiy takror ko‘payishida bevosita ishtirok etuvchi, ishlab chiqaruvchi hamda o‘zi ishlab chiqargan oziq-ovqatlar va kiyim-kechaklarning asosiy iste’molchisi sifatida namoyon bo‘lishi sizlarga oldingi sinflarda o‘tilgan darslardan ma’lum. Inson bajaradigan vazifalar qatorida uning ishlab chiqarish subyekti ekanligi eng muhim belgilaridan biridir.

Inson ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etar ekan, doimo mehnat qurollarini, texnik vositalarni takomillashtirishga, sarfxarajatlarni esa qisqartirishga intilib kelgan. XIX asrdagi sanoat inqilobi va XX asrdagi fan-texnika inqiloblari texnika-texnologiya bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarning yana ham samarali bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Sizlar bu bo‘limda ishlab chiqarish jarayoni tushunchasi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari, sanoat korxonasini joylashtirish va boshqarishni geografik tadqiq etish to‘g‘risida ma’lumotlar olasiz. Undan tashqari, texnik loyihalarni asoslashda geografik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish, soha kompleks dasturlarini amalga oshirishda geografiyaning ahamiyati, kompleks mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda geografiyaning o‘rni, tabiiy va inson resurslari hamda ularni iqtisodiy-geografik asoslash bo‘yicha ham zaruriy hajmda ma’lumotlar taqdim etiladi.

34-§. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI HAQIDA TUSHUNCHА

Jamiyat va odamlar ehtiyojini qondirish uchun moddiy ne'matlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish **ishlab chiqarish jarayoni** deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi. Iqtisodiy resurslarga yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik kiradi. Bu resurslar ishlab chiqarish omillari deb ham ataladi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi unda qo'llaniladigan omillarning soni va sifatiga bog'liq. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

Inson omili. Bunga moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish uchun maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlar kiradi.

Moddiy omil. Tabiiy (yer) va inson tomonidan yaratilgan (mashinalar, texnika, inshootlar) mehnat vositalaridan iborat.

Mehnat qurollari. Mazkur omilga qayta ishlanmaydigan, ishlab chiqarishda bevosita foydalilanidigan tabiiy moddalar kiradi (masalan, shaxtadagi ko'mir, ruda va h.k.).

Yer omili. Bu tabiiy omil bo'lib, unga tabiiy boyliklar, foydali qazilmalar, haydaladigan yerlar, bog'lar, o'rmonlar va h.k. kiradi.

Kapital omili. Bu tovar ishlab chiqarishda va xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan ne'matlar majmuasidan iborat. Kapital juda ko'p qirralarga ega. U ma'lum miqdordagi pul, inson qobiliyati, malaka va ma'lumot bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik omili. Bu omil ikki qismdan iborat: 1. *Tadbirkorlik faoliyati*, bunda tashabbus, topqirlik, tavakkalchilikdan foydalanish ko'zda tutiladi. 2. *Tadbirkorlik qobiliyati* inson kapitalining muhim turi bo'lib, u ne'matlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish uchun boshqa omillarni muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Moddiy omillar inson omili bilan birikkan taqdirdagina ishlab chiqarish sodir bo'ladi, hayotiy ne'matlar yaratiladi. Ular, birinchidan, moddiy mahsulotlardan, ikkinchidan, turli xizmatlardan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning mazkur omillari nuqtayi nazaridan fikr yuritganda O'zbekiston respublikasining imkoniyati juda yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki O'zbekiston Respublikasi aholisining 69 foizi yoshlardan iborat bo'lib, ular salohiyatli mehnat resurslarini, ishchi kuchini tashkil etadi. Bundan tashqari, mammalakat aholisining savodxonlik darajasiga ko'ra rivojlangan mammalakatlar bilan raqobatlasha oladi. Bu ishlab chiqarishning ko'p (aqliy va jismoniy) mehnat talab etuvchi tarmoqlarini rivojlantirish

imkoniyatlari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Ayni paytda O‘zbekiston hududi (447,4 ming kv.km)da mashhur Mendeleyev davriy jadvalining barcha elementlari topilgan. Demak, mamlakatda ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirish uchun asos bor.

Ishlab chiqarish o‘zining maqsad-mohiyatiga ko‘ra ikki qismga ajratiladi:

1. Moddiy ishlab chiqarish — moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatish. Masalan, yuk tashish, yo‘l xizmati ko‘rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokazolar. Mazkur sohaga sanoat, transport, aloqa, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi.

2. Nomoddiy ishlab chiqarish — moddiy shaklga ega bo‘lmaysada, aholi uchun zarur xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur sohaga jismoniy tarbiya, sport, bilim berish, madaniy-maishiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish kabilalar kiradi.

Eslab qoling!

Ishlab chiqarish jarayoni deb jamiyat va odamlar ehtiyojini qondirish uchun moddiy ne’matlar yaratish va xizmatlar ko‘rsatishga aytildi.

Moddiy ishlab chiqarish — moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish. Masalan, yuk tashish, yo‘l xizmati ko‘rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokazolar. Moddiy ishlab chiqarish birlamchi bo‘lib, unga asosan nomoddiy soha rivojlanadi.

Nomoddiy ishlab chiqarish — moddiy shaklga ega bo‘lmagan, lekin aholi uchun zarur xizmatlar. Mazkur sohaga jismoniy tarbiya, sport, bilim berish, madaniy-maishiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish kabilalar kiradi.


Bilimingizni sinab ko‘ring:

1. Ishlab chiqarish jarayoni qachon vujudga keladi?
2. Ishlab chiqarish omillari tarkibani nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarish o‘zining maqsad-mohiyatiga ko‘ra qanday qismlarga ajratiladi? Ularni ta’riflab bering.
4. Mehnat qurollariga nimalar kiradi?
5. Tadbirkorlik omili deganda nimani tushunasiz?
6. Moddiy omillar qanday qismlardan iborat?
7. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari ro‘yxatini tuzing.

35-§. ISHLAB CHIQARISHNI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI

Ishlab chiqarishni (moddiy va nomoddiy) hududiy jihatdan tashkil etishda, joylashtirishda, albatta hudud shart-sharoitlari va omillari hisobga olinadi. Bu omillarni to'g'ri tanlay bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimning rivojlanish qonuniyatlarini asoslashga imkon beradi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda geografik o'rinni, ekologik omili, bozor iqtisodiyoti omillari bilan bir qatorda tabiiy (xomashyo, yoqilg'i, suv, iqlim), ijtimoiy (mehnat resurslari, iste'molchi) va iqtisodiy (elektroenergiya, transport) omillar e'tiborga olinadi (*29-rasm*).



29-rasm. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

Muayyan bir ishlab chiqarish tarmog'ini hududiy tashkil etisha barcha omillar emas, balki ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda qaysi bir omil yetakchi ekanligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalani-ladi:

$$K = \frac{O}{M},$$

bu yerda K — ishlab chiqarish koeffitsienti; O — mazkur korxona yoki umuman ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishga ta'sir etuvchi omil; M — mahsulot birligi.

Ushbu formula yordamida ma'lum bir mahsulot birligini hosil qiluvchi barcha omillar alohida-alohida hisoblab chiqiladi (masalan, bir tonna shakar olish uchun qancha xomashyo, ya'ni qancha qand lavlagi ishlataladi, qancha elektroenergiya yoki mehnat sarflanadi). Qaysi omil bo'yicha yirik son chiqsa, odatda uning ahamiyati shuncha yuqori bo'ladi va u mazkur ishlab chiqarish tarmog'ini joylashtirishda belgilovchi, aniqlovchi vazifasini o'taydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, ma'lum tarmoqqa kiruvchi barcha korxonalar yoki kichik «tarmoqchalar» uchun bittagina omil tegishli bo'lmaydi. Jumladan, mashinasozlik tarmog'iga kiruvchi ba'zi bir korxonalarini joylashtirishda xomashyo (metall) ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, boshqasi uchun malakali ishchi kuchi muhim omil hisoblanadi. Endi yuqorida ko'rsatilgan asosiy omillarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Xomashyo. Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida xomashyo resurslari muhim omil hisoblanadi. Ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarishda esa xomashyo boshqa omillarga qaraganda ko'proq talab etiladi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning ba'zi tarmoqlari, masalan, tog'-kon, o'rmon, baliqchilik sanoati tarmoqlarining joylashuvi xomashyo bo'limgan rayonlarda rivojlanmaydi. Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydali qazilmalar yoki tabiiy boyliklar ko'lami bilan belgilanadi.

Boshqa sanoat tarmoqlarining hududiy hashkil etilishi esa biroz murakkabroq ko'rinishga ega. Masalan, bir tonna paxta tolasi olish uchun taxminan 3 tonna paxta, bir tonna paxta yog'i uchun 5 tonna chigit, 1 tonna pista yog'i uchun 3 tonna kungaboqar, 1 tonna shakar uchun 7 tonna qand lavlagi ishlataladi.

Yoqilg'i. Ko'mir havzalari qora metallurgiya sanoatining dastlabki bosqichi (cho'yan eritish)ni loyihalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ammo uning ta'siri har doim ham yetakchi kuchga ega emas.

Qora metallurgiya (cho‘yan erituvchi) zavodlarini joylashtirish qonuniyatları bir xil emas. Ma’lumki, qazib olinadigan temir rudasining taxminan 48—50 foizi foydali, bu «o‘rtacha» raqam hamma joyda ham bir xil emas, ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17—19 foizni tashkil etadi. Bunday konlarga Uraldagi Kochkonar yoki Qoraqalpog‘istondagi Tebinbulq konlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu yerlardan qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo‘lmaydi, zero unda kerakli mineraldan ko‘ra foydasiz jinslar ko‘proq. Shuning uchun bu ruda dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning hissasi oshirilishi lozim. Boyitilganidan so‘ng ruda tarkibidagi temirning (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, chunki ularning rudalar tarkibidagi ulushi ancha past) miqdori bir necha barobar ortadi.

Ammo bu bilan ham uning hissasi yetaricha bo‘lmaydi. Shuning uchun metallurgiya korxonalari ko‘proq xomashyo rayoniga yaqinroq joylashtiriladi. Ba’zi metallurgiya zavodlari xomashyo va yoqilg‘i rayonlari o‘rtasida joylashgan, zero mazkur sanoat tarmog‘i uchun bu ikki omilning ahamiyati deyarli bir xil. Bunga yorqin misol bo‘lib Cherepoves metallurgiya kombinatini (Rossiya Federatsiyasi) ko‘rsatish mumkin. U Pechora kokslanuvchi ko‘mir havzası bilan Kola yarimoroli temir rудаси konlarining o‘rtasida qurilgan.

Elektroenergiya (elektr quvvati). Hozirgi zamon ishlab chiqarishini, hatto transportni, qishloq xo‘jaligini elektr quvvatisiz tasavvur qilish qiyin. Bu sohaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya’ni elektr quvvatini jamg‘arib omborxonalarga yig‘ib bo‘lmaydi, undan ayni paytning o‘zida foydalanish kerak.

Odatda elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon turiga ahamiyat beriladi. Arzon elektr quvvati GEslardan olinadi, issiqlik elektr stansiyalari esa ko‘mir, mazut yoki gaz sarflanadi.

Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: 1 tonna titan ishlab chiqarish uchun (titan po‘latdan bir necha marta yengil va chidamli) 40—50 ming kVt/soat, aluminiy uchun 17—19 ming kVt/soat, misni tozalash, temir qotishmalarini ishlab chiqarish, elektr pechlarida po‘lat eritish uchun ularning har bir tonnasiga 8—10 ming kVt/soat atrofida elektr quvvati sarflanadi.

Tabiiyki, bunday korxonalarini arzon elektr quvvati manbalariga yaqin joylashtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Tursunzoda (Regar) shahridagi aluminiy zavodi Norak GESiga yaqin joyda qurilgan. Demak, elektr quvvati bir qator sanoat korxonalarini o'z atrofiga omil sifatida «yig'ar» ekan. Shu sababli, u yirik rayon va majmua hosil qilish quvvatiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tolimarjondagi bir qator nasos stansiyalari vositalasi bilan sug'oriladi. Elektr quvvati Norak — Tursunzoda (Regar) — G'uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o'zida juda yirik, mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tolimarjon GRESi qurilmoqda.

Suv va iqlim sharoiti ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari, ayniqsa, kimyo, yog'och-selluloza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan, cho'yan erituvchi pechlarni sovitish uchun ham suv kerak.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Qishloq xo'jaligi uchun bu omilning ahamiyati katta. Chunonchi, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda an'anaviy dehqonchilik uning issiq va quruq iqlimi sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

Aholi va mehnat resurslari. Albatta, har bir ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo'lmaydi. Bu o'rinda ikki holni qayd etish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatdan ko'p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva ishlab chiqarish, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarda mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, ularga «oz va soz» malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxona va tarmoqlar (radio va asbobsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o'xshash) malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda, ilmiy-texnik markazlarga joylashtiriladi.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo iste'molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda, xalqning yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda.

Ijtimoiy qiyinchiliklarga barham berish aholiga kerak bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni yetarli miqdorda ishlab chiqarishni taqozo etadi. Shu sababli, iste’mol omili oziq-ovqat korxonalarini o‘ziga «tortadi», ya’ni bunday zavod va fabrikalar bevosita aholi yashovchi maskanlarga joylashtiriladi. Iste’mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarни iste’mol rayonlarida qurilishini nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi o‘sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerda rivojlanishi zarur.

Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa, bu yerda shunga mos mashinasozlik tarmog‘i yaxshi rivojlangan bo‘lishi qonuniy bir holdir. O‘zbekistonda paxta teruvchi, Belarusda kartoshka teruvchi, Ukrainada qand lavlagi teruvchi, Gruziyada choy teruvchi mashinalarni ishlab chiqarish bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, boshqa sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Transport omili. Bu omil juda muhim bo‘lib, u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog‘i hisoblanadi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan birga qo‘silib, uyg‘unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy-geografik o‘rin omili bilan ham chambarchas bog‘liq, zero bu o‘rin obyektning eng avvalo tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Fan-texnika taraqqiyoti omili. Bu omilning ta’siri bir qator tarmoqlarning hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko‘rinadi (mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo). Shubhasiz, mazkur sanoat tarmoqlariga tegishli ko‘pgina korxonalar, ayniqsa, mashinasozlik zavodlari yuksak darajada ilmiy-texnika qudratiga ega bo‘lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi.

Ekologik omil. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalarining faoliyati shu nuqtayi nazardan to‘xtatilgani beziz emas. Ekologik jihatdan ko‘plab sanoat tarmoqlari va eng avvalo, kimyo, yog‘och-selluloza, go‘sht, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostan-siyalari va shunga o‘xshash korxonalar «nomaqbtl» hisoblanadi. Binobarin, ular aholi istiqomat qiladigan markazlardan uzoqda joylashishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti omili. Bozor iqtisodiyoti — murakkab tushuncha bo'lib, bosqichma-bosqich o'tiladigan iqtisodiy munosabatdir. Yevropa davlatlari bu borada boy tajribaga ega, chunki ularda bu munosabat uzoq yillar davomida shakllanib kelgan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga birdaniga o'tib bo'lmaydi, buning uchun avvalo barcha shart-sharoitni yaratish kerak, ya'ni uning o'ziga xos moddiy, maishiy va madaniy infrastrukturasi bo'lmosg'i lozim. Shuning uchun bunday munosabatlarga o'tish tarixan birmuncha uzoq davrni talab etadi va bosqichma-bosqich, ya'ni evolutsion rivojlanishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti — ishlab chiqarish erkinligi, xarid erkinligi va raqobat demakdir.

Bunday sharoitda ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va sog'lom raqobat muhitni vujudga keltirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etish nuqtayi nazaridan tahlil qilar ekanmiz, unda bu boradagi ilgarigi an'anaviy fikr yuritishimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda nimaga ixtisoslashuvini va qayerga joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa o'zining regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Eslab qoling!

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xomashyo, yoqilg'i, elektr-energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rin kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham ortib boradi.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillarini ta'riflang.
2. Ishlab chiqarishni joylashtirish omillarini guruhlashtirishning mohiyati nimadan iborat?
3. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda omillar ahamiyatini aniqlovchi formula yordamida biron tarmoqqa mansub korxonani joyiashtirishni tahlil eting.
4. Bozor iqtisodiyoti omili deganda nimani tushunasiz?

36-§. SANOAT KORXONASINI JOYLASHTIRISH VA BOSHQARISHNI GEOGRAFIK TADQIQ ETISH

Sanoat korxonalarini muayyan bir hududda joylashtirish juda murakkab masalalardan biridir. Bu borada ko'plab tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish lozim. Avvalo, sanoat korxonasini qanday xomashyo asosida ishlab, qanday tayyor mahsulot chiqarishi aniqlanadi. Atmosfera havosi va suv havzalariga qanday chiqindilarni chiqarishi, bu chiqindilarning kimyoviy tarkibi, zarar yetkazish darajasi e'tiborga olinadi. Korxonaga tegishli bu masalalar jiddiy tahlil qilinganidan so'ng uni joylashtirish uchun hudud tanlanadi. Tanlangan hudud korxonani joylashtirish va uning muttazam faoliyat ko'rsatishi uchun har jihatdan qulay bo'lishi lozim.

Dastlab korxona joylashtiriladigan hududning relyefi, uni tashkil qilgan yotqiziqlar tarkibi, yerosti suvlari me'yori, iqlimi (ayniqsa, shamol yo'nalishi), yer usti suvlari xususiyatlari, tuproq va o'simlik qomlamalari, aholi yashash joylari o'rganiladi. Korxona zararli chiqindilarni ko'plab chiqaradigan bo'lsa (ko'mir asosida ishlaydigan GRES, qora va rangli metallurgiya korxonalari), ularni aholi yashaydigan manzilgohlardan uzoqda, shamol yo'nalishiga teskari bo'lgan hududlarda joylashtirish lozim. Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor neftni qayta ishlaydigan, Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy gazni qayta ishlaydigan Muborak va Sho'rtan kimyo sanoati majmualari aholi manzilgohlardan ancha uzoqda, cho'lda joylashganligi sababli ulardan tabiat va inson ko'radigan zarar juda oz miqdorda.

Aholi zich yashaydigan vohalarda sanoat korxonalarini joylashtirish juda murakkabdir. Oltiariq va Farg'ona neftni qayta ishlash korxonalari qurilishida hududning ba'zi xususiyatlari e'tiborga olinmaganligi tufayli keyingi vaqtlarda jiddiy ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Chunonchi, Oltiariqdagi korxonadan neft mahsulotlarining singib o'tishi tufayli yerosti suvlari ifloslanmoqda, tuproq tarkibi buzilmoqda. Quvasoydagagi sement ishlab chiqaradigan korxona atrof-muhitni ko'pdan beri chang bilan ifloslab kelmoqda, chunki u baland tog' yonbag'irlari bilan o'ralgan botiqda joylashgan.

Paxta tozalash korxonalari ham asosan vohalarda joylashgan. Ulardan atrof-muhit ancha zarar ko'radi, ko'p miqdorda chang ajralib chiqishi sababli havo ifloslanadi. Binobarin, sanoat korxonalarini joylashtirishda, albatta, mahalliy tabiiy sharoit va aholi manzilgohlарining joylashuv xususiyatlari hisobga olinib, qurilish geografik tadqiqotlar orqali amalga oshirilishi kerak.

Geografiya bu boradagi tadqiqot ishlarini olib borishda dala izlanishlari natijalariga, statistik ma'lumotlarga tayanadilar. Bunda ular kartografik, qiyosiy, statistik, matematik va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanadilar. Bu usullar nafaqat yirik hududiy birliklarni o'rganishda, balki kichik bir ishlab chiqarish korxonasini iqtisodiy-geografik baholashda ham qo'l keladi.

Bunda eng muhim korxona qurish uchun aynan shu hudud tanlanganlining sababini aniqlash va uning iqtisodiy-geografik o'rnnini baholash, iqtisodiy rayon majmuasi, xo'jalik tarmog'i nuqtayi nazaridan iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan iboratdir.

Bundan tashqari korxonani iqtisodiy-geografik tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

- korxonaning hududiy tarkibi, ya'ni uning alohida bo'limlari (sexlari)ning, zavod transport tugunining joylashishi;
- korxonaning iqtisodiy aloqalari (mahsulot va qiymat birligida), qancha mahsulot ishlab chiqariladi, qanday xomashyo va yoqilg'i qancha miqdorda qabul qilinadi;
- asosiy mahsulot turlarining tannarxi (bunda xizmatchilarga to'lanadigan ish haqi, o'zlashtirish va tabiiy muhitni muhofaza qilishga to'lanadigan mablag', shuningdek, transport xarajatlari alohida ko'rsatiladi) va korxonaning foydasi (yoki zarari) aniqlanadi;
- xizmatchilarning soni, ularning doimiyligi, almashinuvi va qayerdan ishga qatnashi;
- korxonaning atrof-muhitga ta'siri.

Korxonani tadqiq etishda korxona ishchilari bilan suhbatlashish, korxonaning tarixi bilan tanishish muhim ahamiyat kasb etadi.



Eslab qoling!

Dastlab korxona joylashtiriladigan hududning umumiy tabiiy-geografik sharoiti aniqlanadi va baholanadi. Korxonaning iqtisodiy-geografik tahlilida iqtisodiy ko'rsatkichlardan hamda xaritalardan foydalaniladi.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Sanoat korxonasini joylashtirishda qanday tabiiy omillar hisobga olinadi?
2. Sanoat korxonasini joylashtirishda qanday ekologik omillar hisobga olinadi?
3. Iqtisodiy geograflar sanoat korxonasini qanday o'rganadilar?
4. Korxonani iqtisodiy-geografik tahlil qilish jadvalini tuzing.
5. Paxta tozalash korxonalari tabiatga asosan qanday chiqindi chiqaradi?

37-§. TEXNIK LOYIHALARNI ASOSLASHDA GEOGRAFIK TADQIQOTLAR NATIJALARIDAN FOYDALANISH

Texnik loyiha ma'lum muhandislik ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi. Lekin hozirgi zamон loyihalari tabiat bilan jamiyat munosabatlarining ko'п jabhalarini o'з ichiga olganligi sababli yetarli darajada murakkab hisoblanadi. Shu sababli, bu borada faqat loyihaning muhandislik jihatlari bilan chegaralanib qolmasdan, loyihaning xususiyati va tabiatga bo'ladi-gan funksional ta'sirini ham e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bu bora-da geografik izlanishlar va loyihaning uzoq muddat xizmat qilishi uchun uni geografik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini asoslash. Yirik yer maydonlarini sug'oriladigan dehqonchilik maqsadlarida o'zlashtirish gidromeliorativ tadbirlar jumlasiga kiradi.

Sug'orishni tashkil qilish uchun ajratilgan hudud geografik nuqtayi nazardan chuqur o'rganilishi keyinchalik turli noxush hodisalar kelib chiqishining oldini oladi. Avvalo, hudud qanday landshaftlarni egallaganligi aniqlanadi. Chunonchi, daryo terrasasi, soyning konus yoyilmasi, prolyuvial tekislik, daryo deltasi va boshqalar. Shundan so'ng atrofdagi tabiiy geografik hududlarning xususiyatlari, sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanishi yoki tabiiy yaylov (lalmi dehqonchilik)da ishlatalishi aniqlanadi. Tog' yonbag'rida joylashgan bo'lsa, sel, surilma, jar eroziysi kabi halokatli hodisalar ta'siriga berilishi hisobga olinadi. Shuningdek, yangi yerlar o'zlashtirilishi tufayli quyida joylashgan, ilgaridan foydalanib kelinayotgan yerkaziladigan zarar tahlil qilinadi.

Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini loyihalashda ularni relyefning qanday joylaridan o'tishini aniqlash ham amaliy ahamiyatga ega. Bu holda gruntning litologik tuzilishini o'rganish zarur bo'ladi. Shag'al tosh mavjud bo'lgan joylarda sug'orish tarmoqlarini loyihalash suvning katta qismi zamirida shimalilib ketishi-ga sabab bo'ladi va boshqa bir joyda yer betiga yaqinlashib, bot-qoqlanish yoki sho'rланishga olib keladi.

Suv omborlari loyihalarini asoslash. Suv omborlari o'ziga xos murakkab inshoot. Ularni faqat relyef jihatdan qulay bo'lgan joylardagina qurish samaralidir.

Suv omborlarining tog' vodiylari va etaklarida qurilishi har jihatdan foydalidir, chunki suv ortiqcha bug'lanishga sarflanmaydi,

svuning sizib o'tishi ancha kam bo'ladi. Eng muhim, suv kanal-larga o'zi oqar holda taqsimlanadi. Bu mintaqada suv har doim toza, sho'rlanmagan bo'ladi.

Tog' daryosi va soylarda suv omborlarini qurish ancha yengil-roq kechadi, chunki vodiya o'zan baland to'g'on bilan to'sil-ganidan so'ng uning orqasida katta hajmda suv to'planadi. Chor-bog', Ohangaron, Janubiy Surxon va boshqa suv omborlari shu usulda qurilgan. Bu usulagi qurilish katta mablag' talab qilmaydi. Avvalo, suv ombori qurilishi mumkin bo'lgan eng qulay joylarni tanlash, to'g'on ko'tariladigan joyning muhandis-geografik xususiyatlari barcha talablarga javob berishini ta'minlash lozim. Quri-lish amalga oshiriladigan joyda istiqomat qiladigan aholi soni ko'p bo'lmasligiga, sug'orishga yaroqli yerlar suv ostida qolmasligiga, tabiatning so'lim go'shalari buzilmasligiga ahamiyat beriladi.

Tog' vodiylarida yirik (hajmi 1,5—2 kub km) suv omborlari qurilganidan ko'ra kichikroq (0,3—0,4 kub km va undan kam) hajmdagilari loyihalangani ma'qulroq. Chunki kuchli yer silkinishi bo'ladigan tog'li o'lkalarda juda katta suv havzalarini qurish ancha xavfli.

Sanoat korxonalarini joylashtirish. Geografik nuqtayi nazar-dan sanoat korxonalari xomashyo bazasiga yaqin va ishchi kuch-lari ko'p bo'lgan hududlarda bunyod etiladi. Lekin shu bilan birga sanoat korxonasini qurish uchun zarur bo'lgan sharoitlar ham ma'lum darajada hisobga olinadi. Hududning meteorologik va relyef sharoitlari, gruntning litologik tarkibi doimo e'tiborda bo'ladi.

Kimyoviy mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar tog' vodiylarida, yirik daryo yoqalarida, konus yoyilmasida joylashtirilmagani ma'qul. Tog' vodiysida mahalliy shamol doimo tog'dan vodiy bo'ylab esadi, binobarin, korxona atmosferaga chiqargan chiqindilarni vodiyning quyi qismiga haydab keladi. Sirchiq — Ohangaron, Surxondaryo vodiylarida shunday ahvolni kuzatish mumkin.

Daryo bo'ylarida joylashgan korxonalar o'z chiqindilarini unga oqizib keladi, natijada suv turli chiqindilar bilan ifloslanadi. Zaraf-shon, Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo suvlarining iflosligi korxonalar tashlayotgan oqava suv va chiqindilar bilan izohlanadi. Konus yoyilmasida qurilgan korxonalar grunt suvlarini ifloslaydi.

Shu jihatdan qaraganda sanoat korxonalarini loyihalashda albatta atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga ahamiyat beriliши lozim.

Shaharsozlik loyihalarini asoslash. Aholi yashash joylari: shahar, shaharcha, qishloq bunyod etilishida tabiatning go'zal, xushmanzara va falokatli tabiiy hodisalardan uzoqda bo'lgan hududlar tanlanadi. Chunki ular vaqt o'ishi bilan aholi sonining ortishi natijasida kengayib boradi.

Hozirgi vaqtida turli joylarda foydali qazilmalarning topilishi va ularni qazib olish, qayta ishslash korxonalari, yirik GRES, gidrotexnik inshootlar qurilishi, gaz va suvni quvurlarda tashishga xizmat qiluvchi kompressorlarning ishga tushirilishi munosabati bilan shu joylarda shaharchalar bunyod etilmoqda.

Vohalarda, xususan, sug'oriladigan hududlarda shahar va qishloqlar relyefning balandroq joylarida, yirik kanal yoki daryo bo'yalaridan kamida 3—4 km uzoqlikda qurilgani ma'qul. Chunki suv aholi yashash joylariga yer ostidan ta'sir ko'rsatadi. Balandroq bo'lgan joylarda grunt sathi ancha pastda bo'ladi.

6-jadval

O'rta Osiyodagi eng katta suv omborlari

Nomi	Maydoni (km ²)	Suv hajmi (mln m ³)	Qaysi daryo havzasida
1. Buxtarma	5500	53000	Irtish
2. To'xtag'ul	284,0	19500	Norin
3. Rogun	180,0	12400	Vaxsh
4. Norak	98,0	10500	Vaxsh
5. Tuyamo'yin	790,0	7300	Amudaryo
6. Chordara	900,0	5700	Sirdaryo
7. Qayroqqum	513,0	4200	Sirdaryo
8. Chorvoq	40,0	2006	Chirchiq
9. Andijon	80,0	1750	Qoradaryo
10. Kattaqo'rg'on	83,6	845	Zarafshon
11. Jan. Surxondaryo	65,0	800	Surxondaryo
12. Chimqo'rg'on	44,4	449	Qashqadaryo

Eslab qoling!

Geografik tadqiqotlar natijalari irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini, suv omborlari loyihalarini, sanoat korxonalarini joylashtirishda, shaharsozlik loyihalarini asoslashda ishlataladi.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini asoslashda geograflarning o'rni haqida so'zlab bering.
2. Sanoat korxonalarini joylashtirishda geografik nuqtayi nazardan nimalarga e'tibor berilishi kerak?
3. Shaharsozlik loyihalarini amalga oshirishda geograflarning vazifalarini tushuntirib bering.
4. O'zingiz yashab turgan shahar yoki qishloq tabiiy geografik jihatdan qanday joyda bunyod etilganligini aniqlang, bu masala yuzasidan sinifa munozara uyushtiring.

38-§. SOHA KOMPLEKS DASTURLARINI AMALGA OSHIRISHDA GEOGRAFIYANING AHAMIYATI

Tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhit holatini yaxshilash uchun mamlakat miqqosida bir necha sohalar bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqilgan. Mazkur dasturlar bir necha yillarga mo'ljallangan bo'lib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Quyida ba'zi asosiy dasturlar mazmuni bilan tanishasiz.

Suv muammolari dasturi. O'rta Osiyoda suv resurslari taqchiligi va unga nisbatan talabning tobora ortib borayotganligi tufayli, shuningdek, joylarda suvning sifati davlat andozalariga to'la javob bermayotganligini e'tiborga olib, mamlakatda suv muammolari dasturi qabul qilingan. Dasturning asosiy mazmuni suv resurslaridan oqilona va tejab foydalanish, korxonalarda suvdan aylanma (berk) texnologiyani joriy qilgan holda foydalanishni yo'lga qo'yish va boshqa jarayonlarga qaratilgan.

Dasturni amalga oshirishda geografiyaning vazifasi avvalo suv resursining ma'lum sohalar bo'yicha taqsimlanishini hisob-kitob qilish, qor va yomg'irlardan vujudga keladigan suv oqimini, yerosti suvlarli hisobiga yer usti suvlarining (va aksincha) to'ynishini asoslash, muzliklarning, ko'llar, suv omborlarining balansini hisoblab chiqish, suvning yerga singishi, bug'lanishi va boshqalarni o'rganishdan iborat.

O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda suvdan to'g'ri va ilmiy asosda foydalanishni yanada takomillashtirish, suvni iqtisod qilish ko'p hollarda sug'oriladigan dehqonchilikda uning oqilona ishlatalishiga bog'liq. Shuning uchun sug'orishda eng zamонави usullarni qo'llash zarur. Hozirda qishloq xo'jaligida samarali hisob-

langan yomg‘irlatib, tuproq ostidan va tomchilatib sug‘orish usullari tatbiq qilina boshlandi, lekin ular juda kichik maydonlarda amalga oshirilmogda.

Suv muammolari murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p sohalidir. Ular uzoq muddatli mashaqqatli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Sug‘oriladigan yerlar dasturi. O‘zlashtirilgan yerlar quruq iqlim sharoitida eng mahsuldor yer hisoblanadi. Bir yil mobaynida bunday yerlardan uch martagacha ekin ekip, hosil olish mumkin. Lekin respublikada sug‘oriladigan yerlardan oqilonqa foydalanilmoqda deb bo‘lmaydi. Ularning katta qismi sho‘rlangan, eroziya va shamol katta maydonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Har yili jala yog‘ishi va sel hodisalari natijasida yerdan unumli foydalanish darajasi pasayib ketadi. Demak, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirish uchun ularning unumdarligini va meliorativ sharoitlarini yaxshilash zarur bo‘ladi.

Geograflarning yerlar mahsulorligini oshirishdagi asosiy vazifasi — mahalliy tabiiy sharoitni chuqur o‘rgangan holda ularning shamol va suv eroziyalariga berilishini iloji boricha kamaytirish yo‘llarini asoslash hamda meliorativ holati og‘ir bo‘lgan yerlarning aniq chegaralarini belgilab, ularning meliorativ sharoitlarini tubdan yaxshilashning litologik-geomorfologik va gidrogeologik asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tabiat muhofazasi va ekologik muammolar yechimi. Tabiat muhofazasi sohasida geograflarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Geografianing barcha ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy ishlamalari tub mohiyati bilan tabiat muhofazasiga bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda tabiat muhofazasi zarur bo‘lgan va ekologik vaziyatning jiddiyashuvi kuchayib borayotgan hududlar mavjud. Chunonchi, Orolbo‘yi, Zarafshon vodiysi, Chirchiq—Ohangaron vohasi ekologik sharoitning murakkabligi bilan ajralib turadi. Fanning vazifasi bu holda atmosfera havosiga va suv havzalariga chiqarilayotgan chiqindilarning tabiiy muhitga va insonga keltirdigan zararlarining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish, chiqindilarning atrof-muhitga ta’sir radiusini va uning mintaqalarini bilish, ularning ta’siri natijasida tabiatda yuz beradi-gan turli ekologik o‘zgarishlarni hozirda va istiqbolda vujudga keliшини asoslashdan iborat. Barcha ma’lumotlar asosida xaritalar tayyorlanadi va ularni tegishli rahbar tashkilotlar diqqatiga havola qilinadi.

A B C D E F G

Tabiatni muhofaza qilishda eng samarali faoliyatlardan biri ma'lumotlarni va vaziyatni xaritalarga tushirish yo'li bilan tadqiqot natijalarini mutaxasislarga va keng jamoatchilikka ko'rsata bilishdir. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik vaziyatlarni xaritalarda aks ettirish bilan mazkur muammo to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni qisqa, ixcham va aniq holda tegishli mutaxassislarga yetkaziladi. Xaritalar muammoning tarkib topishi, hozirgi holati va kela-jakda yanada o'zgarishini tadrijiy holda ko'rsata oladi. Bu jihatdan xaritalar ushbu muammoni tezroq hal etishga yaqindan yordam berishi mumkin.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Soha kompleks dasturlarini amalga oshirishda geografiyaning ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Suv muammolari yechimida geografiyaning o'rni haqida so'zlab bering.
3. Sug'oriladigan yerlar dasturini amalga oshirishda geograflarning amaliy tadqiqot ishlari mazmunini tushuntirib bering.
4. Tabiat muhofazasi, ekologik muammolarning yechimida geografiyaning o'rni nimalardan iborat?

39-§. KOMPLEKS MINTAQAVIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA GEOGRAFIYANING O'RNI

Tabiat muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina mintaqaviy muammolar o'zining dolzarbliji va tobora jiddiyashuvi, tang ekologik vaziyatlarning tarkib topishiga olib kelishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonning barcha yirik hududlarida o'ziga xos tabiat muhofazasiga oid muammolar mavjud. Farg'ona vodiysi, Chirchiq—Ohangaron vodiysi, Qizilqum, Orolbo'y, Ustyurt, Zarafshon vodiysi va boshqa hududlarida turli hududiy muammolar yuzaga kelganki, ularni ma'lum dastur asosida tizimli yondashuv asosida hal qilish lozim bo'ladi.

Quruq iqlim mintaqasida cho'llashishga qarshi kurash loyihasini amalga oshirish. Cho'llashish arid mintaqada ekotizimlar mahsulorligining kamayib ketishi bilan bog'liq. Cho'llarda muttasil qorako'l qo'ylarining boqilishi tufayli yaylovlarning mahsulorligi pasayib boradi. Buning ustiga avtomobilarning betartib harakati, turli inshootlarning qurilishi, ma'danlarni qazib olish uchun burg'ulash, karerlarning vujudga kelishi, yo'llar bunyod qilinishi

natijasida, turli texnik vositalar harakat qilishi tufayli o'simlik va tuproq eziladi, shamol harakati natijasida qum uyumlari va botiq-lari tarkib topadi. Ushbu jarayonlar tufayli yaylovlarning mahsul-dorligi kamayib ketadi, ba'zan yalang qumlik tarkib topishi esa yaylovlarning nihoyatda kambag'allashib ketganidan darak beradi. Bu hodisa cho'l yaylovlarning cho'llashishi deb ataladi.

Cho'llashish sug'oriladigan yerlarga ham xos bo'lgan hodisa. Vohalar tuproq-meliorativ sharoitlarining og'irlashuvi, eroziya va shamolning faollashuvi sababli tuproqning chirindi yuqori qatlamlarining yuvilishi yer hosildorligini birmuncha pasaytiradi.

Daryo suvlarining oqimi suv omborlari va gidrouzellar qurilishi natijasida jilovlanishi bilan ularning bahorda toshib, yozda to'lib oqishiga chek qo'yiladi. Boz ustiga, daryo suvlarining mineral-lashuv darajasi ortib, ifloslanishi yuz bermoqda. Bu hol daryo qirg'oqlaridagi to'qayzorlarni cho'llashishga mahkum qilmoqda. Suv sathining keskin darajada tushib ketishi bilan grunt suvlarining yuzasi ham pasaydi. Daraxtli va butali to'qaylarning namga bo'lgan talabi ba'zi joylarda butunlay qondirilmayapti. Bu hol ularning qurishiga olib keldi. Daryo sohilidagi Qizilqum, Bodayto'qay va Zarafshon qo'riqxonalarining to'qay o'simliklari ham shu ahvolda. Binobarin, ular cho'llashishga berilgan. Sun'iy usulda to'qayzorlarni suv bilan ta'minlash har doim ham yuqori samara bermaydi.

Cho'llashishga qarshi kurash ma'lum loyihalar asosida amalga oshiriladi. Bu borada qumliklar, platolardagi yaylovlar, vohalar, daryo deltalari, tog' etaklari yaylovlari uchun alohida tuzilgan loyihalar asosida kurash usullari ishlab chiqiladi, ma'lum davrlarda amalga oshiriladigan ishlar dasturi asoslanadi.

Bu jarayonga qarshi kurash asosida eng avvalo o'rta mashtabda (1:300000—1:500000) cho'llashish xaritasi tuzilishi lozim. Xarita landshaft asosida yaratilishi zarur, chunki bunda tabiiy sharoit butun hududda differential ko'rinishda ko'rsatiladi. Har bir landshaft konturi cho'llashishning turi, darajasi va sababini aks ettiradi. Bu holda qaysi konturda qanday kurash choralarini qo'l-lash mumkinligi ravshanlashadi.

Falokatli tabiiy hodisalarining oldini olish loyihalari. Halokat keltiruvchi tabiiy hodisalarini o'rganish geograflarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Surilma, tog' qulashi, sel, jar eroziyasi, qor ko'chkisi kabi tog' yonbag'irlari va etaklarida sodir bo'ladigan hodsalarini ayni rivojlanish o'choqlari va mintaqalari (arellari)ni

xaritaga tushirish birinchi navbatda bajariladigan vazifadir. Bu sohada geograf-mutaxassislarda yetarli darajada tarjiba mayjud. Har bir soy va daryo vodiysi u yoki bu tabiiy hodisaning rivojlanishi nuqtayi nazaridan o'rganib chiqilgan. Yirik shahar, sanoat korxonalari, qishloqlar atrofi doimiy kuzatuvda. Shuning uchun ham ularning ta'sir doirasida ofatlar kamroq bo'lishiga erishilmoqda.

Ammo ko'rيلayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan vaqt-vaqt bilan tabiiy hodisalar sodir bo'lib turibdi, odamlar orasida qurbanlar bo'lmoqda, xalq xo'jaligi obyektlariga katta zarar yetmoqda.

Falokatli hodisalarning oldini olish borasida, respublikada ularning vujudga kelish makonlarini chuqur o'rganish maqsadida har bir soy va daryo vodiysi ehtimol tutilayotgan hodisa nuqtayi nazaridan o'rta va yirik masshtabli xaritalarga tushirilishi bilan birga, ularning bashorati, baholanishi va hatto pasporti tuzilishi zarur bo'ladi. Ma'lum vaqt mobaynida ularning aniq nazorati amalga oshirilishi darkor.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- 1. Kompleks mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda geograflarning o'rni to'g'risida nimalarni bilasiz?
- 2. Cho'llashish hodisasi nima? Uning rivojlanish hududlari va omillari to'g'risida so'zlab bering.
- 3. Cho'llashish hodisasini o'rganish va uning oldini olishda geograflarning vazifalari nimalardan iborat?
- 4. Falokatli tabiiy hodisalar oldini olishning qanday loyihalarini bilasiz?

40-§. TABIAT VA INSON RESURSLARI HAMDA ULARNI IQTISODIY-GEOGRAFIK BAHOLASH

Tabiat va uning geotizimlari butun sayyora miqyosida murakkab hosila, ular doimo tadrijiy o'rganishda, rivojlanishda va o'z qonuniyatları hamda qonunları asosida mavjud. Tabiat qonunları jamiyat qonunlariga mos kelmaydi, tabiat o'z qonunları negizida rivojlanadi, jamiyat qonunlarini tabiatga qo'llab bo'lmaydi. Binobarin, inson tabiat qonunları va qonuniyatlarini mukammal biliishi, idrok etishi, ularga rioya qilishi zarur. Tabiatdan foydalanish jarayonida mazkur qonunlarni e'tiborga olgan holda resurslarni xo'jalik muomalasiga kiritish muhim masala. Bu horada nazariy ham amaliy bilimlarni to'liq egallagan holda tabiatdan foydalanish tobora zarur bo'lib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan foydalanish. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng tabiiy boyliklaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularga amal qilish zarurati ekologik va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqmoqda. Tabiatdan foydalanish mexanizmi bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: a) tabiat resurslaridan foydalanishning pulliligi; b) tabiatni muhofaza qilish faoliyatini iqtisodiy rag'batlantirish tizimi; d) atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun jarima to'lovi; e) tabiiy resurslaridan foydalanish bozorini vujudga keltirish; f) tabiatdan foydalanish bo'yicha narxlarni takomillashtirish va boshqalar.

Tabiat resurslaridan foydalanishning pullik tizimiga o'tish bozor iqtisodiyoti uchun eng zaruriy tamoyil hisoblanadi. Boylik pul bilan baholanar ekan, undan foydalanish ham pullik bo'lishi lozim. Bunda boylikning sifati, qiymati, keltiradigan foydasи va boshqa iqtisodiy xususiyatlari e'tiborga olinmog'i lozim. Masalan, bizda suvdan sug'orma dehqonchilikda foydalanilganlik uchun xo'jaliklar odatda davlatga pul to'lamaydilar, ammo ular ba'zan keragidan ko'proc hajmda suv olib ishlata dilar, suvni ifloslantiradilar va ortiqcha toza suvni tashlama sifatida markaziy kollektorlarga oqizib yuboradilar.

Yerdan foydalanish jarayonida dehqonlar, fermerlar, bog'bonlar, chorvadorlar ishtirok etadilar. Yer davlat, umumxalq mulki, uni sotish va hadya etish mumkin emas, faqat samarali foydalanish uchun ma'lum muddatga berish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerdan foydalanishda uni mahsulorligiga qarab baholash va shu asosda soliq masalalari, yerga o'g'it solish, almashlab ekish kabilarni hal etish maqsadga muvofiq.

Bu borada O'zbekistonda yerdan foydalanishda jamoa xo'jaligi va uning tarkibida oila pudrati, paychilik, fermer xo'jaligi va boshqa yangi usullarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil qilish tajribasi keng qo'llanilmoqda, bu yerga bo'lgan hurmat, uni e'zozlash, har bir qarichidan omilkorlik bilan foydalanishni ta'minlaydi.

Tabiatdan foydalanish va amaliy geografiya. Tabiat boyliklaridan foydalanishda boshqa fan yutuqlari qatori amaliy geografiya erishgan ilmiy natijalarga asoslanish nihoyatda samaralidir. Chunki geografiya fani tabiatni, aholi va xo'jalik bilan bir butun tarzda o'r ganadi. Binobarin, bu jarayonda tabiat qonunlari to'liq e'tiborga olinadi, tabiatga inson ta'sirining oqibatlari hisob-kitob qilinadi va shunga muvofiq ularning oldini olish choralarini ishlab chiqiladi.

Amaliy geografiya tabiat boyliklaridan foydalanish bo'yicha yetarli darajada tajriba, sinov ishlab chiqarish amaliyatiga ega. Inson sug'orma dehqonchilik bilan kamida 5—6 ming va chorvachilik bilan esa 8—10 ming yildan beri shug'ullanib kelmoqda. Bu borada mavjud sohalar bo'yicha juda katta tajriba to'plandi. Bu tajribaning geografiyaga oid tomonlari ham mavjud. Masalan, qiya yonbag'irlardan foydalanishda yerni haydash, sug'orish, tuproqqa ishlov berish jarayonida nishablik xususiyatlarini hisobga olib ko'ndalangiga yerni haydash, juda ham qiya yerlardan yaylov sifatida foydalanish yoki terrasalash, ihotazorlar buniyod etish, eroziyaga qarshi maxsus gidrotexnik inshootlarni loyihalash.

Sanoat korxonalarini loyihalashda amaliy geografiyaning tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi. Bu borada tog' yonbag'irlari va vodiylarining tabiiy-geografik xususiyatlari, ayniqsa, suv va iqlimi omillar, gruntlarning fizik hamda kimyoviy xossalari e'tiborda bo'ladi. Tog' vodiylarining mahalliy shamollar odatda soy yoki daryo oqimining yuqori qismidan boshlanib, uning etagi tomon harakatlanadi. Shamol havodagi barcha chang va chiqindilarni olib ketadi, agar tog' vodiyisida sanoat korxonalarini mavjud bo'lsa, ularning havoga chiqargan chiqindilarini vodiy bo'yab yoyadi, oqibatda atrof-muhit ifloslanadi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tog' vodiylariga sanoat korxonalarini joylashtirishda mahalliy shamollar harakati albatta e'tiborga olinishi lozim, sanoat ishlab chiqarishida chiqindisiz yoki yopiq siklli texnologiyaning tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, korxonalar yer usti va yerosti suvlarini turli oqava suvlar bilan ifloslaydi, bu hodisa ham diqqat-e'tiborda bo'lishi darkor. Demak, barcha sohalarda amaliy geografiyaning tavsiyalari va ko'rsatmalarining hisobga olinishi tabiatdan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan foydalanish tamoyilla-
riga amal qilish zarurligini tushuntirib bering.
2. Tabiatdan foydalanishda amaliy geografiyaning vazifalari nimalardan
iborat?
3. Siz yashab turgan hududda «Amaliy geografiya» kursi nazariy bilimlari-
riga zid keladigan qanday hodisa va voqealar yuz bermoqda? Ularni
bartaraf qilish borasida sizning fikringiz qanday?
4. Sanoat korxonalarini joylashtirishda amaliy geografiyaning qanday
tadqiqot usullaridan foydalaniladi?



IKKINCHI BO'LIM

XII b o b **GEOSIYOSAT ASOSLARI**



Aziz o'quvchilar, ushbu bobda quyidagi mavzular bilan tanishasiz: geosiyosat, siyosatshunoslik, siyosiy geografiya, geosiyosatning asosiy kategoriyalari.

Sizlarga ma'lumki, Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimovning qator asarlarida O'zbekistonning geosiyosiy mavqeyi, mam-lakatimizning geostrategik o'rni, yaqin va uzoq qo'shnilarini, ular bilan o'rnatilgan aloqalarning siyosiy jihatlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar tahlili taqdim etilgan.

Geosiyosat to'g'risida fikr-mulohaza yuritishdan oldin bu tushunchaning mazmun-mohiyati va ahamiyati, uning fan sifatida shakllanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Shu nuqtayi nazardan bu bo'limda geosiyosat fani, fanning shakllanishi bos-qichlari va asosiy kategoriyalari, davlat kuch-qudrati va geosiyosat, siyosat va geografiya fani o'rtasidagi aloqadorlik haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, geosiyosatning fan sifatida shakllanishiga behisob hissa qo'shgan olim va siyosatchilar, geosiyosatdagi mavjud yo'nalishlar hamda dunyo geosiyosatlar, geosiyosiy rivojlanishining asosiy paradigmalarini to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishasiz.

41-§. GEOSIYOSAT FANI HAQIDA TUSHUNCHA

Geosiyosat — turli siyosiy jarayonlarning geografik sharoit (muhit)ga bog'liq holda rivojlanishini o'rganadigan fandir. XX asrda dunyo siyosiy xaritasining tubdan o'zgarishi, hududiy, ijtimoiy-ekologik va demografik muammolarning keskinlashuvi geosiyosat faniga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yubordi.

Geosiyosat fanini o'rganish geografiya, tarix, demografiya, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, sotsiologiya, harbiy fanlar,

siyosatshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha ham bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Geosiyosat tushunchasini fanga birinchi bo'lib, 1916-yilda shvetsiyalik olim **Rudolf Chellen** kiritgan. Uning fikricha, har qanday davlat bir butun geografik organizm sifatida qaralmog'i lozim.

Geografik organizmni ma'lum bir landshaft sifatida o'rganish mumkin. Landshaft o'z navbatida tabiiy, hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy majmua bo'lib hisoblanadi.

Geosiyosat fani siyosiy geografiya asosida shakllandi va rivojlandi.

Siyosiy geografiya jahondagi davlatlarning turg'un (statik) holatdagi tavzifini tuzish bilan shug'ullanadi. Siyosiy geografiyanı ko'proq davlatlarning joylashishi, hududining shakli, o'lchamlari, chegaralari, xo'jaligi, aholisining savodxonlik darajasi, madaniyati qiziqtiradi.

Geosiyosat fani siyosiy jarayonlarning geografik makondagi o'zaro aloqalarini, ularning Yerga va madaniy omillarga ta'sirini o'rganadi. Geosiyosat fani asosiy e'tiborni tabiiy muhit omillarini harbiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik xavfsizlik maqsadlarida faol foydalanishga qaratadi.

Geosiyosat fanining o'rganish obyekti: sayyoraviy (planetar) makon, geosiyosat jarayonlar va hodisalardir. Sayyoraviy makonga quruqlik, suvlak (Dunyo okeani), havo qobig'i, davlatlar va ularning resurslari kiradi.

Geosiyosatning asosiy vazifasi, ya'ni o'rganish predmeti sayyoraviy makonni nazorat qilishdir.

Bunda geosiyosiy omillarni o'rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Geosiyosiy omillarga quyidagilar kiradi.

— geografik (geografik o'rni, tabiiy resurslari);

— siyosiy (siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, asosiy erkinliklarning mavjudligi);

— iqtisodiy (ishlab chiqarish kuchlarining quvvati va tarkibi, aholining turmush darajasi, strategik zaxiralar va zafarbarlik (mobilitatsion) quvvatlari;

— harbiy (qurolli kuchlarning kattaligi, quvvati, harbiy tayyorlarligi, harbiy kadrlarni tayyorlash holati);

— ekologik (cheklangan yoki tugaydigan va tiklanmaydigan) resurslarga bo'lgan demografik bosim, xomashyo resurslarining kamayishi va tugashi, aholi turmush darajasining o'zgarishi);

- demografik (aholi soni, o'sish sur'ati, zichligi va tarkibi);
- madaniy-ma'rifiy (konfessalar, millat va elatlar, mehnat an'analari, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlashning rivojlanganligi, urbanizatsiya darajasi va boshqalar). Yuqoridagi omillarni geosiyosiy jihatdan tahlil qilish uchta yo'nalishda olib boriladi: a) ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ularning ma'lum bir hudud va davr doirasida rivojlanishi bilan bog'liq holda tadqiq etish; b) ma'lum bir hudud to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlarni ayrim hollarda tamomila qarama-qarshi tasavvurlar bilan taqqoslash; d) makonni o'zgartirish bo'yicha siyosiy strategiyani amalga oshirishni basharatlash.

Eslab qoling!

Geosiyosat — turli siyosiy jarayonlarning geografik sharoitga bog'liq holda rivojlanishini o'rganadigan fan. Geosiyosat tushunchasini fanga birinchi bo'lib, 1916-yilda shvetsiyalik olim Rudolf Chellen kiritgan.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Geosiyosat fanini o'rganish uchun yana qanday fanlar bo'yicha bilimlar bo'lishi taqozo etiladi?
2. Qanday omillar geosiyosiy omillar bo'lib hisoblanadi?
3. Geosiyosat fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. Qaysi olim «geosiyosat» tushunchasini qachon fanga olib kirgan?

42-§. GEOSIYOSIY BOSQICHLAR

Insoniyat tarixini geosiyosiy nuqtayi nazardan geosiyosiy bosqichlarning yoki ma'lum bir kuchlarning navbatma-navbat almashtinib kelishi sifatida qarash mumkin. Har bir geosiyosiy bosqich kuchlar muvozanatiga, ta'sir doirasiga va chegaralariga ega bo'ladi.

Geosiyosiy bosqichlarning rivojlanish jarayonida **Vena bosqichi** o'ziga xos o'rinni egallaydi. Bu bosqich Vena kongressining (1814—1815) tuzilishi bilan xarakterlanadi. Buning asosi sifatida geografik hududni nazoratda tutish tamoyili olingan.

Bu bosqichda jahon kuchlari markazi sifatida Rossiya va Avstriya—Vengriya imperiyasi, Britaniya kolonial imperiyasi (imperiya sifatida 1876-yilda e'tirof etilgan bo'lsa ham), Germaniya imperiyasi (1871-yildan), XIX asrning o'rtalaridan jahon

kuchlari markazi sifatida Fransiya (qonuniy jihatdan respublika hisoblanar edi) o'zini namoyon eta boshladi. 1877-yildan boshlab Turkiya sultonı «Usmonli turklar imperatori» maqomini qabul qildi.

Bu bosqichda yirik geosiyosiy markazlarning harbiy, siyosiy va boshqa ko'rinishdagi nizolari, goh bir markazning rivojlanishi (AQSH, Germaniya) yoki, aksincha, parchalanishi, yo ta'sir doira-sining pasayishi (Rossiya, Ispaniya) kuzatiladi.

Bu bosqichdagi eng yirik voqealardan biri ikkita yirik ittifoqning shakllanishi hisoblanadi. Birinchi ittifoq «Uchlik ittifoqi» hisoblanib, unga Germaniya, Avstriya — Vengriya va Italiya kigan edi. Ikkinci ittifoq Antanta hisoblanib, unga Fransiya, Angliya va Rossiya davlatlari birlashgan edi.

«Uchlik ittifoqi»ning Birinchi jahon urushida (1914—1918) parchalanib ketishi **Versal geosiyosiy bosqichining** boshlanishi bilan xarakterlanadi va geopolitik kuchlar nisbatining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Kuchli siyosiy markaz bo'lib hisoblangan Germaniya, Avstriya—Vengriya, Rossiya va Turkiya imperiyalari inqirozga yuz tutdi. Ushbu davlatlarning parchalanishidan paydo bo'lgan nisbatan kichik davatlarni **Versal shartnomasining** mualiflari o'z ta'sir doiralariga kiritishni maqsad qilib oldilar. Versal shartnomasi siyosiy yetakchilikni quruqlikda Fransiyaga, dengizda esa Angliyaga tegishini ta'minlab berdi.

G'olib davlatlar siyosatchilari nuqtayi nazaridan Rossiya uchun Yevropada joy yo'q edi. Versal shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan Millatlar ligasi nomidan Germaniya va Turkiya imperiyalari koloniyalari g'olib davlatlar tomonidan bo'lib olindi. AQSH Prezidenti Vilsonning rejalariga ko'ra Rossiya davlati bir necha ta'sir doiralarga bo'linishi kerak edi. Masalan, Kavkaz Turkiya imperiyasining bir qismi sifatida, O'rta Osiyo esa biron-bir Yevropa davlatining protektorati qilinishi lozim edi. Rossiya va Sibirning o'zida esa amalda hech qanday siyosiy kuchga ega bo'limgan qaram davlat tuzish ko'zda tutilgan edi. Shu maqsadda jahoning 15 ta yirik davlati o'z qo'shinlarini Rossiya hududiga kiritdi.

Birinchi jahon urushida eng katta yutuqqa AQSH burjuaziyasidir. U o'z kuchini his qilgan holda 1922-yilda Vashington konferensiyasida AQSH Angliya bilan bir qatorda harbiy dengiz flotiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritdi.

Yer yuzidagi maydoni eng yirik davlatlar

Davlatlar	Maydoni (ming km ²)	Qaysi materik (qit'a)da
Rossiya	17075	Yevrosoyo
Kanada	9976	Shim. Amerika
Xitoy	9597	Osiyo
AQSH	9363	Shim. Amerika
Braziliya	8512	Jan. Amerika
Avstraliya	7687	Avstraliya
Hindiston	3288	Osiyo
Argentina	2777	Jan. Amerika
Qozog'iston	2717	Osiyo
Sudan	2506	Afrika
***	***	***
O'zbekiston	448,9	Osiyo

Aholisining soni eng ko'p va eng kam bo'lgan dunyo mamlakatlari (2004)

Aholisi eng ko'p davlatlar nomi min kishi	Aholisi eng kam davlatlar nomi ming kishi
Xitoy	1266,4
Hindiston	1064,4
AQSH	291,0
Indoneziya	214,5
Braziliya	176,6
Pokiston	148,4
Rossiya Federatsiyasi	143,4
Bangladesh	138,1
Nigeriya	135,6
Yaponiya	127,2

Millatlar ligasi yordamida g'olib davlatlar tomonidan Germaniya va Rossiya o'rtasida Fransiya va Angliya davlatlari ta'sir doirasida bo'lgan bir guruh davlatlardan iborat «sanitar kordon» tashkil etildi va bu bilan ikki yirik davlatning to'g'ridan-to'g'ri aloqalari ga chek qo'yildi.

Ikkinchiji jahon urushi Versal tinchligiga chek qo'ydi. Urushning barcha qiyinchiliklarini sobiq Ittifoq o'z bo'yniga oldi, lekin ushbu urushdan u harbiy va geosiyosiy jihatdan mustahkam bo'lib chiqdi. O'z tarixida birinchi marta Rossiya atrofida yirik geopolitik blokni tashkil etdi. Keyinchalik ushbu blokni mafkuraviy va axborot qurollari yordamida parchalash uchun yarim asr vaqt sarflandi.

Potsdan bosqichi 1945-yildan boshlandi. Berlin shahri yaqinida joylashgan bu shaharchada imzolangan shartnomaga Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Yevropadagi kuchlar muvozanatini o'zida aks ettirdi, yangi geosiyosiy kuchlarning holatini, yangi chegaralarni aniqlab berdi. Shartnomaga jahoning ko'pqirralikdan biopolyar tizimga o'tganligidan dalolat berar edi. Ya'ni bir tomondan, kontinental (quruqlik) kuchlarini namoyon qiluvchi sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari, ikkinchi tomondan, ko'proq dengiz kuchlarini o'zida namoyon qiluvchi AQSH va uning ittifoqchilari geosiyosat olamida tan olindi. Bu ikki qutbning qarama-qarshiligi Potsdan bosqichining mazmunini aniqlab berdi. Uning ahamiyatga molik tomoni shunda ediki, ikkita yirik qutbning qarama-qarshiligi «sovuvq» va yadro urushlari o'rtasidagi muvozanatda kechdi. Sobiq Ittifoq iqtisodiyoti tashqi o'zgarishlar va rivojlanishlarga nisbatan moslashuvchanlik darajasi past bo'lganligi uchun inqirozga yuz tutdi.

Belovej davri yangi davlatlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Birinchi navbatda jahoning yangi hukmdorlari «barxatl» va ma'lum kuchga tayangan holda sobiq Ittifoq atrofida, so'ngra Rossiyada yangi jahon qoidalarini shakllantirmoqdalar. Ular Versal shartnomasi qoidalariga asoslangan holda ish yuritmoqdalar.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Geosiyosiy bosqich deganda nimani tushunasiz?
2. Geosiyosiy bosqichlarga qaysi bosqichlar kiritiladi?
3. Versal shartnomasining asosiy mohiyati nimadan iborat edi?
4. Antanta va «Uchlik ittifoqi»ga asos solinishining sabablari va tub mohiyatini tushuntirib bering.
5. Sobiq Ittifoqning paydo bo'lishi va parchalanishi qaysi bosqichlarga to'g'ri kelgan?

43-§. GEOSIYOSATNING ASOSIY KATEGORIYALARI

Geosiyosatning asosiy kategoriyasi siyosiy makonni nazorat qilishdir. Jahon siyosiy makoni o‘z navbatida mintaqalarga, rayonlarga, davlatlar bloki va ittifoqlariga bo‘linib ketadi.

Shu sababli geosiyosat kategoriyalari quydagilardan iborat geostrategik mintaqqa, geosiyosiy mintaqqa, davlatlar bloki, geosiyosiy ittifoqlar, qudratli, tengi yo‘q davlat, kuch markazlari, geosiyosiy chiziqlar (yo‘nalishlar), frontal raqobat va boshqalar.

Geostrategik mintaqqa jahon siyosiy makonining bir qismi bo‘lib, u o‘ziga xos hududga, savdo va madaniy-mafkuraviy aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Geosiyosiy mintaqqa esa geostrategik mintaqaning bir qismi bo‘lib, maydoni uncha katta bo‘lmasa ham, siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalarining yuqori darajadagi sur’ati bilan ajralib turadi (Yevropa, Amerika, Xitoy, Janubi Sharqiy Osiyo va boshqalar). Geosiyosiy mintaqqa o‘z navbatida davlatlar chegaralari bilan mos tushuvchi siyosiy rayonlarga bo‘linadi. Siyosiy rayonning eng muhim xususiyati siyosiy birlik va yaxlitlikdir. Har bir rayon o‘ziga xos shakl va o‘lchamga ega.

Davlat chegaralarining barpo qilinishi va rasmiylashtirilishi milliy davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi davrida amalga oshiriladi. Chegaralar ular o‘rab turgan «Millat-davlat» makonining geosiyosiy rasmiylashtirilishidir. Bundan tashqari, tabiiy va sun’iy chegaralar mavjud. Tabiiy chegaralarga tog‘lar, daryolar, dengiz va ko‘l akvatoriyalari kiradi. Sun’iy chegaralar quruqlikda ham, suvda ham aniq tabiiy obyekt bo‘lmagan joylarda o‘tkaziladi. Bunda geografik kenglik va uzunlik elementlari bo‘lgan parallellar va meridianlar hisobga olinadi. Masalan, AQSH va Kanada o‘rtasidagi davlat chegarasi 49° parallel bo‘yicha 1450 km ga cho‘zilgan. Sun’iy chegaralar davlatlarning o‘zaro kelishuvlari asosida o‘tkaziladi va tasdiqlanadi.

Geosiyosatda tabiiy chegaralarga ko‘proq e’tibor beriladi. Dengiz chegaralari eng qulay chegara hisoblanadi. Mashhur olim F. Ratsel: «Qirg‘oq bizlarga qo‘shni sifatida tabiatni in’om etdi va bu qo‘shni har qanday do‘stona davlatdan afzaldir», — degan edi. Dengiz chegaralari boshqa davlatlar bilan aloqa o‘rnatishga katta imkoniyat yaratadi. Shuning uchun uning qiymati uzunligi ortgan sari ortib boradi.

Chegara siyosi, mudofa va harbiy strategik vazifalarni bajaradi. Har qanday chegara chegaraoldi hududiga ega. Ayrim hollarda bunday hududlar «bufer davlat»larga aylantiriladi. «Bufer davlat» odatda kichik mamlakat bo‘lib, u ikkita kuchli davlatni turli xil kutilmagan xatti-harakatlardan saqlab turadi. Yevropada Reyn daryosining quyi qismi va Shveytsariyadagi tog‘ dovonlari, Niderlandiya, Shveytsariya va Belgiya hududlari shunday hududlar qatoriga kiritiladi. Chunki ular Germaniya va Fransiya o‘rtasida joylashgan. Rossiya bilan Buyuk Britaniya o‘rtasida «bufer davlat» vazifasini Afg‘oniston bajargan.

Bir necha «bufer davlat»lar «bufer zona»larni hosil qilishi mumkin. Birinchi jahon urushi davrida Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Shveytsariya, Polsha, Eron, Afg‘oniston, Koreya kabi davlatlar ana shunday «bufer zona»larini tashkil qilgan. Keyinchalik «bufer zona»lar Germaniya va sobiq Ittifoq tomonidan bo‘lib olingan (Sudet viloyati, Polsha, G‘arbiy Ukraina, G‘arbiy Belorus va boshqalar).

Eslab qoling!



Geosiyosatning asosiy kategoriysi siyosi makondir.

Geostrategik mintaqqa — jahon siyosi makonining bir qismi bo‘lib, o‘ziga xos hududga, savdo va madaniy-mafkuraviy alo-qalarning o‘ziga xosligi va yo‘nalishi bilan ajralib turadi.

Geosiyosiy mintaqqa — geostrategik mintaqaning bir qismi bo‘lib, hududi uncha katta bo‘limasa ham siyosiy, iqtisodiy va savdo alo-qalarining yuqori darajadagi sur’atlari bilan ajralib turadi.



Bilimingizni sinab ko‘ring:

1. Geosiyosatning asosiy kategoriyasini aniqlang.
2. Chegaralarning qanday turlarini bilasiz?
3. Chegaralar qanday vazifalarni bajaradi?
4. «Bufer davlat» va «bufer zona»larga misollar keltirib, daftaringizga yozing.

44-§. DAVLAT KUCH-QUDRATI VA GEOSIYOSAT

Geosiyosiylar tahlilning muhim elementi davlatning kuch-qudrati hisoblanadi. Davlatning kuch-qudrati deganda ikki narsa tushuniladi: birinchidan, davlatning o‘z maqsadiga boshqa davlat siyosatiga tashqi siyosat orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan erishishi; ikkinchidan, uning o‘z manfaatlarini o‘zining imkoniyatlari vositasida himoya qila olish imkoniyatlari tushuniladi.

Har qanday davlatning kuch-qudratini quyidagi omillar belgilab beradi: davlatning geografik o‘rni, tabiiy resurslar; sanoat salohiyati; qurolli kuchlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari; inson resurslari; milliy xususiyat; milliy ma’naviyati; diplomatiya sifati; davlat boshqaruvi darajasi.

Davlat kuch-qudratini aniqlab beruvchi bunday yondashuv atributli yondashuv deb ataladi. Chunki mazkur yondashuvda asosiy e’tibor kuch-qudratning eng muhim jihatlarini o‘rganishga qaratiladi.

Qadimdan kuchli hisoblangan davlatlar nisbatan bo‘sh (kuch-siz) davlatlarni bo‘ysundira olmaganligi haqida juda ko‘p misollar mavjud. Masalan, miloddan avvalgi V asrda benihoya qudratli Fors davlati yarim asrlik urush natijasida erksevar yunon shaharlari — polislari tomonidan mag‘lub qilingan. XX asrning ikki buyuk davlati — AQSH va sobiq Ittifoq ham maqsadiga erisha olmadı. AQSH Vietnam urushida, sobiq Ittifoq qurolli kuchlari Afg‘onistonda mag‘lub bo‘ldi.

Shu munosabat bilan hozirgi geosiyosat nazariyasi davlatlar o‘rtasidagi kuchlar nisbatini baholash masalasiga e’tibor bermoqda. Ushbu muammo xalqaro hamjamiyatda kuchlar muvozanatini aniqlash bilan bog‘langan.

Kuchlar muvozanati tarixiy kategoriya bo‘lib, u insoniyatning va mintaqalarning taraqqiyotini belgilab beradi. Raqobat qilayotgan davlatlar frontal raqobatga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bizga ma’lumki, bunday raqobat davlatlarning barcha manfatlarini o‘zaro yo‘q qilishga yo‘naltiriladi.

Geosiyosiylar raqobat gorizontal (yuzalama) va vertikal (bo‘ylama) xususiyatga ega. Gorizontal raqobat quruqlik va dengiz yuzasida vujudga kelib, suvdagi va quruqlikdagi raqobatga bo‘linadi. XX asrning 60—90-yillari va hozirgi paytda harbiy havo kuchlarining kuchayishi bilan vertikal raqobat ham vujudga keldi.

Raqobat cheklangan xususiyatga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday raqobat cheklangan hudduda vujudga kelishi va chuqurlashishi mumkin. Masalan, Kuba, Yaqin Sharq bunga misol bo'la oladi.

Raboqatda geosiyosiy yo'nalishlar muhim vazifani bajaradi. Ular juda muhim quruqlik, dengiz va havo yo'llari hamda kommunikatsiyalar bilan bog'langandir. Mazkur yo'nalishlarga neft va neft mahsulotlarini Yaqin Sharqdan Yevropa va AQSHga yetkazib beruvchi asosiy yo'llar va quvurlar kiradi.

Geosiyosiy yo'nalishlar jahon geosiyosiy xaritasini shakllantiruvchi, unda mintaqalarni birlashtiruvchi vosita rolini bajaradi. Shu vaqtning o'zida davlatlar hamda ularning o'zaro aloqadorligi va ta'sirini tartibga solib turadi.

Shunday qilib, geosiyosiy yo'nalishlar (chiziqlar) — bu geosiyosiy makonni tashkil etuvchi jarayonlarning elementlaridir. Geosiyosiy makon (siyosiy makon) deyilganda davlat yoki davlatlar ittifoqi tomonidan nazorat qilib turiladigan makon tushuniladi.

Eslab qoling!

Frontal raqobat — raqobat qiluvchi asosiy kuchlarning hududi joylashuvini aniqlab beruvchi frontal chiziqlar (yo'nalishlar) tomonidan belgilanadi.

Kuchlar muvozanati — insoniyat va mintaqalarning taraqqiyotini belgilab beruvchi tarixiy kategoriya.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Geosiyosiy tahlilning eng muhim elementi nima?
2. Davlat kuch-qudratini nimalar belgilab beradi?
3. Geosiyosiy raqobat qanday xususiyatlarga ega?
4. Geosiyosiy yo'nalishlar (chiziqlar) qanday vazifalarni bajaradi?

45-§. SIYOSAT VA GEOGRAFIYA FANI O'RTASIDAGI ALOQADORLIK

Qadimgi davrlardanoq olimlar geografik muhitning inson siyosiy hayotiga ta'sirini o'rganishga qiziqqanlar. Arastu o'zining «Siyosat» deb nomlangan asarida quyidagi fikrni aytib o'tgan: «Iqlimi sovuq bo'lgan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilar dovyurak bo'lishadi, ammo ularda xayoliy orzular va ixtiolar qilishga moyillik yo'q. Shuning uchun ham ular boshqa xalqlarga nisbatan ko'proq vaqt ozodlikni saqlab turishadi, biroq o'z qo'-

shinlariga boshchilik qilish va ularni boshqarish qobiliyatiga ega emas, ular siyosiy rahbarlikka muhtojdirlar. Janubiy xalqlar, aksincha, chuqur o'ylaydigan va qiyin holatlardan chiqib ketishga ustadir. Ammo ular g'ayratli emaslar. Shuning uchun ham qullik va tobelik ularga xos «tabiiy holatdir». Oraliq mintaqalarda istiqomat qiluvchi yunonlar esa o'zlarida Shimol hamda Janub xalqlariga xos bo'lgan eng yaxshi xislatlarni jo qilganlar».

Bunday siyosiy nazariyada geografik determinizm an'analariga yo'l ochib berilgan edi. Mazkur yondashuv **Jan Boden** tomonidan rivojlantirildi. U insonning rivojlanishiga geografik muhit xalq xarakteri va ruhiyati orqali ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, inson hayoti uchun eng qulay va yaxshi sharoitlar mo'tadil mintaqada, 40—50° shimoliy kengliklar oralig'ida mavjud. Aynan mana shu hududlarda qudratli davlatlar vujudga kelganligini ko'rsatib o'tadi. Jan Boden mustaqil davlatlarning kuch-qudrati va taraqqiyoti ularni o'rabi turgan tabiiy sharoitning ta'siriga bevosita bog'liq, deb hisoblagan.

Sh.Monteske ijtimoiy hayat shakllarining rivojlanishida iqlim hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblagan hamda mamlakat qonunlari uning geografik sharoitlariga mos bo'lishi zarurligini asoslab bergen.

Geografik determinizm g'oyalari Germaniyada XVIII va XIX asrlarda siyosiy geografiyadan geosiyosatgacha bo'lgan davrni bosib o'tdi.

Geografik determinizm (lotincha «determino» — aniqlayman) g'oyasiga binoan ijtimoiy sharoitni mamlakatning geografik joylashishi va tabiiy sharoiti belgilab beradi. Geografik determinizm g'oyasi vakillarining fikricha, kishilik jamiyatining rivojlanishini geografik sharoitning xususiyatlari belgilab beradi. Masalan, Ritter dunyonи ikki qismga bo'ladi — suvluk (okeanlar) va quruqlikka. U quruqlik Shimoliy yarimsharda, suvluk esa Janubiy yarimsharda asosiy maydonni tashkil qilishini ta'kidlaydi. Shimolda joylashgan quruqlikni «Eski dunyo» (Yevropa, Osiyo) va «Yangi dunyo» (Shimoliy va Janubiy Amerika)ga bo'ladi.

Uning fikricha, «Eski dunyo» g'arbdan sharqqa katta masofaga cho'zilganligi sababli iqlimi jihatdan bir xillikka ega. «Yangi dunyo» esa shimoldan janubga tomon katta masofaga cho'zilganligi tufayli iqlimi farqlari juda katta. Mazkur iqlimi farqlar Ritterning fikricha, mintaqada istiqomat qiluvchi xalqlar xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Eslab qoling!

Geografik determinizm — insoniyat taraqqiyotida tabiiy sharoitning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi g'oya, yondashuv.

Eski dunyo — Xristofor Kolumbgacha insonlarga ma'lum bo'lgan dunyoning bir qismi — Yevropa, Osiyo, Afrika.

Yangi dunyo — Xristofor Kolumb, Amerigo Vespuuchchi va boshqa sayyoqlar tomonidan ochilgan dunyo — Shimoliy va Janubiy Amerika.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Arastu qaysi asarida tabiiy sharoitning xalqlar xarakteriga ta'siri to'g'risida muhim fikrlar aytgan?
2. Geografik determinizm deganda nimani tushunasiz?
3. Jan Boden, Sh. Monteske, Ritter tabiiy sharoitning ijtimoiy hayot jarayonlari rivojlanishiga ta'siri haqida fikrlar aytganini daftarlaringizga yozing.
4. Nima uchun insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlari darajasida qolib ketgan qabilalar hozirgi paytda faqat tabiiy sharoiti qulay bo'lgan ekvatorial o'rmonlarda saqlanib qolgan?

46-§. FRIDRIX RATSEL VA GEOSIYOSAT

XIX asrning ikkinchi yarmida nemis olimi **Fridrix Ratsel** (1844—1904) birinchi bo'lib dunyoga geosiyosiy nigochning (qarashning) asosiy yo'naliшlarini ishlab chiqdi. Uning fikricha, makon — siyosiy resurs, taraqqiyot omili bo'lib hisoblanadi. Ratsel o'zining asosiy geosiyosiy g'oyalarini «Antropogeografiya» va «Siyosiy geografiya» nomli asarlarida yorib beradi. Uning fikricha, mamlakatning mustaqil davlat sifatida «oyoqqa» turishida tarixiy taraqqiyot nazariyasi geografik sharoitning ahamiyatini hisobga olmagan. Shuning uchun ham u davlat tashqi va ichki siyosatining geografik sharoitga bog'liq ekanligini isbotlash bo'yicha muhim ilmiy ishlar olib bordi.

Ratsel davlatning asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritgan: mamlakat hududining kattaligi; geografik o'rni va chegaralari; o'simlik dunyosi; boshqa hududlarga bo'lgan munosabati.

F. Ratsel tomonidan geosiyosat sohasida juda muhim bo'lgan quyidagi qonuniyatlar ishlab chiqilgan:

— davlat makoni (madaniyat rivojlangan sari kengayib, o'sib boradi);

- davlat siyosati (g'oyalar, savdo, diniy targ'ibot va boshqa-larning rivojlanishi bilan bir paytda amalga oshadi);
- davlatning taraqqiyoti va kengayishi kichik davlatlarni qo'shib olish va bosib olish hisobiga amalga oshadi;
- davlat chegarasi uning o'sishini ta'minlashi, qudrati yoki zaif tomonlari o'zgarishining asosiy sababchisi bo'lishi mumkin;
- davlat rivojlanishi davomida o'zini o'rab turgan eng muhim tabiat elementlari — qirq'oq chiziqlari, daryo vodiylari, tog'lar, tekisliklar va resurslarga boy mintaqalarni qo'shib olishga doimo harakat qiladi;
- sodda (kuchsiz) davlatlarga hududini kengaytirish haqidagi dastlabki turtki tashqaridan, yuqori darajali madaniyat markazlari-dan keladi.

Davlatlar vujudga keladi, o'sadi, taraqqiy etadi, vaqt(soati kel-ganda tirik jonzotlar kabi barham topadi.

Davlatning kengayishi yoki torayishi uning ichki hayotida ro'y beradigan jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. F. Ratsel katta davlatlarda geografik ekspansiya (bosib olishga intilish)ga moyillik mayjudligini va bu xususiyat asta-sekin sayyoraviy (planetar) miqyosda kengayib borishini aniqlagan. Bundan tashqari, u har bir xalq va davlat o'zining hududiy taraqqiyot konsepsiyasiga ega ekanligini asoslab berdi.

F. Ratsel tadqiqotlarining asosiy va eng muhim jihatlaridan biri — uning «Geografik makon siyosiy kuch sifatida geosiyosating asosini tashkil etadi», degan xulosasidir.

Eslab qoling!



Geografik muhit deb Yer tabiatining kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'zining hayoti va ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita ko'rsatib turadigan qismiga aytildi. Geografik makon falsafiy kategoriya bo'lib, geografik qobiq dorasida moddiy geografik obyektlarning obyektiv va bilish mumkin bo'lgan shakli.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Makon deganda F. Ratsel nimani tushungan?
2. F. Ratsel tomonidan ishlab chiqilgan geosiyosiy qonunlarni aniqlang.
3. F. Ratsel katta davlatlar va geografik ekspansiya to'g'risida qanday fikr bildirgan?
4. F. Ratsel davlatning asosiy xususiyatlariiga nimalarni kiritgan?

47-§. GEOSIYOSATNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHIDA R. CHELLEN VA K. XAUSXOFER ISHLARINING AHAMIYATI

Geosiyosat fanining rivojlanishiga R. Chellen va K. Xausxofer juda katta hissa qo'shgan.

R. Chellen birinchi bo'lib davlat inson kabi sezuvchi, his qiluvchi va o'ylovchi mavjudotdir, degan fikrni aytgan. Davlat Yer yuzasida o'zining kuchiga bog'liq holda mavjuddir. U kurash holatida bo'lib, tirik mavjudotlarga o'xshab so'ladi va halok bo'ladi, deb ta'kidlaydi R. Chellen.

Yashash uchun kurash, R. Chellen fikriga ko'ra, har qanday davlat organizmining mohiyatini tashkil etadi. Urush geografik makonni egallash maqsadida olib borilayotgan ushbu kurashning aniq bir shaklidir.

Kuch-qudrat davlatni ushlab turish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunga nisbatan muhimroq asosdir. Chunki qonunning o'zi faqat kuch orqali ushlab turiladi. Qonun davlatga ma'naviy-axloqiy elementlarni olib kirsa, kuch-qudrat uning faoliyatini ta'minlaydi, deb ta'kidlaydi. R. Chellen davlat o'z nomi bilan maqsaddir, u fuqarolari farovonligini yaxshilashga xizmat qiluvchi organizm emas, degan xulosaga kelgan.

K. Xausxofer (1896—1946) jahonda birinchi geosiyosatchilar matabining asoschisi va tashkilotchisi hisoblanadi. Uning ilmiy izlanishlarida «hayotiy makon» kategoriyasiga katta e'tibor berilgan.

«Hayotiy makon» tushunchasi (kategoriyasi)ning shakllanishi-da F. Maltus ishlari va g'oyalari muhim o'rinn tutadi. F. Maltus aholi o'sishi biologik qonunlar asosida geometrik progressiya bo'yicha, oziq-ovqat mahsulotlari esa arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, degan g'oyani olg'a surgan. Shuning uchun aholining ko'payishi oziq-ovqat mahsulotlarining ko'payishiga nisbatan tezroq bo'ladi. Demak, u aholisi eng zich va eng ko'p mamlakat — Germaniyada urushlarning oldini olib bo'lmaydi, shunday sharoitda tirik qolish uchun «hayotiy makon»ni kengaytirish zarur, degan xulosaga kelgan.

K. Xausxofer boshqa milliy g'oya tarafdorlari kabi, nemis davlatining kuch-qudratini kuchaytirishga harakat qildi. Bu maqsadga esa o'z-o'zidan, mamlakat industrial qudrati va madaniyatini ko'tarmasdan geosiyosiy ekspansiya qilmasdan erishish mumkin emas edi. Germanianing Yevropa qoq markazida joylashganligi

uni tabiiy holda g'arbiy dengiz mamlakatlari — Angliya, Fransiya va kelajakda AQSH ga qarshi qilib qo'yemoqda edi.

Shuning uchun ham Germaniyaning «Atlantika mamlakatlari» bilan siyosiy ittifoq tuzishi xomxayol hisoblanar edi. Bunda Fransiya va Angliyaning hududiy e'tirozlari ham muhim o'rinnegalladi.

Mana shunday fikr-mulohazalar K. Xausxofer geosiyosiy qarashlarining asosi bo'lib xizmat qildi.

Katta davlatlarning kichik davlatlar oldidagi yutuqli jihatlari to'g'risidagi Ratsel g'oyasini o'ziga asos qilib olib, K. Xausxofer Germaniyaning qo'shni kichik davlatlar ustidan hech qanday gapso'zsiz hukmronlik qilishini mutlaq haqiqat deb, Germaniyaning iqtisodiy jihatdan Rossiyanı o'ziga tobe qilib olishini esa asosiy vazifalardan biri deb hisoblardi.

Eslab qoling!



Geosiyosiy ekspansiya — biror-bir davlatning boshqa bir davlatni o'ziga tobe qilish maqsadida bosib olishi.
«Atlantika mamlakatlari» — dengizga chiqish yo'liga ega bo'lgan, uning suvlarini bilan o'rabi turilgan davlatlar.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Davlat to'g'risida R. Chellen qanday fikr bildirgan?
2. Jahonda birinchi geosiyosatchilar maktabining asoschisi kim?
3. K. Xausxofer qaysi davlat dunyoga hukmronlik qiladi deb hisoblagan va nima uchun?
4. Geografik makonni egallash uchun olib boriladigan kurashning asosiy shakli nima?

48-§. X. MAKINDER VA A. MEXENNING GEOSIYOSIY QARASHLARI

Geosiyosiy g'oyalarning rivojlanishida ikki yo'naliш muhim o'rinnegallaydi. Birinchi yo'naliш Angliya—Amerika yo'naliши deb ataladi. Mazkur yo'naliшda asosiy e'tibor dunyoviy (global) geostrategik konsepsiylar tuzishga qaratiladi. Mazkur konsepsiya da dengiz va quruqlik hududlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari va aloqlar, ularning tarkibi va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ikkinchı yo‘nalish — kontinental (quruqlik) yo‘nalishi deb ataladi. XX asrning 40—50-yillarida Germaniya va Fransiya o‘zining eng yuqori darajadagi rivojlanish nuqtasiga yetdi. Mazkur yo‘nalish Yevropa-sentrizim, regional (mintaqaviylik) xususiyatlari bilan ajralib turadi va Yevropa davlatlari ichidagi integratsiya muammlarini o‘rganishga alohida e’tibor beradi.

Birinchi dunyoviy (global) model Angliyada **X. Makinder** (1861—1947) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1914-yilda Buyuk Britaniya Qirollik geografiya jamiyatida «Tarixning geografik o‘qi» deb nomlangan ma’ruzasida «jahon siyosatining o‘q mintaqalari» g‘oyasini ilgari surdi.

Davlat uchun eng qulay geografik o‘rin o‘rtada, markazda, planetar nuqtayi nazaridan esa dunyo markazida joylashganligi bilan asoslanadi. Dunyo markazida Yevrosiyo kontinenti mavjudligi ilmiy jihatdan isbotlab berilgan. Yevrosiyo jami dunyo ustidan nazorat qilish uchun juda qulay kontinentdir.

Makinder o‘zining 1919-yilda nashr qilingan «Demokratik ideal va reallik» nomli kitobida «o‘qmintaqa»ni Xartlend deb atadi. Bu «o‘q mintaqaga» Rossiyanı, g‘arbda Sharqiy va Markaziy Yevropa, sharqda esa Tibet va Mo‘g‘ulistonni kiritdi.

Makinder fikriga ko‘ra, dengizning kuch-qudrati jahondagi kuchlar balansida juda katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham, quruqlik va havodagi kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi dengiz kuch-qudrati samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham Makinder: «Dunyoga hukmdorlik qilishda kontinental (quruqlik) davlatlarning imkoniyatlari behisobdir», — deb ta’kidlagan.

AQSHning qudratli davlatga aylanishi Makinder konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqishga va «Atlantizm» geosiyosat g‘oyasining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bunda **A. Mexen** (1840—1914) g‘oyalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. U «Tarixda dengiz kuchlari» va boshqa qator asarlarida «dengiz kuchlari» tushunchasi asosida geosiyosat konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bunda erkin dengiz savdosi bilan shug‘ullanish A. Mexen g‘oyasining asosini tashkil qiladi. A. Mexen AQSH «dengiz taqdiri»ga ega, buning natijasida u avval Amerika qit’asida, keyinchalik esa butun dunyoda hukmdorlik qiladi, deb hisoblagan.

A. Mexenning geosiyosiy g‘oyalari to‘liq holda XX asr mobaynida AQSHda hayotga tatbiq etildi va yuqori darajada o‘zining samarasini berdi.



Eslab qoling!

«Tarixning geografik o‘qi» — eng muhim va yirik davlatlar hududlari chiziqlar (yoki Xartlend).



Bilimingizni sinab ko‘ring:

1. Geosiyosi g‘oyalaringin rivojlanishida qanday yo‘nalishlar mavjud?
2. Angiyya—Amerika yo‘nalishida asosiy e’tibor nimalarga qaratiladi?
3. Kontinental yo‘nalishda asosiy e’tibor nimaga yo‘naltiriladi?
4. «Xartlend» nima?

49-§. N. SPAYKMEN VA KLASSIK «ATLANTIZM»

N. Spaykmen (1893—1943) geosiyosat nazariyasi va amaliyoti- ga ulkan hissa qo‘sghan amerikalik tadqiqotchidir. U Xartlend potensial makon bo‘lib, mustaqil g‘oyalarni hal qila olmaydi, bu vazifalarni, shu jumladan, dunyoga hukmronlik qilish vazifasini Rimlend bajarishi mumkin, deb hisoblaydi.

N. Spaykmen dunyoni uch qismga, ya’ni Xartlend, Rimlend va olisda joylashgan Afrika va Avstraliya qit’alariga bo‘ladi. Rimlend tarkibiga G‘arbiy va Markaziy Yevropa, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistonni, Uzoq Sharq mamlakatlari va Xitoy kiritilgan.

N. Spaykmenning g‘oyasiga ko‘ra, kim Rimlendni nazorat qilsa, u Yevropada hukmdorlik qiladi, kim Yevrosiyoni nazorat qilsa, u jahon taqdirini hal qiladi.

N. Spaykmen AQSH ni Xartlendga nisbatan ham, Rimlendga nisbatan ham juda qulay o‘ringa ega deb hisoblaydi. U «O‘rtal okean tushunchasi»ni muomalaga kiritdi va Atlantika dunyosi tomonidan Rimlend ustidan o‘rnatilgan nazorat quruqlik kuchlarini mag‘lub bo‘lishiga va Atlantika dunyosi tobe holatga tushishi-ga sabab bo‘ldi, degan xulosaga kelgan.

N. Spaykmen davlat geosiyosiy qudratini ta’minlovchi 10 ta mezonni alohida ajratib ko‘rsatadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) *hudud yuzasining tuzilishi;* 2) *chegaralarining tabiatи;* 3) *aholi soni;* 4) *foydatli qazilmalarning mavjudligi yoki yo‘qligi;* 5) *iqtisodiy va texnologik taraqqiyot;* 6) *davlat moliyaviy quvvati;* 7) *etnik birligi;* 8) *sotsial integratsiyalashish darajasi;* 9) *siyosiy barqarorlik;* 10) *millat ruhi.*

Yuqorida keltirilgan baholash shkalasidan foydalangan holda davlatning umumiy geosiyosiy kuch-qudratini aniqlash mumkin. Agar umumiy baho uncha yuqori bo'lmasa, bunday holat o'z-o'zidan ushbu davlatni boshqa davlatlar bilan strategik ittifoqlar tuzishga majbur qiladi. Bu esa mazkur davlat suverinitetiga ma'lum darajada putur yetkazadi.

N. Spaykmen Ikkinci jahon urushidan so'ng Yevropa davlatlari mustaqilligining pasayishini, AQSH mustaqilligining esa oshishini bashorat qilgan edi. Bu bashorat hozirda, XXI asrda o'zining aniq ifodasini topmoqda. Kuchlar nisbati borgan sari AQSH foydasiga hal bo'lmoqda. Afg'oniston, Iraq, Bosniya, Gersogovina, Kosovo va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan voqealar buni to'la-to'kis tasdiqlamoqda.

Eslab qoling!

Rimlend — tarkibiga G'arbiy va Markaziy Yevropa, Turkiya, Saudiya Arabiston, Iraq, Pokiston, Hindiston, Uzoq Sharq mamalakatlari va Xitoy kiritilgan hudud.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. N. Spaykmen dunyoni qanday qismlarga bo'lgan?
2. N. Spaykmen ishlab chiqqan davlat geosiyosiy qudratini ta'minlovchi mezonlar to'g'risida gapirib bering.
3. «O'rta okean tushunchasi»ning mohiyati haqida so'zlab bering.
4. N. Spaykmen ikkinchi jahon urushidan so'ng qaysi davlatning mavqeyi oshib borishini bashorat qilgan edi?

50-§. GEOSIYOSATDA KONTINENTAL YO'NALISH

Geosiyatdagi kontinental yo'naliш Angliya—Amerika yo'naliшidan farq qilib, mintaqaviy xususiyatga ega.

Fransiyalik olim **J. Gottman** kommunikatsion nazariya asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, faqat kommunikatsiyalar jarayonidagina makonning tabaqalanishi yuz beradi. Ushbu tabaqalanishning markazlari bo'lib shaharlar, davlatlar, madaniyatlar (sivilizatsiyalar) xizmat qiladi. Ammo mazkur jarayon bir yo'naliшda sodir bo'lmaydi, monarxiyalardan so'ng mintaqaviy bo'linish, undan keyin yangi shakldagi birlashmalar vujudga kelishi mumkin. Birlashish, parchalanish geosiyosiy makonning rivojlanishini áks ettiradi.

Yevrosiyoda katta muqobil makonlarning mavjudligi bu yerda siyosiy mustaqil, etnomadaniy o'zlikni anglash, g'oyaviy va dunyoviy qarashlarni aniqlashda erkinlikni saqlab qolishga imkon beradi.

Aynan mana shu jihatlar Rossiyani Germaniyadan, o'z navbatida AQSH yoki Angliyadan ajratib turadi.

Kontinental yo'nalişning «kontinental blok» nazariyasi asoschisi Karl Xausxofer hisoblanadi.

K. Xausxofer davlatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi uning o'z hayotiy makonini kengaytirishga qaratilgan kurashi hisoblana-di, deb ta'kidlagan. Bunga u qo'shni, asosan, kichik davlatlarni bosib olib, o'ziga qo'shish hisobiga erishishi mumkinligini asoslab bergen.

Xausxofer Germaniya qo'shni davlatlar ustidan hukmdor bo'lishi kerak deb hisoblagan. Uning kontinental bloki yoki geosiyosiy o'qi Berlin—Moskva—Tokio yo'nalişiga ega edi. U Rossiya va Yaponiya bilan tuzilgan ittifoq dengiz davlatlari strategiyasini tutib turuvchi kuch deb hisoblardi. Mana shu maqsadga erishish yo'lida Xausxofer va uning safdoshlari «katta makon» konsepsiyasini ishlab chiqdilar.

Xausxofer AQSHning G'arb—Sharq yo'nalişidagi geosiyosiy muammolarini ochib berdi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. J. Gottmanning geosiyosatga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
2. Xausxoferning «geosiyosat» to'g'risidagi fikr-mulohazalari haqida so'zlab bering.
3. Kommunikatsion nazariyaning ma'nosи nimadan iborat?

51-§. ANGLIYA—AMERIKA GEOSIYOSATI RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Geosiyosat rivojlanishidagi uchinchi bosqichning boshlanish davri dunyo geostrategik holatini tubdan o'zgartirishi bilan ifodalandi. Ushbu bosqichda ikki asosiy yo'naliş ajratiladi. Birinchi yo'naliş — «bir quli dunyo» klassik, global geosiyosat sxemalarining davom etishi bilan, ikkinchi yo'naliş esa boshqa tartibga tayanuvchi «asosiy geosiyosat paradigmalari»ga bog'liq holda rivojlanadi.

Angliya—Amerika geosiyosatining birinchi yo‘nalishi doirasidagi vaziyat tahlili Rossiya imperiyasining barham topishi va geosiyosat ziddiyatlarining tugashini bildiradi. Markaziy Yevropa asta-sekin G‘arbiy Yevropa bilan qo‘shilishi, unga intilishi mumkin. G‘arbiy Yevropa bilan Markaziy Yevropa davlatlari o‘rtasidagi yaqinlashish Shimoliy Atlantika harbiy bloki doirasida amalga oshmoqda.

Turkiya, Eron va Pokiston yangi qator «bufer davlatlar»ning vujudga kelishi sababli, mustahkam himoya chizig‘iga ega bo‘ldilar. Bunday holat Rossiya bilan u egallashga intilayotgan janubiy den-giz portlari o‘rtasidagi ko‘rinmas masofani ancha yiroqlashishini ta‘minlaydi va Rossiyani sobiq Ittifoqqa xos «ulkan davlat» bo‘lishiga to‘sinqilik qiladi. **Z. Bjezinskiy** «sovuq urush» xavfi tugagan-dan keyingi davrda geosiyosiy aloqalarning rivojlanishi bashoratini tadqim etadi. U sobiq Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi Yevroсиyo yuragida geosiyosiy vakuum hosil bo‘lishiga olib keldi, deb ta‘kidlaydi.

Z. Bjezinskiy Rossiyaning harbiy-siyosiy salohiyatini qisqartirishda Ukrainianing roli katta bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlab o‘tgan. Shuning uchun ham AQSHning asosiy geosiyosiy vazifa-si — bu Ukrainiani Rossiya ta’siridan ajratish va Yevropa ta’siriga kiritishdan iboratdir. Geosiyosiy tafakkurning mana shunday ko‘ri-nishi Pensilvaniya universiteti professori **E. Rubinstayn** yondashuviga ham xosdir.

Professor E. Rubinstayn dunyoni oltita asosiy geosiyosiy mintaqaga bo‘ladi:

1. AQSH boshchiligidagi Shimoliy Amerika. U dunyoda eng qudratli **mintaqaviy birlashmadir**. Kelajakda bu yerda Shimoliy Amerika konfederatsiyasi barpo qilinishi mumkin, G‘arbiy yarimshar unga tobe bo‘lib qoladi.

2. Yevropa va uning siyosiy bir butunligi iqtisodiy integrat-siyalashuvdan ancha orqada qoladi.

3. Sharqiy Osiyo. Unda Yaponiya hukmdorlik qiladi. Xavfsizlik tizimi barpo qilinmaganligi tufayli, ichki ziddiyatlar kuchayishi mumkin. Bunda Xitoy faollashuvining ahamiyati katta bo‘ladi. Rossiyaga qarashli Uzoq Sharq hamda Janubi Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Yangi Zelandiya Sharqiy Osiyo mintaqasiga tobe holatga tushadi.

4. Janubiy Osiyo. Mazkur mintaqada Hindiston hukmronlik qiladi. Lekin Hindiston bilan uni o'rab turgan davlatlari o'rtasida ixtiloflar qaytarilib turishi mumkin.

5. Musulmon mamlakatlari. Unga Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi davlatlari, Turkiya, Iraq, Eron, Afg'oniston, Pokiston va O'rtal Osiyo davlatlari kiradi.

6. Sobiq Ittifoqning parchalanishi bilan hosil bo'lgan geosiyo-siy vakuum. Bu yerda Rossiya hukmronlik qilishi bashorat qilinmoqda.

Rubinstayn dunyodagi vaziyatni beqarorlashtiruvchi eng muhim omil Xitoy bo'lishi mumkin, deb hisoblamoqda. Kelajakda Xitoy, Rossiya, Eron davlatlari ittifoqi paydo bo'lishi mumkin. Ushbu ittifoq Amerika—Yevropa—Yaponiya ittifoqiga qarshi turadi.

Eslab qoling!

Bir qutbli dunyo — dunyo miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda AQSH ning o'rni beqiyos ekanligini tasdiqlovchi holat.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- 1. Z. Bjezinskiyning bashoratida geosiyosiy muammolar to'g'risida nimalar ta'kidlangan?
- 2. AQSH — Rossiya geosiyosiy munosabatida Ukrainianing ahamiyati qanday?
- 3. Professor Rubinstayn ajratgan geosiyosiy mintaqalarini aniqlang.
- 4. Janubiy Osiyoga qaysi davlatlar kiradi?

52-§. DUNYO GEOSIYOSIY RIVOJLANISHINING ASOSIY PARADIGMALARI

Zamonaviy geosiyosat «ikki blokli mintaqqa» o'rniga kelgan bir qator paradigmalarga ega.

Birinchi paradigmada markaz bilan chetdagi hududlar o'rtasidagi farqlarga diqqat-e'tiborni tortadi. Xuddi shunday holat Janub—Shimol, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ham mavjuddir.

Ikkinci paradigmada asosiy e'tibor o'tgan urushlar o'rtasidagi farqqa qaratiladi. Hozirgi vaqtida inson hayotiga xavf solmaydigan urushlar nazariyasi ishlab chiqilmoqda.

Uchinchi paradigmada davlat siyosatini remiliyllashtirish nazarda tutilgan. Ko'p millatli imperiyalarning parchalanib ketishi bir millatli davlat barpo qilish muammosini keltirib chiqardi. Bunda etnik, sinfiy, diniy ziddiyatlarning barchasi «millat davlat»ini barpo qilishga bo'ysundiriladi.

To'rtinchi paradigmada mintaqaviy tizimlar o'rtasidagi farqlar asoslanadi. Bunday tizimlar markazida mintaqadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi davlat mavjud bo'ladi («Buyuk Eron», «Buyuk Pokiston» yoki «Buyuk Xitoy»).

G. Kissinjer XXI asrda xalqaro tizim kamida oltita kuch makazidan iborat bo'ladi, deb hisoblaydi. Ular AQSH, Yevropa, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Hindiston hamda ko'plab o'rta va kichik davatlardan iborat bo'lishi mumkin. G.Kissinjerning ushbu oltita kuch markazlari turli xil beshta sivilizasiyaga tegishlidir. Shuning uchun u XXI asr har xil sivilizatsiyalarning o'zaro aloqadorligini o'zida aks ettiradi, deb ta'kidlaydi.

Beshinchi parigma sivilizatsiyalar taraqqiyotiga asoslangan paradigmadir. Garvard universiteti strategik tadqiqotlar markazining direktori S.Xangtington «umuman insoniyat» yo'q, faqat ma'lum iuda-xristianlik, islom dini, buddizm va shu kabi sivilizatsiyalar mavjud. Eng katta xavfni mana shu sivilizatsiyalar o'rtasida yuz beradigan harbiy nizolar tug'diradi, deb hisoblaydi.

S. Xangtington o'zining «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» deb nomlangan maqolasida sivilizatsiyalarni eng yuqori darajadagi ijtimoiy-madaniy jamoalar deb atadi. S. Xangtington har bir sivilizatsiyaga faqat uning o'ziga yaqin bo'lgan tarixiy taraqqiyot, din, til, urf-odatlarning umumiyligi, ijtimoiy institutlar bajaradigan vazifalarning yaqinligi va boshqa xususiyatlar xosdir, deb ta'kidlagan.

Uning ta'kidlashicha, xalqaro munosabatlarda sivilizatsiya omilining ahamiyati borgan sari oshib boradi. Ushbu xulosa quydigilar bilan asoslanadi:

1. Sivilizatsiyalar o'rtasida juda katta farqlar (uning asosini din tashkil etadi) mavjud. Ular siyosiy rejimlar o'rtasidagi farqlardan ham kuchlidir.

2. Turli xil sivilizatsiyalarga mansub xalqlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik kuchayib bormoqda. Bunday holat sivilizatsiya doirasi-da o'zlikni anglashning o'sishiga olib kelmoqda.

3. Dinning ahamiyati o'sib bormoqda. Bunday holat ayrim hududlarda fundamentalistik shaklda namoyon bo'limoqda.

4. G'arbning boshqa mamlakatlarga bo'lgan ta'siri pasaymoqda. Bu holat o'z xalqiga xos sivilizatsiya tomirlarini izlash jaryonini kuchaytirmoqda.

5. Kompromiss qarorlar qabul qilishda madaniy farqlarning roli iqtisodiy va siyosiy farqlarga nisbatan past bo'lmoqda, ya'ni madaniy farqlar xalqlar o'rtasidagi aloqalarga konservativ ta'sir ko'rsatmoqda.

6. Iqtisodiy mintaqaviylik kuchaymoqda. Bunda sivilizatsion omil — ko'plab iqtisodiy tashkilotlar va integratsiyalashgan guruhlar asosida yotuvchi madaniy-diniy o'xshashlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Bilasizmi?



Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) (The European Bank for Reconstruction and Development) — Markaziy va Sharqi Yevropa mamlakatlari, shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga yordam ko'rsatuvchi xalqaro bank.

1990-yilda a'zo bo'lgan 42 mamlakat hukumatlari tomonidan 10 mlrd ekyu mablag' bilan tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda.

O'zbekiston 1992-yil boshida YTTBga a'zo bo'ldi va shu yili Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi. 1993-yildan O'zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta boshladи.

YTTB Farg'onaneftni qayta ishlash zavodini jihozlash (umumiyligi 81,5 mln ekyu); energetika ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va Sirdaryo GRESining xalqaro andozalarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan (umumiyligi 25,2 mln ekyu) va Toshkent xalqaro aeroportini ta'mirlash, shuningdek, xavfsizlikni oshirish uchun maxsus jihozlar sotib olish (umumiyligi 43,5 mln ekyu) loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratdi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda YTTB ishtirokida umumiy qiymati 1 mlrd AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 15 ta loyiha amaliyotga joriy etilmoqda (bunda bankning bevosita moliyalashdagi ulushi 597,7 mln AQSH dollariga teng).

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Gesiyosiy paradigmalar haqida so'zlab bering.
2. G. Kissinjer kim va uning qanday geosiyosiy g'oyalarini bilasiz?
3. S. Xangtington kim va u geosiyosiy muammolar to'g'risida qanday fikrlar bildirgan?
4. Birinchi paradigmada nimalarga e'tibor beriladi?

XIII b o b

O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY O'RNI VA KELAJAGI



Aziz o'quvchilar! Sizlar ushbu bobda O'zbekiston dunyo iqtisodiy va siyosiy xaritasida O'zbekistonning geosiyosiy o'rni mavzulari bilan tanishasiz.

Prezidentimiz I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» deb nomlangan kitobida mamlakatimiz geosiyosiy o'rni har tomonlama va chuqur tahlil etilgan. Unda O'zbekiston qulay geostrategik o'ringa ega ekanligi asoslab berilgan. O'zbekiston qulay geostrategik o'ringa egaligidan tashqari O'rta Osiyo mintaqasining iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakati hamdir.

Ushbu mavzular bilan tanishar ekansiz, respublikamizning hozirgi zamon siyosiy va iqtisodiy xaritasida egallagan o'rni to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz.

53-§. O'ZBEKISTON JAHON SIYOSIY VA IQTISODIY XARITASIDA

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, hududi shimoli g'arbda Orol dengiz va Ustyurt platosidan, janubda Afg'oniston bilan Amudaryogacha, sharq va janubi sharq tomonlarda Tyan-Shan va Hisor—Oloy tog'larigacha cho'-zilgan.

Hududining eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, bu yerda qorli cho'qqilar, baland tog' muzliklari, katta vodiylar, keng vohalar bilan birga bepoyon cho'l va qir-adirlar mavjud.

O'zbekistonning maydoni 448,9 ming kv. km, shuning to'rtadan uch qismini tekisliklar va platolar, qolgan to'rtadan bir qismini

tog'oldi hududlari va tog'lar tashkil etadi. Hududning katta qismida mo'tadir iqlim, faqat chekka janubida subtropik iqlim hukmron.

O'zbekistonning makrogeografik o'rni noqulay. U Dunyo okeanidan ancha uzoqda, materik ichkarisida joylashgan. Dunyo okeaniga chiqish uchun shimol tomonda Qozog'iston va Rossiya (Novorossiysk, Naxodka), Latviya (Klaypeda) portlari, janubi g'arb tomonda Fors ko'rfazidagi (Bandyr-Abbos) portga Turkmaniston va Eron hududlari orqali avtomobil va temiryo'llarda borish mumkin. Undan tashqari Qirg'iziston va Xitoy hududlari orqali (Toshkent—Andijon—O'sh—Ergashtom—Qashqar—Tinch okean) Tinch okeanga, Afg'oniston va Pokiston hududlari orqali Hind okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. Ammo oxirgi yo'nalish to'g'risida Afg'onistondagi siyosiy vaziyat yanada yaxshilanganidan keyingina so'z yuritish mumkin.

O'zbekistonning mezogeografik o'rni ham makrogeografik o'rniga o'xshab ketadi. Shu bilan birga mamlakatning mikrogeografik (ya'ni O'rta Osiyo mintaqasidagi) o'rni qulay deb baholanadi. O'zbekiston O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida joylashgan, shuning uchun uning hududi boshqa mamlakatlar uchun ko'priq vazifasini bajaradi (*30-rasm*).

O'zbekiston xilma-xil tabiiy, ayniqsa, mineral resurslarga boy mamlakat. U O'rta Osiyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatdir. Unda sug'orma dehqonchilik va u bilan bog'liq paxtachilik, ipakchilik va qorako'lchilik yuqori darajada taraqqiy etgan. Shu sababli, O'zbekiston paxta, pilla yetishtirish hamda qorako'l teri tayyorlash bo'yicha jahon mamlakatlari orasida yuqori o'rirlarni egallab kelmoqda.

O'zbekiston rivojlangan sanoat majmuiga ega. Sanoat tarmoqlari ichida elektroenergetika, yoqilg'i sanoati, mashinasozlik (traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, avtomobilzoslik), kimyo va neft-kimyosi, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 2005-yilda 3,0 mln tonna ko'mir, 5,4 mln tonna neft, 60 mlrd kub m tabiiy gaz qazib olindi. Tabiiy gazning deyarli 20 foizi eksport qilinadi. Mamlakatimiz dunyoda oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, mis va uran rudalari qazib olishda ham yuqori o'rirlarni egallaydi.

O'zbekiston kimyoviy xomashyo resurslari (osh va kaliy tuzlari, fosforlar), bezak toshlari (granit, marmar) va qurilish



30-rasm. Markaziy Osiyo davlatlari.

materiallarining katta zaxiralariga ega. Bularning barchasi jahon miqyosida mamlakat obro'sini ko'taradi va uni dunyoga mashhur qiladi.

Shu bilan birga, mineral resurslar, ayniqsa, strategik ahamiyatiga ega resurslarning (oltin, gaz) katta zaxiralari mavjudligi O'zbekistonning geostrategik ahamiyatini oshiradi. Agar mineral resurslarga yer-suv resurslari qo'shilsa, mamlakat ahamiyati yanada yuqoriga ko'tariladi. Chunki yer-suv resurslari asosida dehqonchilik ekinlari yetishtiriladigan sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Respublikada 4 mln gektarga yaqin sug'orma yerlar mavjud. Bu MDH mamlakatlari ichida Rossiyadan keyingi ikkinchi ko'rsatichidir. Sug'orma yerlarning deyarli 95 foizi haydaladigan yerlardan iborat. Haydaladigan yerlarga yana bahorikor dehqonchilik yerlari ham qo'shiladi. Haydaladigan yerlarning umumiy maydoni 4 mln gektardan oshadi.

Inson resurslarining 55,2 foizini mehnat resurslari tashkil etadi.

O'zbekiston aholisining soni 2006-yil 1-yanvar ma'lumotlariga ko'ra 26,3 mln ga yetdi. Shundan 14,4 mln kishi mehnat resurslarini tashkil etdi. O'zbekiston aholi soni bo'yicha jahondagi 230 ta mamlakat ichida 37-o'rinni egallaydi. Jami aholining 36,1 foizi shahar va shaharchalarda, 63,9 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shahar aholisining hissasiga ko'ra O'zbekiston O'rtta Osiyo-da Turkmanistondan keyingi o'rinda turadi. Lekin mintaqadagi shahar va shaharchalarning asosiy qismi, shu jumladan, yirik va katta shaharlarning ko'pchiligi O'zbekistonda joylashgan.

O'zbekiston dunyo miqyosida tabiiy gaz qazib olish bo'yicha 5—6-o'rnlarni egallaydi. Mamlakat aholi jon boshiga hisoblaganda elektroenergiya (1800 kVt/soat), mineral o'g'itlar, sement ishlab chiqarish bo'yicha ham jahon mamlakatlari ichida munosib o'rnlarni egallaydi hamda qator Osiyo va Afrika mamlakatlaridan oldinda turadi.

Eslab qoling!

Geografik o'rinni — tarixiy kategoriya bo'lib, u biron obyektning boshqa obyektga nisbatan qanday joylashganligi, uning sabablari va omillari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi.

Tekislik — Yer yuzasining mutlaq balandligi 400 metrgacha bo'lgan tekis qismi.



Shahar — aholisi soni 7 ming kishidan kam bo'Imagan, ish bilan band aholisining kamida uchdan ikki qismi qishloq xo'jaligi bilan aloqador bo'Imagan tarmoqlarda mehnat qilayotgan manzilgoh.

Shaharcha — aholisining soni 3 ming kishidan kam bo'Imagan, ish bilan band aholisining kamida yarmi qishloq xo'jaligi bilan aloqador bo'Imagan tarmoqlarda mehnat qilayotgan manzilgoh.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. O'zbekiston hududiga xos xususiyatlarni aytib bering.
2. Mamlakatning mikrogeografik o'rni qanday?
3. O'zbekiston Dunyo okeaniga chiqish uchun qanday yo'llarga ega?
4. O'zbekistonda qaysi tovar mahsulotlari ishlab chiqariladi?
5. O'zbekiston qaysi mineral resurslari bilan dunyo mamlakatlari o'rtasida munosib o'rirlarni egallaydi?
6. O'zbekiston qaysi qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha dunyoda oldingi o'rnlarda turadi?
7. Mamlakat aholisining soni bo'yicha O'rta Osiyoda va dunyoda qanday mavqega ega?
8. O'zbekiston qaysi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyo mamlakatlari o'rtasida ajralib turadi?

54-§. O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY O'RNI

1991-yilda sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi uning asosida qator mustaqil suveren davlatlarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, o'zining ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqish, boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish borasida muhim tadbirlarni amalga oshirdi.

Sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi va O'zbekistonning Davlat mustaqilligiga erishishi natijasida mamlakatimizda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:

1. Ilgari «markaz» tomonidan boshqarilgan vazifalarni endi O'zbekistonning o'zi mustaqil ravishda bajarishiga to'g'ri kelmoqda.

2. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bunda rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish ushbu masalalarning nazariy va amaliy muammolari yechimini taqozo etmoqda.

3. O'zbekiston boshqa O'rta Osiyo davlatlari kabi Rossiya bilan janub va janubi g'arbida joylashgan Pokiston, Eron va Turkiya davlatlari o'rtasida «bufer—davlat» rolini bajarmoqda.

4. O'zbekiston O'rta Osiyoda egallagan qulay geostrategik o'rni, boy va xilma-xil tabiiy resurslari, tabiat bilan ko'pchilik davlatlar, shu jumladan, AQSH va Rossiya e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Bunday sharoitda hech ikkilanmasdan yagona yo'lни tanlab olish zarur. Bu o'rinda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tomonidan tanlangan yo'l, ya'ni Rossiya pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash — hozirgi vaqtdagi eng haqqoniy va maqbul yo'ldir. Shu bilan birga O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan o'rnatilgan aloqalarini davom ettirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Eslab qoling!

O'rta Osiyo — tarixiy-geografik hudud. O'rta Osiyo birinchi bor xorij (rus) sayyohlari tomonidan XIX asrda tilga olingan. Hozirgi vaqtida O'rta Osiyo mintaqasi sifatida qabul qilingan.

Bilimingizni sinab ko'ring:

- ?
- 1. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka qachon erishdi?
- 2. O'zbekiston gerbi va bayrog'i qachon qabul qilingan?
- 3. O'zbekistonning geosiyosiy salohiyatini qanday baholaysiz?
- 4. O'zbekistonning O'rta Osiyoda egallagan qulay geostrategik o'rni qaysi davlatlarning e'tiborini tortmoqda?

XIV б о б

HOZIRGI ZAMONNING GEOSIYOSIY MUAMMOLARI



Sayyoramizda ikki qutbli dunyoning o‘rniga bir qutbli dunyoning paydo bo‘lishi unda mavjud muammolar sonining sezilarli darajada kamayishiga olib kelmadi. Bugungi kunda, dunyoda yangi-yangi muammolar vujudga kela boshladiki, ularning ba’zilari insoniyatning qiyin ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday muammolar qatoriga demografik, ekologik, davlatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqarish va geosiyosiy muammolar ham kiritilmoqda.

Geosiyosiy muammolarning kelib chiqishi va chuqurlashishi avvalo jahonda yirik hisoblangan, katta harbiy qudratga ega bo‘lgan davlatlar faoliyati bilan bog‘liq (Rossiya, AQSH, Xitoy). Shuning uchun ham bunday muammolarning mavjudligi yoki mavjud emasligi mamlakatimizning ushbu davlatlar bilan o‘rnatgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy aloqalariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Muammolarning chuqurlashishi va turli shakllarda sahnaga chiqishida globallashuv jarayonining o‘rni va ahamiyati kundan kunga kuchayib bormoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonga madaniyati yaqin, dini bir bo‘lgan mamlakatlarning dunyo geosiyosiy tizimida egallagan o‘rni, binobarin, ularni globallashuv jarayonidagi ishtiropi ham katta ahamiyatga egadir.

55-§. ROSSIYADAGI HOZIRGI GEOSIYOSIY VAZIYAT

Geostrategik nuqtayi nazardan Rossiya Yevrosiyo bilan bir mazmunga ega deb hisoblanadi. U esa o‘z navbatida Xartlend tushunchasi yoki Makinder fikri bo‘yicha, «Tarixning geografik o‘qi» bilan bir mazmunga egadir. Rossiya Yevrosiyo g‘arbi bilan

Yevrosiyo sharqini birlashtiradi va o'ziga xos madaniyati bilan ajralib turadi. Sobiq Ittifoqning 1991-yilda parchalanib ketishini bugungi kun nuqtayi nazaridan baholash nihoyatda mushkul. Chunki 1991-yildan keyingi davr juda qisqa vaqt ni o'z ichiga oladi.

Parchalanishdan keyin vujudga kelgan davlatlarning bozorlari necha o'n yillar mobaynida o'zlarini ishlab chiqargan tovarlarga moslashgan bo'lib, bu tovarlar G'arb mamlakatlari va jahon tablalariga javob bermas edi. Rossiyadagi iqtisodiy o'zgarishlar asosini mineral resurslar, avvalo neft va tabiiy gaz eksportidan olinayotgan daromad qoplamoqda.

Sobiq Ittifoq parchalanishi natijasida Rossiyaga xos «yo'qtishlar» quyidagilardan iborat: a) Boltiq va Qora dengizlarga chiqish yo'llari va ularda mavjud portlar soni keskin qisqardi; b) Qora, Kaspiy va Boltiq dengizlardagi shelflar qisman Markaziy va G'arbiy Yevropaga to'g'ri olib boradigan yo'llar yo'qtildi; e) Rossiya asosan past darajada rivojlangan davlatlar bilan chegaralanmoqda; f) Rossiya sharqidagi o'ziga xos demografik vakuum xitoylik va vietnamliklar tomonidan to'ldirilmoqda; j) chegaralari mustahkamlanmagan.

Undan tashqari, Rossiyada aholi turmush darajasidagi mintaqaviy farq (hozir 1:14 nisbatni tashkil etadi) tobora kattalashib bornmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: iqtisodiyotning xomashyoga yo'naltirilganligi; Moskvadagi moliyaviy markazlar va yoqilg'i-energetika majmuasi hamda oligarx-axborot tizimlari rahbarlarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri; moliya resurslarining 95 foizdan ortiq qismi Moskva, Sankt-Peterburg va Yekaterinburg kabi shaharlarda to'planishidir. Shuning 80 foizi Moskva shahriga to'g'ri keladi. Bu vaqtning o'zida Shimoliy Kavkaz respublikalari juda kam miqdordagi moliyaviy resurslarga ega. Ularda har bir ish joyiga salkam ikki yuzta ishsiz to'g'ri keldi. Shunday qilib, Rossiya yangi, XXI asrga juda ko'p pozitsiyalardan mahrum bo'lgan holda, iqtisodiy muammolari mavjud davlat sifatida kirdi. Rossiyaning erkin mablag'lari yo'q, u dunyo miqyosida katta tadbirlarni amalga oshirishga qodir emas, lekin Rossiya qudratli harbiy-sanoat majmuyiga ega.

Eslab qoling!

Aholining turmush darajasi — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi ichki yoki milliy mahsulot.

Daromadi past davlat — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy mahsulot 745 AQSH dollaridan kamni tashkil etuvchi davlat.

Qashshoq davlat — yuqoridagi ko'rsatkich 200 AQSH dollaridan kamni tashkil etuvchi davlat.

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. «Rossiya o'ziga xos madaniyati bilan ajralib turadi» degan iborani qanday tushunasiz?
2. Rossiya qanday resurslarga boy?
3. Sobiq Ittifoqning parchalanishi Rossiya uchun qanday oqibatlar olib keldi?
4. Rossiyada aholi turmush darajasidagi mintaqaviy farqning sabablarini aniqlang.

56-§. ROSSIYANING YANGI GEOSIYOSIY SIFATI

Rossiya shakllanayotgan vaziyat va har xil holatlarga bog'liq holda ikkinchi darajali davlat sifatida ham, mintqa yetakchisi sifatida ham, yadro salohiyati ulkan super-davlat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Rossiya yaqin-yaqinlargacha oziq-ovqat mahsulotlarining 30 foizdan ortiq qismini import qilar edi. Bu millat xavfsizligiga katta putur yetkazish demakdir. 2005-yilda yig'ib olingen don salkam 95 mln tonnani tashkil etdi. Bu esa don importini to'xtatishga sabab bo'ldi. Shu bilan birga davlat xarid narxlarining juda pastligi ko'plab fermer va dehqon xo'jaliklarining xonavayron bo'lishiga sabab bo'ldi. Natijada ko'pchilik dehqonlar keyingi davrda don ekishdan voz kechdilar.

Shunga o'xshash holat Rossiya yoqilg'i-energetika majmuyida, baliqchilikda, harbiy sanoat majmuyida ham kuzatilmoqda.

Ana shunday vaziyatda Rossiyaning yaqin kelajakdagi geosiyosiy mavqeい qanday bo'lishi mumkin? Bunday savol nafaqat ruslar va rossiyalklarni qiziqtiradi, balki u boshqa qo'shni davlatlar uchun ham muhim hisoblanadi. Chunki «qo'shning tinch — sen

tinch» degan naql uzoq yillar davomida barqarorlik omili rolini bajarib kelgan.

Shu yo'nalishda qator savollar va muammolar kelib chiqadiki, ularga javob olish bugungi kunning eng muhim masalalaridandir.

1. Rossiya raketa-yadro qurolini saqlab qola oladimi?
2. Rossiya iqtisodiyotini sog'lomlashtira oladimi? Qayta ishlov-chi sanoatini takomillashtirish va rivojlantirish o'zining qo'lidan keladimi?
3. Ijtimoiy sohani rivojlantira oladimi?
4. Rossiya o'zining tashqi iqtisodiy munosabatlarni qanday amalga oshiradi?
5. Rossiya G'arb mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi hamda AQSH bilan hamkorlik qiladimi?
6. Rossiya sobiq Ittifoq respublikalari, hozirgi mustaqil davlatlar bilan qaysi sohalarda aloqalar o'rnatadi?

Shu va shunga o'xhash boshqa savollarga obyektiv javob olish mumkin emas. Aytish lozimki, yaxshi rivojlanib borayotgan Rossiya—AQSH munosabatlari Iroq urushi tufayli birmuncha sustlashdi. Umuman XX asrning so'nggi yillarda shakllanib kelayotgan yangi iqtisodiy tartib barham topdi. Iroq urushi bir-ikki davlat ittifoqi butun jahon hamjamiyatidan ustun bo'lishi mumkinligini, jahonda yangi AQSH davri, bir qutbli dunyo davri boshlanganligini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy salohiyati past davlatlar unga tobe bo'ladi yoki boshqa o'ziga o'xhash davlatlar bilan ittifoq tuzishga urinadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda Rossiyaning Xitoy, Indoneziya, Hindiston, Eron bilan har xil shakllarga ega ittifoqlar tuzishi mumkinligi ehtimoldan uzoq emas.

Rossiya iqtisodiyoti rus millati mentaliteti kabi o'zgarishlarga asta-sekin yon beradi. Bu esa yaqin o'rtada yana ikki qutbli dunyo barpo bo'lishi mumkinligini inkor qiladi. Rossiya kamida 10—15 yil ichida o'zining ichki muammolarini, birinchi navbatda hududiy xavfsizlik muammolarini hal qilishi lozim bo'ladi. Bu holat uning geosiyosiy mavqeyini belgilab turadi.



Eslab qoling!

Budget — davlat daromadlari va xarajatlarining ma'lum bir davrdagi nisbati.

A B C D E F G

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. Rossiyaning qaysi tarmoq va sohalari geosiyosiy ahamiyat kasb etadi?
2. Rossiya uchun eng dolzARB muammolar to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Rossiya qanday tashqi siyosat olib boradi va u geosiyosatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Rossiya siyosati haqida o'z fikr-mulohazalariningizni ayting.

57-§. GEOSIYOSIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA AQSHNING O'RNI

1783-yilda Amerika bilan Angliya o'rtasida imzolangan Versal shartnomasi AQSHning Angliya ustidan g'alabasini tasdiqladi va bu shartnomasi hozirgi vaqtida ham dunyodagi eng qudratli davlatga poydevorlik vazifasini o'tamoqda.

XX asr oxiri va XXI asr boshida AQSH uchun globallashuv g'oyalarini hayotga tadbiq etish kundan kunga qiyin bo'lib bormoqda. XX asr 80-yillarining o'rtalariga kelib AQSH eksport-import «urush»ida eng muhim pozitsiyalaridan mahrum bo'ldi. Xuddi shunday vaziyat kapital eksportida ham yuz berdi. Hozirgi vaqtida AQSH o'ziga eng yaqin turgan Yaponiya va Germaniyaning «nafasi»ni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning barchasida sezib turibdi.

Shunga qaramasdan bugungi kunda iqtisodiy kuch-qudrati bo'yicha AQSH dunyoning barcha davlatlari ichida tengi yo'q hisoblanadi. Chunki AQSH bilan ikkinchi o'rinda borayotgan Yaponiya o'rtasidagi farq deyarli 4,5 baravarni tashkil etadi.

Bugungi kunda AQSH xalqlar taqdirini hal qilishdek murakkab va mas'uliyatli bo'lgan vazifani bajarishi kerak, deb ta'kidlaydi Prezident J. Bush. U AQSH Yevrosiyo uchun aniq va ravshan taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi lozim, deb hisobla-moqda.

AQSH g'oyalarini Yevrosiyoda hayotga tatbiq etishda asosiy rolni materik g'arbidagi Fransiya va Germaniya o'ynaydi. Materik sharqida Xitoy mavqeyining kundan kunga oshib borish Vashington bilan Pekin o'rtasida siyosiy konsensus o'rnatishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda AQSH geosiyosatchilari, avvalo Z. Bjezinskiy fikriga ko'ra Rossiya, Yevrosiyo va dunyo miqyosida emas, balki mintaqqa miqyosida ahamiyatga ega davlat ekanligini tan olishi lozim. Rossiya janubida vujudga kelgan etnik mojarolarni «buyuk

davlat»lar (AQSH, Xitoy, Yaponiya, Turkiya) ijobiy tarzda hal qilishlari kerak.

AQSH geosiyosatchilar, avvalo Z.Bjezinskiy NATO va Yevropa ittifoqini sharqqa tomon kengaytirishni davom ettirish lozim, deb hisoblashmoqda. Hozirgi kunga kelib Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Polsha, Chexiya, Vengriya NATO a'zolari bo'ldilar va Yevropa Ittifoqiga qabul qilindilar. 2004-yilda Boltiqbo'yı davlatlari — Latviya, Litva, Estoniya va boshqa Sharqiy Yevropa davlatlari 2006-yilda esa Bolgariya va Ruminiya davlatlari ham Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishdi. Eng muhim voqealar qatoriga 2010-yilgacha bo'lgan davrda Ukrainiani NATO ga qabul qilinishi kiritilmoqda. Shunday qilib, AQSH geosiyosatchilar bashorat qilgan dunyoning yangi geosiyosiy holati shakllana boshladi.



Eslab qoling!

Siyosiy konsensus — ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida imzolangan siyosiy kelishuv to'g'risidagi shartnoma.



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Globallashuv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun AQSH dunyoning eng qudratli davlati hisoblanadi?
3. AQSH Prezidenti nima deb ta'kidlamoqda?
4. Z. Bjezinskiyning geosiyosiy qarashlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

58-§. AQSHNING O'RTA OSIYO VA BOSHQA HUDUDLARDAGI GEOSIYOSIY MANFAATLARI

AQSH manfaatlari dunyoning deyarli barcha mintaqalarida mavjud. O'rta Osiyo mintaqasida AQSH manfaatlari Turkiya va Xitoy manfaatlari bilan to'qnashadi. Turkiyaning o'zida G'arb va Islom tarafдорлари bir-biriga qarama-qarshi turadi.

AQSH o'zining geosiyosiy manfaatlarini Afg'onistonda tartib o'rnatishtdan boshladi. Buning uchun u O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan ularda mavjud aerodromlardan foydalanish bo'yicha shartnomalar imzoladi. O'zbekiston keyinchalik ushbu shartnomani bekor qildi. AQSH O'rta Osiyo davlatlaridan tashqari

Ozarbayjon va boshqa davlatlar bilan o‘z aloqalarini yaxshilashga harakat qilmoqda. Bu o‘rinda uning Ozarbayjon neftini Turkiya porti Seyxanga eksport qiluvchi quvur qurilishini qo‘llashi diqqatga sazovordir.

AQSH Eronda barpo qilinayotgan AES qurilishini qoralab, asosiy aybni Eron va asbob-uskunalar yetkazib berayotgan Rossiyaga qo‘ymoqda.

AQSH—Xitoy munosabatlarining asosiy maqsadi Xitoya mintaqaviy muammolar bilan cheklanib, global muammolarga aralashmaslik tamoyilini tushuntirishdan iboratdir. Amerikaliklar Xitoy tomonidan Tayvanni kuch orqali qo‘shib olish maqsadida amalga oshirilgan har qanday faoliyat AQSH investitsiyalar oqimi ni to‘xtatib qo‘yishga sabab bo‘lishi mumkin, deb ta’kidlamoqdalar. Lekin investitsiyalarning asosiy qismi AQSH, Yevropa mam-lakatlari yoki Yaponiya tomonidan emas, balki Tayvan va Xuatsyu, ya’ni xorijda yashovchi xitoyliklar tomonidan ta’minlanmoqda. Janubi Sharqiy Osiyoda joylashgan 500 ta korxonaning umumiy qiymati 540 mlrd dollarni tashkil etadi. Ana shu jihatlarni hisobga olmaslik Amerika—Xitoy munosabatlariga putur yetkazishi va AQSH ni Sharqiy va Janubi Sharqiy Osiyodagi geostrategik manfaatlardan mahrum qilishi mumkin. Shuning uchun AQSH Xitoy uni «tabiiy ittifoqdoshi» sifatida qabul qilishini juda xohlamoqda va bu maqsadga erishish uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda.

Ana shu va boshqa maqsadlarini hayotga tatbiq etishda AQSH o‘zining doimiy, barqaror ittifoqdoshi — Yaponiyaga tayanmoqda va u bilan bo‘lgan munosabatlarni mustahkamlashga katta e’tibor qaratmoqda.

Eslab qoling!



Janubi Sharqiy Osiyo Bruney, Myanma, Tailand, Laos, Vietnam, Kambodja, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Filippin va Sharqiy Timor davlatlaridan iborat.

Sharqiy Osiyo Xitoy, Mo‘g‘uliston, Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Tayvan davlatlaridan tashkil topgan.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. AQSH manfaatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. AQSH—Eron, AQSH—Afg'oniston, AQSH—Ozarbayjon munosabatlari qanday?
3. AQSH—O'rta Osiyo davlatlari o'ttasidagi munosabatlarga qanday qaraysiz?
4. AQSH—Xitoy munosabatlari qanday?
5. AQSH bilan Yaponiya o'ttasidagi munosabatlar do'stona yo'nalishda bo'lishiga sabab nima?

59-§. XITOY GEOSIYOSIY YO'LNING MOHIYATI

Bir necha yuz yillar mobaynida Xitoyning geosiyosiy qarashlari ikki tomonlama xususiyatga ega edi. Bunday holat birinchidan, Xitoy, ya'ni «O'rtalik qirolichasi»ning qadimgi nomi Rimlandga qarashliligi va ikkinchidan, Xitoyning hech qachon dengiz mammalakati bo'limganligi bilan bog'langan.

Xitoy XX asrning 70-yillaridan «Atlantik» geosiyosat olib bora boshladi. Bunday holat Xitoy islohotlarining «otasi» Den Syao-pinning pragmatik falsafasi bilan bog'landi. Ana shunday geosiyosat Xitoyma g'arbdan katta dividendlar olishga imkon berdi. Xitoy g'arbdan pul, kredit va texnologiyalar olib, iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan rivojlanтирishga erishdi.

Xitoy o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega. Mazkur xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) tabiiy resurslarning chegaralanganligi; b) juda katta inson resurslariga ega ekanligi; d) ish kuchlarining nihoyatda arzonligi. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari tufayli Xitoyda so'nggi paytlarda qator muhim tabiiy resurslarning yetishmasligi kuzatilmoqda (ko'mir, temir va mis rudasi, alumin xomashyosi, o'g'itlar). Hozirgi paytda Xitoyning qishloq aholisi 800 million kishini tashkil qiladi, ularning 700 millionni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band, 100 millioni esa ishsiz, shuning uchun har yili 10 million kishi qishloqlardan shaharlarga ish qidirib ko'chib ketadi.

Jahon bankingin ma'lumoti bo'yicha XXI asr boshlarida Xitoyning tashqi savdo aylanmasi 650 mlrd dollar, Yaponiyaniki esa 850 mlrd dollarga teng bo'lmoqda. Bu paytda uning yalpi ichki mahsuloti deyarli 3 trillion dollarni tashkil qiladi. Bu Xitoyni

muhim iqtisodiy qutbga aylantiradi. Hozirgi paytda Xitoy geosiyosiy maydonning rivojlanish o'qlarini va kuchlarini aniqlab beradigan davlatlar qatoriga kirib oldi.

Xitoy dunyodagi aholisi eng ko'p mamlakatdir. Uning aholisi XXI asr o'rtasida 1,5 mlrd kishiga yetishi mumkin. Xitoyda investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish davlat tomonidan reja asosida boshqarilmoqda. Davlatning eksport imkoniyatlarini kuchaytiradigan yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish davlat tomonidan rejalashtirilmoqda.

Bu davlatni tez sur'atlar bilan rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — Yevrosiyodagi eng katta ichki bozorga ega ekanligi va harbiy qudratining tez sur'atlar bilan ortib borishidir.

Rossiya — Xitoy munosabatlari keyingi yarim asr mobaynida keskin o'zgardi. XX asrning 50-yillarida «uka» bo'lgan xitoyliklar hozirgi vaqtida iqtisodiy qudratiga ko'ra «aka»ga aylandi. Barcha yo'nalishlar doirasida Xitoy tashabbusga ega.

Shunday qilib, Xitoy XXI asrga kelib dunyo geosiyosatiga katta ta'sir ko'rsata boshladi.

Eslab qoling!

Dividend — aksiyadorlik jamiyatি daromadining bir qismi. U har yili aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Kredit — qaytarib berish sharti bilan ma'lum vaqtga va ma'lum foizga pul yoki tovar holatida berilgan ssuda (qarz).

Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Xitoyning geosiyosiy qarashlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Xitoy islohotlarining «otasi» kim va u qanday iqtisodiy siyosat olib borgan?
3. Xitoy — Rossiya munosabatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Xitoy bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar qaysi yo'nalishda rivojlansa, ular uchun manfaatli bo'ladi?

60-§. O'ZBEKISTONGA MADANIYATI YAQIN BO'LGAN MAMLAKATLAR DUNYO GEOSIYOSIY TIZIMIDA

Eronda shoh rejimi qulaganidan so'ng u yildan yilga o'zining mintaqaviy geosiyosiy mavqeyini mustahkamlab bormoqda. Eron davlati Yaqin va O'rta Sharqda, O'rta Osiyo va Rossiyada katta obro'ga ega. Eron hozirgi vaqtida G'arb bilan ham konstruktiv aloqalar o'rnatishga intilmoqda. 1997-yil dekabr oyida Tehron shahrida Islom konferensiysi tashkiloti a'zolarining sakkizinchisi yig'ilishi o'tkazildi. Undan kutilgan asosiy maqsad — Eron bilan Arab mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga erishildi. Eronning islom va boshqa dinga qarashli mamlakatlar bilan munosabatlarni yaxshilashga. intilishi uning tashqi siyosatini mafkuradan holi bo'lganligini ko'rsatmoqda Eron, ayniqsa, Rossiya bilan yaxshi aloqalar o'rnatishga erishdi. Eronga bo'lgan e'tiborning kuchayishi uning yaqin kelajakdagisi roli bilan bog'lanan. Eron XXI asr o'rtalarida Janubi G'arbiy Osiyo mintaqasining yetakchi davlatiga aylanishi mumkin.

XX asrning keyingi o'n yilliklarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida Eronning Turkiya va AQSH bilan bo'lgan munosabatlari yaxshilandı. Iroq va Isroil bilan esa bir-muncha yomonlashdi, Turkiya va Isroilning Rossiya bilan bo'lgan munosabatlari yana ham «uzoqlashdi». Shu vaqtning o'zida Iroq va Eronning Rossiya bilan bo'lgan aloqalari kuchaydi.

O'zbekiston—Eron munosabatlari ikkala tomonga ham manfaat keltiruvchi yo'nalishda o'zaro do'stlik, hamkorlik ruhida rivojlanmoqda.

Turkiya O'rta Osiyodagi barcha davlatlar bilan iqtisodiy sohada hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirmoqda. Shu ma'noda O'zbekiston—Turkiya munosabatlari ham teng huquqlilik, hamkorlik asosida rivojlanmoqda.

Eslab qoling!

Janubi G'arbiy Osiyo mintaqasi tarkibiga Turkiya va Isroildan tashqari Arab mamlakatlari — Suriya, Livan, Jordaniya, Iroq, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Oman, Yaman kiradi.

Bilasizmi?



Yevropa—Osiyo transkontinental avtomagistrali — Xitoy va Markazi Osiyo mamlakatlarini Rossiya orqali G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan bog'laydi-gan avtomagistral. Jahondagi eng yirik avtomagistrallardan biri. Rotterdam (Gollandiya) — Shanxay (Xitoy) portlarini bog'laydi.

Umumiy uzunligi 10 ming km dan ortiq. Avtomagistralning O'zbekiston hududidan o'tadigan qismi — Andijon—Toshkent—Nukus—Qo'ng'irot trassasi umumiy uzunligi 1422 km, barcha kirish yo'llarining uzunligi 500 km bo'lib, Farg'onaviyoti viloyatlaridan boshlanib, so'ngra Toshkent, Sirdaryo, Zizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari va Qizilqum orqali Xorazm viloyati hududidan o'tib, Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti Nukusga chiqadi.

Magistral Afg'oniston va Turkmaniston yo'nalishidagi xalqaro trassalarini ham kesib o'tadi. Ushbu magistralni loyihalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-avgust qarori asosida 1999—2000-yillarda amalga oshirildi. Loyihalashtirishning subpudrat shartnomalarida ilg'or xorijiy davlatlarning loyihalash institutlari ham ishtirot etgan. Loyihalash yechimlari jahon standartlari darajasida qabul qilinib, qurilgan yangi trassa avtotransport vositalarining katta tezlikdagi harakatini ta'minlovchi O'zbekiston milliy magistralliga aylanadi.

Magistral mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Trassaning qurilishi bilan yaqin kelajakda yo'l atrofi cho'l hududlarini o'zlashtirishga yanada qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Yevropa—Osiyo transkontinental avtomobil yo'lining O'zbekistondan o'tadigan qismi



Bilimingizni sinab ko'ring:

1. Eron hozirgi vaqtida qanday geosiyosat olib bormoqda?
2. O'zbekiston — Turkiya munosabatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Afg'oniston bilan qaysi daryo orgali chegaradosh?

61-§. KELAJAK GEOSIYOSIY VAZIYATIGA BIR NIGOH

Darhaqiqat, O'zbekiston tanlagan yo'l kelajakda o'zining samarasini berishi hech kimda shubha tug'dirishi mumkin emas. O'zbekiston qabul qilgan yo'l — ro'shnolikka olib chiquvchi yagona yo'ldir.

Bunday vaziyatda asosiy muammo O'zbekistonning boshqa yo'l va siyosatga ega bo'lgan davlatlar o'rtasida o'zini qanday tutishiga bog'liqdir. Bu muammolar yechimi to'g'risidagi savolga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida aniq javob berilgan. «Markaziy Osiyoda siyosiy-geografik jihatdan markaziy o'rinda turgan O'zbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini ta'minlash imkoniyatlariga ega. O'zbekiston hududi o'zining mavjud va potensial tabiiy va xomashyo zaxiralari bilan hozirda yoq jahonning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan, katta ma'naviy va madaniy kuch-qudratga ega bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali butun Markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati ochiladi»*.

Bozor iqtisodiyoti yo'lidan borayotgan har qanday davlat o'zining ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini avvalo ikki tomonlama shartnomalar, shuningdek, ko'p tomonlama teng huquqli shartnomalar asosida tuzishi va amalga oshirishi lozim. Faqat mana shunday obyektiv yo'lgina O'zbekiston Respublikasiga haqiqatan ham mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi.

*Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998, 600-b.

Bilasizmi?



Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) — yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi) — Nyu-York shahrida joylashgan.

BMTning asosiy organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS), Vasiylik kengashi, BMT huzuridagi Xalqaro sud va BMT Kotibiyati — Bosh kotib va boshqa xodimlardan iborat.

Bosh kotibni Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga muvofiq Bosh Assambleya 5 yil muddatga tayinlaydi.

Bilimingizni sinab ko'ring:



1. O'rta Osiyoda hozirgi mavjud siyosiy vaziyatni baholang.
2. O'zbekistonning tashqi munosabatlarni rivojlantirishda tutgan yo'li haqidagi fikringni bayon eting.
3. «Buyuk ipak yo'li»ning tiklanishi O'zbekistonga qanday siyosiy va iqtisodiy qulayliklar yaratadi?
4. O'zbekiston Atlantika okeaniga qaysi davlatlar orqali chiqadi?

MUNDARIJA

Kirish	3
Birinchi bo‘lim	
I b o b. Amaliy geografiyaning maqsadi va vazifalari	4
1-§. Amaliy geografiya fani haqida	4
2-§. Amaliy geografiyaning tadqiqot usullari	6
3-§. Amaliy geografiyaning ahamiyati	8
II b o b. Amaliy geografik tadqiqotlar	12
4-§. Agrogeografik tadqiqotlar va yer kadastri	12
5-§. Muhandis-geografik tadqiqotlar	15
6-§. Tibbiy-geografik tadqiqotlar	18
III b o b. Tabiiy geografik jarayonlar	20
7-§. Tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha	20
8-§. Tabiiy ornillar ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlar	23
9-§. Sun’iy ornillar ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlar	30
IV b o b. Jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri	32
10-§. Jamiyat va tabiat o‘zaro ta’sirining asosiy bosqichlari	32
11-§. Muhandislik inshootlari va ularning turlari	35
12-§. Ekologik muvozanat va uning buzilishi	38
V b o b. Tabiat komplekslari va ularning barqarorligi	40
13-§. Tabiat komplekslari haqida tushuncha	40
14-§. Landshaft va uning tuzilishi	43
15-§. Loyihalash ishlardida landshaft tahlili	46
16-§. Tabiat komplekslarining barqarorligi va uni xo‘jalik ishlardan hisobga olish	49
17-§. Tabiat komplekslarining inson tomonidan o‘zgartirilishi	50
VI b o b. Geografik baholash	53
18-§. Geografik baholash usullari	53
19-§. Yer resurslarini baholash	55
20-§. Iqlimiylar resurslarini baholash	58
21-§. Rekreatsiya resurslarini baholash	59
VII b o b. Geografik bashorat	64
22-§. Geografik bashorat haqida tushuncha	64
23-§. Bashorat usullari	68
24-§. Sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geografik bashoratlari	70
25-§. O‘zbekiston tabiat komplekslarining o‘zgarishini bashoratlash	72
VIII b o b. Atrof-muhit monitoringi	78
26-§. Monitoring va uning turlari	78
27-§. O‘zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish	81
IX b o b. Geografik-ekologik ekspertiza asoslari	83
28-§. Ekspertiza haqida tushuncha	83
29-§. Ekspertiza uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar	85

30-§. Ekspert xulosasining tayyorlanishi	86
31-§. O'zbekistonda geografik-ekologik ekspertiza o'tkazish	88
X b o b. Ekologik muammolar va ularning yechimi	90
32-§. Yirik ekologik muammolar va ularning yechimi	90
33-§. Hududiy ekologik muammolar va ularning yechimi	92
XI b o b. Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari	95
34-§. Ishlab chiqarish jarayoni haqida tushuncha	96
35-§. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari	98
36-§. Sanoat korxonasini joylashtirish va boshqarishni geografik tadqiq etish	104
37-§. Texnik loyihalarni asoslashda geografik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish	106
38-§. Soha kompleks dasturlarini amalga oshirishda geografiyaning ahamiyati	109
39-§. Kompleks mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda geografiyaning o'rni	111
40-§. Tabiat va inson resurslari hamda ularni iqtisodiy-geografik baholash	113
Ikkinchи bo'lim	
XII b o b. Geosiyo sat asoslari	116
41-§. Geosiyo sat fani haqida tushuncha	116
42-§. Geosiyo siy bosqichlar	118
43-§. Geosiyo satning asosiy kategoriyalari	122
44-§. Davlat kuch-qudrati va geosiyo sat	124
45-§. Siyosat va geografiya fani o'rtasidagi aloqadorlik	125
46-§. Fridrix ratsel va geosiyo sat	127
47-§. Geosiyo satning fan sifatida shakllanishida R. Chellen va K. Xausxofer ishlarning ahamiyati	129
48-§. X. Makinder va A. Mexenning geosiyo siy qarashlari	130
49-§. I. Spaykmen va klassik «atlantizm»	132
50-§. Geosiyo satda kontinental yo'nali sh	133
51-§. Angliya—Amerika geosiyo sati rivojlanishining asosiy yo'nali shlari	134
52-§. Dunyo geosiyo siy rivojlanishining asosiy paradigmalar	136
XIII b o b. O'zbekistonning geosiyo siy o'rni va kelajagi	139
53-§. O'zbekiston jahon siyosiy va iqtisodiy xaritasida	139
54-§. O'zbekistonning geosiyo siy o'rni	143
XIV b o b. Hozirgi zamonning geosiyo siy muammolari	145
55-§. Rossiya dagi hozirgi geosiyo siy vaziyat	145
56-§. Rossiyaning yangi geosiyo siy sifati	147
57-§. Geosiyo siy munosabatlar tizimida AQSHning o'rni	149
58-§. AQSHning O'rta Osiyo va boshqa hududlardagi geosiyo siy manfaatlari	150
59-§. Xitoy geosiyo siy yo'lining mohiyati	152
60-§. O'zbekistonga madaniyati yaqin bo'lgan mamlakatlar dunyo geosiyo siy tizimida	154
61-§. Kelajak geosiyo siy vaziyatiga bir nigoh	156

**ASOMIDDIN RAFIQOV, HURBOY VAHOBOV,
ABDUHAKIM QAYUMOV, SHUHRAT AZIMOV**

AMALIY GEOGRAFIYA

*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv go'llanma*

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati,
Toshkent — 2010

Muharrir *A. Bahromov*
Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*
Musahih *Sh. Xurramova*
Sahifalovchi *L. Batseva*

Bosishga ruxsat etildi 29.07.2010. Bichimi 60x90¹/16. Ofset bosma. Times garniturası.
Shartli bosma tabog'i 10,0. Nashr tabog'i 8,2. Adadi 10611.
Buyurtma № 1128.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**